Talabalarining uyda va kutubxonada o'qishi zarur. Lekin bu jarayon ko'p jihatdan o'qituvchining mas'uliyatiga ham bog'liq. Chunki talabalar o'z vaqtlaridan samarali foydalanishlari uchun ularga darsdan tashqarida o'qish uchun qiziqarli materiallar va topshiriqlar berib borish o'qituvchining vazifasidir. Shuning uchun kredit-modul tizimiga o'tish o'qituvchilarning ish yuklamalarini ham qayta ko'rib chiqishni, ularning ish yuklamalari ular o'qitadigan fan kreditlaridan kelib chiqqan holda belgilanishini taqozo etadi. Amaldagi tizimda esa o'qituvchilar ish yuklamasi faqat auditoriya soatlariga bog'lab qo'yilgan. Talabaning o'qish yuklamasi bu tarzda — auditoriya va mustaqil o'qish soatlariga ajratilishi OTMLar kutubxonalarida sharoitlarni yaxshilash, sifatli o'quv qo'llanmalari ko'lamini yanada kengaytirishni ham taqozo etadi. Bularning barchasi ECTS kredit-modul tizimining miqdoriy tushunchalari va ishlash mexanizmi haqidagi asosiy qoidalar edi uyda va kutubxonada o'qishi zarur. Lekin bu jarayon ko'p jihatdan o'qituvchining mas'uliyatiga ham bog'liq. Chunki talabalar o'z vaqtlaridan samarali foydalanishlari uchun ularga darsdan tashqarida o'qish uchun qiziqarli materiallar va topshiriqlar berib borish o'qituvchining vazifasidir. Shuning uchun kredit-modul tizimiga o'tish o'qituvchilarning ish yuklamalarini ham qayta ko'rib chiqishni, ularning ish yuklamalari ular o'qitadigan fan kreditlaridan kelib chiqqan holda belgilanishini taqozo etadi. Amaldagi tizimda esa o'qituvchilar ish yuklamasi faqat auditoriya soatlariga bog'lab qo'yilgan. Talabaning o'qish yuklamasi bu tarzda — auditoriya va mustaqil o'qish soatlariga ajratilishi OTMLar kutubxonalarida sharoitlarni yaxshilash, sifatli o'quv qo'llanmalari ko'lamini yanada kengaytirishni ham taqozo etadi.

**Foydalangan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablar(2018yil 4iyul) 2. G.R Toxtasinova, T.I.
2. Ormonova (2005). Bolalarbogchasida intellectual psixologik oyinlar T.:(4-5)
3. BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASI, INNOVATSIYA VA INTERGATSIYA R. Mavlvanova N. Raxmankulova TOSHKENT « V ORIS-NASHRTYOT » 2013
4. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Bakalavr>



## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI TO'GARAKLAR ORQALI KASB-HUNARGA MAQSADLI YO'NALTIRISHNING SHART-SHAROITLARI

**Xusanova Feruza Zoxidjonovna**

Namangan davlat universiteti.

Boshlang'ich ta'limda aniq va tabiiy fanlarni  
o'qitish metodikasi kafedraasi o'qituvchisi.

Gmail: E-mail-feruza.xusanova81@mail.com

**Annotatsiya:** Boshlang'ich sinif o'quvchilarini to'garaklar orqali kasb-hunarga maqsadli yo'naltirishning didaktik parametrlari, modeli va hamkorlikdagi jamoaviy ishni tashkil etish texnologiyasi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** to'garak, ijodiy bilish, analitik tahlil, statistik tahlil, munchoqli bezak san'ati.

Boshlang'ich sinif o'quvchilarini to'garaklar orqali kasb-hunarga maqsadli yo'naltirishga bag'ishlangan nazariy manbalarni tahlil etish, shuningdek, umumiy

o'rta ta'lim muassasalari ish tajribasini o'rganish boshlang'ich sinif o'quvchilarini to'garaklar orqali kasb-hunarga maqsadli yo'naltirishning quyidagi pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish imkonini berdi:

- Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ijodiy bilish faoliyatini rivojlantirishning to'garak rahbarlari uchun zarur bo'lgan me'yoriy hujjatlar esa markaz tomonidan ishlab chiqilgan va nashr etilgan “Maktabdan tashqari muassasa xodimiga eslatma” to'plamida batafsil ko'rsatilgan.

Markazda olib borilayotgan ishlar quyidagi aspektlar asosida tahlil qilinadi va hujjatlarda qayd etiladi:

- **Analitik tahlil.** Bunday tahlil asosida bugungi umumiy ma'lumotlar o'tgan o'quv yillari bilan solishtiriladi.

- **Statistik tahlil.** Uslubiy axborot markaz tomonidan berilgan barcha yo'nalishlar nomenklaturasi hujjati asosida hamda muassasaga kelgan ko'rsatmalar va boshqa so'nggi axborotlar asosida tahlil qilinadi.

Barkamol avlod bolalar markazlari rejasi bilan tanishib chiqilgandan so'ng, to'garak rahbari ham o'zining ish rejasini tuzishi kerak, sababi to'garak rahbarlariga ham belgilangan vazifalar bo'ladi.

To'garak rahbarlari markazning ish rejasini bo'limlarida belgilangan vazifalarni, ijro intizomi bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlarni rahbariyat to'garak rahbarlari bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

Har bir to'garak rahbarlari markaz rejasini bo'limlariga o'zlarining takliflarini berishi zarur, shundagina faoliyatda tizimlilik bo'ladi.

Markaz ichidagi ish rejalarini tuzishda hozirda turli kamchiliklar uchramoqda. Ular orasida quyidagilarga alohida e'tibor qaratish va bartaraf etish tadbirlarini amalga oshirish lozim:

-rejalashtirishga tizimli yondashuv yo'qligi, ya'ni muassasaning turli rahbarlik darajadagi va turli tarkibiy bo'linmalarining rejalarini ko'zda tutilayotgan maqsadlardan kelib chiqadigan yaxlit tizimni hosil qilinishiga erishilmayotganligida;

-tahliliy asoslashning zaifligi, ya'ni tahlil o'rniga tadbirlar ro'yhati, statistik ma'lumotlar bilan cheklanish;

-o'quv-tarbiya faoliyati ahvoli va natijalari tahlili bilan rejada belgilangan vazifalar orasida bog'liqlikning yo'qligi;

-vazifalar bilan birga belgilangan tadbirlar orasidagi bog'liqlikning yo'qligi;

-tadbirlarning ma'sul ijrochisi ko'rsatilmaganligi va noaniqliyliigi, masalan, bajarish uchun ma'sul-pedagoglar jamoasi, muddati yil davomida deb ko'rsatish va shu kabilar;

-tadbirlarning bajaruvchilar orasida va muddatlar bo'yicha notekis taqsimlanishi;

-rejalarining ortiq darajada zichligi, noreal ishlarni rejalashtirishdan iborat.

Har bir to'garak rahbari o'quv yili boshida to'garaklarda shug'ullanish uchun o'z ish rejasini tuzishi kerak.

Muassasa tomonidan tashkillashtiriladigan turli ommaviy tadbirlarda va jamoat ishlarida faol ishtirok etadi. Ta'limga taalluqli hujjatlar, kundalik matbuot yangiliklari bilan tanishish orqali o'z bilim saviyasini muntazam oshirib boradi.



Har bir to‘garak rahbari o‘z tajribasidan kelib chiqqan holda, yo‘nalishi bo‘yicha, yangiliklardan foydalanib o‘quv yili davomida uslubiy xat, qo‘llanma, tavsiyanoma yoki dastur tayyorlab mualliflik guruhiga tavsiya etadi.

O‘quv yili davomida o‘z ish uslubini targ‘ib etish, kamchiliklarni bilib olish maqsadida ochiq mashg‘ulotlar o‘tkazadi.

HARAKATLAR MAZMUNI	YAKKA BAHO	YAKKA BAHO	TO‘G‘RI JAVOB	GURUH BAHOSI	GURUH XATOSI
To‘garak mashg‘ulotini tashkil etish.					
To‘garak mashg‘ulotini tashkil etishdagi interfaol metodlarni o‘rganish.					
Kerakli versiyasini qo‘llash.					
Interfaol metodlarni tanlash va qo‘llash.					
Qo‘shimcha materiallardan foydalanish					
Ish faoliyatni tahlil qilish, baholash va xulosalash					

Munchoq bilan tikishning bugungi kundagi ahamiyati to‘g‘risida to‘xtaladigan bo‘lsak, bu hunar turi xalq amaliy san‘ati darajasida ko‘tarilishi bejiz emas. Chunki, odatda sharq mamlakatlarida, xususan Markaziy Osiyoda go‘zallikka intilish, ya‘ni, yashash joylariga, xonalarga, oddiy buyumlar, kiyimlarga ham sayqal berib bezatish an‘anaviy bo‘lgan, ayniqsa, bugungi kunda bu jarayon dolzarb bo‘lib kelmoqda. Xususan, ayollar kiyimlari va buyumlariga bezak yaratishda oddiy va qimmatbaho toshlar va munchoqlardan foydalaniladi. Bu jarayon zamonaviy tilda biser tikish deb ataladi. Shu bilan birga san‘at darajasida qabul qilinadi. Ayollarimiz, qizlarimiz milliy kiyimlar dukonlaridan munchoq bilan tikish usulida bezatilgan kiyim va buyumlarni xarid qilishlari fikrimizning yorqin dalilidir.

Munchoqli bezak san‘ati, juda ham foydali va o‘quvchi diqqatini jalb etuvchi san‘at turlaridan biri hisoblanadi. Chunki bu san‘at turi, o‘quvchi - yoshlarning badiiy didi, ixtirochilik qobiliyatini oshirish bilan birga, diqqatini jamlash, xotirasini mustahkamlash, harakatchanligini oshirish uchun ham xizmat qiladi. Bundan tashqari o‘quvchi-yoshlarning mehnat qilishga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi. O‘quvchi-yoshlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar oddiy bo‘lsa-da, ular yangilikka intiluvchanligi, fantaziyaga boyligi bilan e‘tiborga loyiq desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ma‘lumki, maktabdan tashqari ta‘lim muassasasi, ya‘ni joylarda faoliyat olib borayotgan Barkamol avlod bolalar markazlarining asosiy maqsadi, o‘quvchi-yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, shu bilan birga ularni o‘zlari sevgan kasb yoki hunarga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirishdan iboratdir.

Lekin bu albatta o‘quvchilardan hohish istaklari, qolaversa bugungi kun talablari asosidan kelib chiqqan holdagi ish rejalar bo‘yicha faoliyat olib borishni talab etadi. Tabiiyki, maktablarda olib borilayotgan mehnat darslarida yoki darslar jarayonida o‘quvchilar o‘zlari sevgan kasb yoki hunarga oid bilimlarni egalaydilar. To‘garaklarda esa o‘sha olgan bilimlarni amalda sinab ko‘rish yoki mukammalroq o‘rganishni xoxlaydilar.

Ularning qiziqish, istaklarini o‘rganish maqsadida faoliyat davomida to‘garaklar o‘quvchilari bilan suhbatlar tashkil etilib, ularning qiziqishlari anketa savollari asosida o‘rganib chiqildi. Anketa savollaridagi javoblarga qaraganda o‘quvchilar birinchidan, ko‘proq bugungi kun ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan narsalarni, (turli sovg‘alar, o‘yinchoqlar, taqinchoqlar va h.k) ikkinchidan esa badiiy jihatdan o‘quvchilarni shu yo‘nalishga bo‘lgan qiziqishini qanoatlantiruvchi (daraxtlar, turli gullar, qushlar, hayvonlar shakllari va h.k) buyumlar tayyorlashga ishtiyoqmand ekanligi aniqlandi.



MUNCHOQ BILAN BEZASH TO‘GARAGI FAOLIYATINI YURITISHDA ISHLATILADIGAN XOM-ASHYOLAR.

1	Tikuv iplari		Flizerin
2	Munchoq	14	Oq surup mato
3	Igna (turli o'lchamda)	15	Selon mato
4	Leska	16	yelim (biser pistoleti uchun)
5	Tasmalar (kasoy beka)	17	Rezinka
6	Bezak toshchalar	18	To‘g‘nog‘ich
7	Simlar (mnogojilniy)	19	Falga qog‘oz
8	Simlar (alkamin)	20	O‘chirg‘ich
9	Turli kattalikdagi va rangdagi qirrali biser munchoqlari	21	Dumaloq gardish
10	Durlar	22	Qog‘oz (kalka)
11	Xar xil rangdagi va figuradagi toshlar (ko‘zlar)	23	Qora qalam


Munchoq bilan ishlashga tayyorgarlik ko‘rish.

Ish boshlashdan avval ishlatiladigan barcha anjomlarni, ulardan foydalanish usullarini, munchoqlardan foydalanish texnologiyasini o‘rganish talab etiladi.



Munchoqli bezakda ishlatiladigan iplar.

Munchoq bilan ishlashda ipakli iplardan foydalanish tavsiya etiladi. Chunki ular yetarlicha silliq va baqquvatdir. Ayrim tayyorlanayotgan maxsulotlarni turiga qarab leska va simlardan foydalanish mumkin.



Rangli simlar

Munchoqli bezakda ishlatiladigan ignalar igichka bo'lishi talab etiladi. Yaxshisi, munchoq tikishda ishlatiladigan ignalardan foydalangan ma'qul. Bunday ignalar turiga 11 yoki 12 raqamli ignalar kiradi. Agar shunda ham munchoqlar ignadan o'tmasa u holda, ignaning uchiga yelim surtib chiqish mumkin. Yelim bilan qotirilgan ip igna vazifasini bajaradi. Qaychining uchki qismi igichka bo'lishi lozim.



Munchoqli bezakda qisqichlarning ham o‘ziga xos o‘rni va vazifasi mavjud. Munchoqlar ipga tizilayotganda ignaga tiqilib qolishi, ignadan o‘tmay qolishi mumkin. Mana shunda ignani tish bilan tortish umuman taqiqlanadi va qisqichlardan foydalanish tavsiya etiladi.

#### **Chok turlari**

Asosiy choklar. Asosiy choklarni tikishda mato tanlab, namuna uchun razmerda bichib, uni choklar tikishga tayorlanadi.

**To‘g‘ri chok.** To‘g‘ri choklarni tikishda matoga chiziq bo‘ylab munchoq turlaridan ignaga qarab tikiladi. Mustahkam va mustahkam bo‘lmagan usullaridan namunaga choklar tikishda.

**Qiya chok.** Qiya choklarni tikishda namunaga munchoq turlaridan foydalanib, qiya va vetikal choklar tikiladi. Bunda ignani to‘g‘ri yo‘naltirib va parallelikka rioya qilish ko‘rsatib o‘tiladi.

**Atlas chok.** Atlas choklarni usullarini tikishda munchoqlarning turlari mutanosibligi, atlas mato guliga mos kelish ko‘rsatiladi. Atlas chokning zich va yoyma usulida, romb usulida namunaga uzun shisha munchoqlarda, rangli munchoqlarda atlas choklar tikiladi.

**Shaxmat chok.** Shaxmat choklarni tikishda namunaga uzun shisha munchoqlardan bir xilda vertikal va gorizontal tikib shaxmat doska kataklariday terib tikiladi. 1 bo‘yiga turtta bir xil tikilib, 2 eniga xam turtta bir xil tikiladi.

Tikish uchun kapron, ipak hamda iplaridan foydalaniladi. Bulardan tashqari, leska, turli diametrli simlar ham ishlatiladi. Mato va naqsh dizayni, tikish usuliga qarab munchoqlar, iplarning yo‘g‘onligi va rangi, ignaning ingichkaligi tanlanadi. Matoga munchoq bilan gul tikish uchun ko‘proq sintetika ipda tikiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent-“O‘zbekiston”-2017.145 bet

2. Антоненко, А.А. Подпрограмма «Самосознание и самоопределение школьников» [Текст] / А.А. Антоненко, С.Н. Лавринова, Н.Г. Гайнутдинова // Начальная школа - 1996. - № 4. - С. 48-59.

3. Tolipov O‘.Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘llash texnologiyasi. -Toshkent: O‘zPFITI. 2004. 32 b.

4. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yo‘lash. O‘quv qo‘llanma.-Toshkent: O‘zROO‘MTV, 2007, 234 bet.

5. Xusanova F. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga to‘garaklarda kombinotorika elementlarini o‘rgatish yo‘llari. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. 2022 y. 1/12/1. T. 165-168

6. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini to‘garak mashg‘ulotlari jarayonida kasbiy yo‘naltirish muammolari yechimi. *Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-НамДУ ilmiy axborotnomasi*–2022-yil\_9-son, 577 bet.



**EKOLOGIYANI O'QITISHNING YANGI INNOVATSION PEDAGOGIK  
TEKNOLOGIYALARI ASOSIDA AMALGA OSHIRISHNING NATIJALARI**

**Sanayeva M.I**

TFI akademik litseyi Biologiya  
o'qituvchisi

Ekologik omillarning turlarini o'quvchilarga tushuntirishda darslarning samaradorligini oshirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan namunalar aks etgan. Interfaol usullar yordamida dars o'tish o'quvchining intellektual faolligini, o'quv harakati sifatini, aqliy izlanishini takomillashtirishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** pedagogik texnologiya, interfaol usul, test, metod, topshiriq, fikrlash, inovatsion, ijodiy fikrlash.

Hozirgi zamon sharoitida, biologiya darslarni o'qitishning yangi innovatsion pedagogik texnologiyalari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarning xislati shundaki, unda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Hozirda biologiya darslarda eng ko'p qo'llaniladigan o'qitishning interfaol usullari quyidagicha:

**Topshiriq, mashqni bajarishga doir metodlar:** Ekologik omillarga doir nazariyalarni o'qituvchi o'quvchilarga tanishtirib bo'lganidan keyin, uni mustahkamlash maqsadida turli xil topshiriqlar beradi. Ular yozma yoki og'zaki shaklda bo'lishi mumkin. Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar. Og'zaki:

1. "Ekologiya" chaynvordlarini kichik geruhlarga berish va berilgan chaynvorddagi to'g'ri javoblarni ta'riflab berish.
2. Savollarga to'g'ri javobni tanlang.
3. Ekologik diktant. Mazuga doir ma'lumotlar berilgan va tushirib qoldirilgan so'zlarni yozish va ularni ta'riflab berish


**Harorat turlari**

Organizmlarning normal hayot kechirishi uchun o'rtacha harorat \_\_\_\_\_ C

Quruqlikdagi minimal va maksimal harorat-\_\_ C, +\_\_ C

Dengizda minimal va maksimal harorat+\_\_ C, +\_\_ C

Chuchuk suvlardagi minimal va maksimal harorat  
+\_+ C, +\_+\_\_ C Geothermal buloqlarda harorat +\_+\_\_ C





4. Ekologik atamalar ekranda ma’lum bir vaqt davomida beriladi va shu berilgan vaqt ichida atamalarga to’g’ri ta’rif berish..

Dastlab matn ustida ishlashni boshlaganda, uning barcha bosqichlarida o’quvchilarga amaliy yordam beriladi. Bunda o’quvchilar diqqatini matnning mazmuniga qaratish mumkin.

IV. O’zaro musobaqa, fikrlarni bayon etish va tushuntirishga doir usullar. Bunday usullarga — “Anjuman”, “Musobaqa”, “Tanlov”, “Sinov”, “Yuzma-yuz” kabilarni kiritish mumkin. Masalan, “Sinov” usulini qo’llashda o’quvchilarga test kartochkalari tarqatiladi. Ushbu kartochkalar faqat o’rganilgan mavzuga oid bo’lib, unda testlar oddiydan murakkabga qarab tuzilishi lozim. Bunday testlar orqali o’quvchilarning erkin fikrlash qobiliyati o’sib, ekologiyaga bo’lgan qiziqishlari ortadi.

	<p>Rasmda suv hayvonlarining ekologik guruhlarini tasvirlangan. Uchinchi tartib raqami suv hayvonlari ekologik guruhi qanday nomlanadi?</p>
<p>Muhitning qaysi ko’rsatgichlari evolutsiya davomida o’zgaras bo’lib qolgan muhit omillari berilgan javoblarni aniqlang.</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1) yerning tortishish kuchi</li> <li>2) harorat va namlik</li> <li>3) shamol va yog’ingarchilik</li> <li>4) quyosh doimiyligi</li> <li>5) oziq miqdori</li> <li>6) okean suvi tarkibida tuz tarkibi</li> </ol> <p><b>J:1,4,6</b></p>	
	<p>Rasmda berilgan ekologik jarayonga xos bo’lgan javoblarni aniqlang.</p>
<ol style="list-style-type: none"> <li>1) bioritm</li> <li>2) fotonastiya</li> <li>3) fototropizm</li> <li>4) abiotik omilning o’simlikka ta’siri</li> <li>5) biotik omilning o’simlikka ta’siri</li> <li>6) yorug’lik omili</li> </ol> <p><b>J:3,4,6</b></p>	

Interfaol usullarning ta’limiy xususiyatlari quyidagilarga bo’linadi. Bunda interfaol usullar ta’limda subyekt-obyekt faoliyatini ifodalaydi.

1. O’quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish: sinf o’quvchilari kichik guruhlariga bo’linib, guruhlararo muloqot, bahs-munozara orqali ta’lim beriladi.

2. Interfaol usullarning ta’lim oluvchilarga yo’naltirilganlik xususiyati, ya’ni shaxsga yondashuvchanligidir. Interfaol usulning bu xususiyati o’quvchilarning yakka tartibda, guruh shaklidagi o’zaro hamkorligini ifodalaydi. Bunday faoliyatda o’quvchilarning xilma-xilligi namoyon bo’ladi.

3. Izlanish, ijodiy faoliyat ko’rsatish, o’zaro hamkorlikni ta’minlashga doir xususiyatlari. Bunda o’quvchilar yakka va guruh shaklida ijodiy izlanib, izlanish natijalarini tahlil qiladilar. Bu esa darsda o’quvchining faolligini oshiradi, izlanish, o’ylab topish, uning to’g’riligini o’zaro mulohaza bilan isbotlashga intilishni shakllantiradi.

4. Shaxs sufatlarini shakllantirish xususiyati. Interfaol usullar o’quvchilarni bilishga qiziqtirish, shu bilan birga bilimga intilishini, topqirligini oshirib boradi. Bu esa, o’quvchining intellektual



faolligini, o‘quv harakati sifatini, aqliy izlanishini takomilashtirishga yordam beradi.

5. Interfaol usullar o‘quvchining odobli, tartibli bo‘lishi, har bir fikrni o‘ylab, dalil-isbotlar asosida ifodalashga o‘rgatadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, o‘qituvchi mavzuning o‘quvchiga to‘la tushunarli bo‘lishini ta’minlash uchun dars jarayonida interfaol usullar va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ta’lim samaradorligining yanada oshishiga katta hissa qo‘shadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. H.Omonov, M. Xattabov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.-T..2016
2. A.Gafurov, A.Abdukarimov, J.Tolipova, O.Ishankulov va b .Biologiya. (11-sinf).-T..2018
3. Sadriddinov N., Rahimov A., A.Mamadaliyev, Z.Jamolova.Biologiya o‘qitish uslubi asoslari. T.: O‘zbekiston-2005.



## ФОРМИРОВАНИЕ ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ

Джураева Гули Маратовна,  
Навоийская область, г.Навоий  
школа №1, учитель начальных классов  
высшей категории

**Аннотация:** Данная статья раскрывает тему современной системы школьного образования, где на передний план выходят требования общества к выпускникам.

**Ключевые слова:** критическое мышление, функциональная грамотность, читательская грамотность

Современная система школьного образования переживает большие изменения в своей структуре, на передний план в данный момент выходят требования общества к выпускникам: это навыки работы в команде, лидерские качества, инициативность, ИТ-компетентность, финансовая и гражданская грамотности и многое другое. Заказ общества - на всесторонне развитую личность, способную принимать нестандартные решения, умеющую анализировать, сопоставлять имеющуюся информацию, делать выводы и использовать творчески полученные знания.

И несомненно, что новые требования предъявляются к преподаванию школьных предметов, и математики в частности. Учителям нужно пересмотреть навыки приобретения критического мышления на уроках, в этом им могут помочь задания по формированию функциональной и читательской грамотности учащихся. В новых обстоятельствах процесс обучения выпускников в школе должен быть ориентирован на развитие компетентностей, способствующих реализации концепции «образование через всю жизнь». В международном исследовании *PISA* (Programme for International Student Assessment) термин «функциональная математическая грамотность» означает «способность учащегося использовать математические знания, приобретенные им за время обучения в школе, для решения разнообразных задач межпредметного и практико-ориентированного содержания, для дальнейшего обучения и успешной социализации в обществе».

Понятие «функциональная грамотность» предполагает владение умениями:

- выявлять проблемы, возникающие в окружающем мире, решаемые посредством математических знаний,
- решать их, используя математические знания и методы,
- обосновывать принятые решения путем математических суждений,
- анализировать использованные методы решения,
- интерпретировать полученные результаты с учетом поставленной задачи.

В данном сборнике представлены разнообразные задания для развития функциональной грамотности обучающихся.

При отборе содержания заданий учитывается каждая основная тема традиционного школьного курса математики: числа, измерения, оценка, алгебра, функции, геометрия, вероятность, статистика, элементы теории чисел.

В рамках этих тем значительное внимание уделено ряду вопросов, имеющих высокую практическую значимость (измерение геометрических величин, оценка, проценты, масштаб, интерпретация диаграмм и графиков реальных зависимостей, вероятность, статистические показатели и др.).



**АЖИНИЁЗ ҚОСИБОЙ ЎҒЛИ АСАРЛАРИДА ИНСОНПАРВАРЛИК  
ПЕДАГОГИКАСИ ҒОЯЛАРИНИНГ ЮКСАЛИШИ**

**PhD Ж.К.Таспанова**

Қорақолпоқ Давлат Университети  
доценти в.б.

Телефон: 913707561  
taspanova85@list.ru

**Аннотация:** Мақолада инсонпарварлик педагогикаси ҳақида ва Ажиниёз Қосибой ўғлининг ижодида қорақолпоқ халқининг маънавий-ахлоқий ҳаётидаги теран анъаналар, дунё, табиат, ижтимоий ҳодисалар ва адолатпарварлик, инсонийлик ва ғамхўрликнинг уйғунлашувида ифодаланадиган ахлоқий-фалсафий фикрлар акс этган.

**Таянч сузлар:** Инсонпарварлик, детоцентризм, педоцентризм, тарбия, кадрият, фаровонлик.

“Инсонпарварлик педагогика”си замонавий тарбия назарияси ва амалиётида ХХ асрнинг 50-йиллари охири – 60-йилларининг бошларида АҚШда пайдо бўлган йўналиш [5;58.]. Инсонпарварлик педагогикасининг фалсафий-ғоявий йўналганлиги педоцентризм ғояларига яқин. “Детоцентризм, педоцентризм – тарбиявий концепция бўлиб, оиланинг кизиқишлари фақат болага қаратилади. Детоцентризм кўпроқ бир болали ва тўлиқсиз оилалар учун хос” [5;64]. Инсонпарварлик педагогикасида тарбиянинг бош мақсади шахснинг ўз-ўзини актуаллаштиришидир. Инсонпарварлик педагогикаси эса янгича тарбиялаш ва “прогрессивизм” педоцентризми ғояларига яқинроқ. Педагогдан у болани қандай бўлса, шундайлигича қабул қилишни, унинг сезгиси ва эҳтиёжларини ҳис этишни талаб этади. АҚШда у бошланғич, ўрта ва олий мактабда ўқув курсларининг мазмунига ва қурилишига таъсир кўрсатади.

“Инсонпарварлик” тушунчаси моҳиятини, унинг турлари ва илмий педагогика билан муносабатларини қандай талқин қилиш керак? “Фалсафа комусий луғат”да инсонпарварлик “Одамларга меҳр-муҳаббат билан қараш, уларни ҳурмат қилиш, инсоннинг моддий фаровонлигини юксалтириш ва кишиларда юксак маънавий фаилатларни ривожлантиришга ғамхўрлик қилиш ғоялари билан суғорилган дунёқараш” [6;166] сифатида қаралади. “Педагогик энциклопедик луғат”да эса, инсонпарварлик шахс сифатида инсон, унинг эркин ривожланиши ва ўз қобилиятларини намоён эта олишини кадрият сифатида қабул қилиш эканлиги уқтирилади [5; 58].

Кенг маънода инсонпарварлик – инсонни шахс сифатида кадрият деб белгилайдиган, унинг эркинлик, бахтга бўлган ҳуқуқи, ўзининг қобилиятларини намоён этиши ва ривожлантириши, ижтимоий институтларнинг баҳолаш мезонларида инсон равнақини ҳисобга оладиган қарашларнинг тарихий ўзгарувчан тизими, инсонийлик – одамлар орасида қутиладиган меъёрий муносабат.

Ўрта Осиёда инсонпарварлик педагогикаси ривож қадим давларга бориб тақалиб, илк ёзма манбалардан Шарқ Уйғониш даври мутафаккирларининг қарашларида ҳам ўзининг аниқ ифодасини топган [1]. XIX аср эса, миллий тарбияшунослигимизда Мунис, Огахий, Аҳмад Дониш, Ажиниёз Қосибой ўғли тимсолида демократик руҳдаги асарларнинг янада кўпайганлиги билан тавсифланади.

Ажиниёз Қосибой ўғлининг ижодида қорақолпоқ халқининг маънавий-ахлоқий ҳаётидаги теран анъаналар, дунё, табиат, ижтимоий ҳодисалар, инсоннинг дунёдаги ўрни ҳақидаги тушунчалар, яхшилик ва ёмонлик, эркинлик ва адолатпарварлик, инсонийлик ва ғамхўрликнинг уйғунлашувида ифодаланадиган ахлоқий-фалсафий фикрларни кўриш мумкин. Миллий маданиятнинг турли образли шакллари орқали тасвирланган бундай тасаввурларда умуминсоний орзу-ўй ва қарашлар ёрқин акс этади [4].

Ажиниёзнинг хизмати Шарқнинг буюк мутафаккирлари, файласуф-ларидан мерос бўлиб ўтган инсон, халқ, миллатнинг энг яхши ахлоқий сифат-лари ва инсонпарвар ғояларини изчиллик билан давом эттирганлигидадир. Унинг ижодида ана шу ворисийлик янгича дунёқараш кўринишида акс этди ҳамда қорақолпоқ халқига хос миллий маданиятнинг ахлоқий-эстетик тамойиллари намоён бўлди.



Ажиниёзнинг ахлоқий қарашларидаги қорақалпоқ халқининг миллий- ахлоқий онгини шакллантиришга оид оид фикрларни таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, уларда “комил инсон” ғоясининг ривожлантирилади, Шарқ ва Ғарб маданиятининг доимий равишда, изчиллик билан бир-бирига таъсир кўрсатганлиги аниқ намоён бўлади [3;15].

Ажиниёзнинг ахлоқий қарашларида зулмга нисбатан сабр-тоқатли бўлиш, тақдирга тан беришга чорлов – жамиятни инсонпарварлаштиришдаги энг самарали йўл сифатида тасаввур қилинади. Айнан бундай инсонпарварлик тамойили азалдан Марказий Осиё халқларига хос толерантлик (бағрикенглик), кишиларнинг ўзаро бир-бирларига муносабатларида сабр-тоқатли бўлишни шакллантирган.

Ўзини тасаввуф таълимотининг фидойиси сифатида тушунган шоир, худо томонидан одамларнинг барча иш ҳаракатлари авваламбор белгиланиб, тақдирга ёзилиб қўйилганлиги ҳақидаги тушунчаларни тан олиб, бунга эътибор билан юзланади. “Яхши эди” номли шеърда бу бўйича ғоят мазмунли фикрларни тасвирлайди. Бунда шоир: “Лавҳул махфуз вал каламий” [2] деб ёзган эди. Бу гапларнинг мазмунида сўзма-сўз аниқлик киритганда лавҳул – ёзув ёзадиган тахта маъносида, махфуз – ўша тахтага ёзилиб тўрган ёзувлар маъносида, вал каламий – Оллоҳнинг лафзи деганди билдиради, яъни инсон тақдирга тегишли тангрининг ёзмишлари.

Ажиниёз худо томонидан инсон тақдирининг белгилаб қўйилганлигига ишонч билдирса да, буни инсоннинг ақлга солиб, муҳокама қилиш йўли билан чорасини топиб, ўз эрки, хоҳиши асосида унга ўзгариш киритиш имкониятлари ҳам берилганлигини тушунтиради. Шоир ушбу орқали инсонларнинг ижодий қизиқиши ёрдамида турмушига ўзгаришлар жорий этиш малакасига эга бўлишини, кучли эрк ва қийинчиликларни енгишга йўл топадиган ақл – малака эгаллашини алоҳида зарур санайди.

Ажиниёзнинг фикрича, оламдаги сабаб ва оқибат ўртасида мустаҳкам боғлиқлик бор. Шоир “Бўлади”, “Бўлур”, “Керак” ва бошқа шеърларида дунёдаги ҳамма нарса сабаб-натижа муносабатларидан иборат эканлигини эслатиб туради. Уни: “Тоғ бошидан оқса ариқ, Пастини сел қилади. Йўқчиликдан оққан кўз ёш, Румолимни хўл қилади” деб тушунтирган эди [2]. Шоир табиат қонуниятларини ҳисобга олган ҳолда жамият ҳаётида юзага келадиган сабаб-натижа муносабатларини аниқлашда ва тарбиявий ишларини юргизишда ҳам шундай ҳодисалардан фойдаланишга ҳаракат қилган.

#### **Адабиётлар:**

1. Абдираззаков А.А. Национальные духовные ценности и их место в самосознании нации: Автореф. дис. ... канд. филос. наук. – Т., 1995. – 24 с.
2. Эжинияз. Таңламалы шығармалары. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1994. – 114 б.
3. Ембергенов А.П. Этические взгляды Ажинияза в контексте современной культуры: Автореф. дис. ... филос. наук. – Ташкент, 2005. – 17 с.
4. Қарақалпақстанның жана тарийхы. Қарақалпақстан ХИХ әсирдиң екинши ярымынан ХХИ әсирге шекем. – Нөкис, Қарақалпақстан, 2003. – 554 б.
5. Педагогика. Большая современная энциклопедия. – Минск: Современное слово, 2005. – 720 с.
6. Фалсафа: комусий луғат (Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров). – Т.: Шарқ, 2004. – 496 б.



## OILADA BOLALAR BILAN MULOQOTNI YO'LGA QO'YISHDA INNOVATSION YONDASHUV

**Alijonova Iroda Nabijonovna**

Andijon Davlat Universiteti

Umumiy pedagogika kafedrası o'qituvchisi

+998-91-618-83-63

**Annotatsiya:** Farzandingiz bilan munosabatlaringiz qanchalik yaqin va o'zaro ishonchga qurilgan. Ishlaring qalaly? maktabda xammasi joyidami? Tushlik qildingmi? qabilidagi savollarni ayrimlar to'laqonli muloqot sanashadi. Boshqacha vaziyat ham bo'lishi mumkin. Siz jigarbandingiz bilan chin dildan muloqot qilish va uni tinglashdan mamnunmisiz, biroq dialoglarni ildizi bilan kesib tashlaydi.

**Kalit so'zlar:** Oila, muloqot, muloqot uslublari, avtoritar, liberal, demokratik uslub, oiladagi muloqot.

Muloqot – yunoncha so'z bo'lib, suhbatlashuv, shaxslararo suhbat va o'zaro fikr almashuv ma'nosini bildiradi hamda ikki yoki undan ortiq kishilarning so'zlashuvida paydo bo'ladi. Inson muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, ta'lim-tarbiya, turli munosabatlar, axloqiy me'yorlar g'oya va mafkura omillari ta'sirida yashab ijtimoiylashadi va shaxs sifatida kamolotga etadi. Kishilar o'rta-sidagi o'zaro muloqot pedagogik–psixologik fanlarning asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanib, u o'z ichiga shaxslararo munosabatning eng muhim mexanizmlarini qamrab oladi.

Psixologiya fanida muomala kategoriyasi keng ma'noda tushuniladi hamda hamkorlik faoliyatining ichki aloqasini mujassamlashtirib, o'zaro ta'sir va o'zaro munosabatni aks ettiradi va ijtimoiy protsessual faoliyatni ifodalaydi.

Pedagogikada muloqot o'qituvchi va o'quvchilar jamoasining o'zaro ta'sir malakasi, usuli va tizimini anglatib uning mohiyati, o'zaro axborot almashishida, ta'lim va tarbiyaviy ta'sir o'tkazishida, o'zaro bir-birlarini tushunishga erishishlarida namoyon bo'ladi.

A.S.Makarenkoning fikricha, o'qituvchi muloqoti hypmat va talabchanlikka asoslangan munosabat shaklida bo'lishi lozim.

V.D.Suxomlinskiy o'qituvchining "*...maktab hovlisida gapirgan har bir so'zi puxta o'ylangan, aql va mulohazalarga boy, ma'lum bir tarbiyaviy maqsadga qaratilgan bo'lishi kerak*" deb ta'kidlaydi. O'qituvchining har bir so'zi olimning fikricha, nafaqat o'quvchi qulog'iga aytiladi, balki uning qalbiga ham qaratilgan bo'lishi shart. Umuman ilg'or o'qituvchilarning fikricha, ta'lim va tarbiya faqat o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamkorlik pozitsiyasi asosidagi muloqot jarayonida quriladi.

Muloqot jarayonida o'qituvchi qisqa muddatda o'zining psixologik bilimlariga tayanib o'quvchilarning psixik xususiyatlarini mukammal bilishga harakat qilishi lozim. O'quvchilarning ichki dunyosiga, ruhiy holatiga kirib bormasdan, unga nisbatan turli tarbiyaviy jazolar qo'llash, tanbeh berish mumkin emas. Bu holat o'quvchilar bilan o'zaro muloqotni tuzatib bo'lmas darajada buzilishiga, o'quvchilarning yashirin holatga, o'z "qobig'i"ga kirib olishiga sabab bo'ladi.

O'qituvchilarning o'zaro axborot almashishi bilan bog'liq xususiyatlari, uning sinf jamoasiga singib keta olish qobiliyati bilan bog'liq. Sinf jamoasida ro'y berayotgan har qanday voqea va hodisalar o'qituvchilar nazoratida bo'lishi, ularning oqibatini o'qituvchilar tez va adolatli tahlil qilishi va oldini olishi lozim. Bu faqat faol o'quvchilar bilan axborot almashib turish natijasida amalga oshiriladi. Shundagina, o'qituvchining o'quv tarbiyaviy jarayondagi faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratiladi va ijobiy natijalar beradi.

O'qituvchi ta'lim – tarbiyaviy faoliyatni o'quvchilar bilan birgalikda tashkil etadi. Bunda sinfning faol o'quvchilari hamda norasmiy liderlari bilan o'zaro muloqotning adolatli bo'lishi muhim ahamiyatga ega: o'quvchilarni tarbiyaning turli elementlarini ongli ravishda mustaqil bajarishga jalb etish, bunda o'quvchilarga tashkilotchilik va ijro etish rollarini bajarishga imkoniyat yaratib berish lozim. O'qituvchining to'g'ri tashkil etilgan muloqoti o'quvchining o'zligini anglash funksiyasini takomillashtiradi. Bunda o'qituvchining vazifasi muloqot asosida o'quvchilarga o'zining "Men"ligini anglashni, shaxs sifatida o'z fikrini dadil va erkin gapirishni, jamoada o'z o'rnini bilishni, o'z-o'zini baholashni o'rgatishi kerak.

Pedagogik muloqot tuzilishi jihatidan o'qituvchi ijodkorligining noyob namunasidir. Pedagog



olimlar o‘qituvchining o‘quvchilar bilan muloqotiga ko‘plab tavsiflarni ilmiy asarlarida bayon etsalarda, muloqot avvalo, o‘qituvchining shaxsiy psixologik xususiyati sifatida namoyon bo‘ladi. Olimlar esa, muloqot uchun o‘qituvchiga yo‘nalish beradi xolos. Jumladan, rus pedagogi V.A.Kan-Kalikning fikricha, o‘qituvchining pedagogik muloqoti tuzilishi quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi: Olimning fikrlari asosida muloqotning ushbu yo‘nalishlarini quyidagicha ta’riflash mumkin?

*Modellashtirish* bosqichida auditoriyaning barcha andozalarga javob berishi, har bir o‘quvchining psixologik xususiyatlarini o‘rganishi, ta’lim-tarbiyaviy jarayonda uchrashi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar dinamikasini oldindan ko‘ra olish va bartaraf etish, muloqotning o‘zaro hamkorlik asosida qurilishi, ya’ni muloqot o‘qituvchi shaxsiga emas, balki o‘quvchi shaxsiga ham mos kelishini ta’minlash zarur. *Kommunikativ aloqa* bosqichida sinf jamoasini o‘zaro muloqotga tez jalb etadigan suhbat texnikasini puxta bilish, ularning barcha qiziqishlariga javob bera olish, erkin fikr bildirishlariga imkoniyat yaratish va o‘quvchilar ongiga ijobiy ta’sir etishning turli usullarini qo‘llash metodlarini egallash lozim.

*Pedagogik jarayon* bosqichida o‘qituvchining faoliyati bevosita ta’lim-tarbiyaviy ishlarni ma’lum bir yo‘nalishga solish, o‘quvchilar tashabbusini qo‘llab quvvatlash, sinf jamoasining rasmiy va norasmiy liderlari bilan adolatli muloqotni tashkil etish, o‘z fikrlarini jamoa fikrlari bilan real sharoitga moslashtira olish ko‘nikmalarini yaratish kabi faoliyat olib boriladi.

*Natijalar tahlilida* o‘qituvchi o‘z faoliyatiga xolisona baho berishi, yutuq va kamchiliklarni inobatga olib, kelgusi ta’lim-tarbiyaviy faoliyatida tanqidiy qo‘llashni bilishi lozim, ushbu yo‘nalishda maqsad, reja va natijalarning birligi ta’minlanadi, o‘quv-tarbiya jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilar bilan muloqotni tashkil etish va boshqarishda rahbarlikni, tashabbuskor bo‘la olishni bilishi kerak.

O‘quvchilarning axloqiy jihatdan tarbiyalanganligi uning atrof muhitga nisbatan bo‘lgan munosabatlarida ham namoyon bo‘ladi. Axloqiy tarbiyalanganlik o‘quvchining his tuyg‘ularida ichki kechinmalarida ifodalanadi va xulq atvorida, o‘qituvchi bilan muloqot jarayonida yuzaga qalqib chiqadi. O‘quvchilar bilan yaqin munosabatda bo‘lish va mehribonlikni namoyish etish, o‘qituvchining sinf jamoasi bilan munosabatda to‘g‘ri va odilona muloqotini tashkil etishda asosiy zamin bo‘ladi.

Muloqot turli rollar orqali shaxs faoliyati uchun ijtimoiy maydon yaratadi, shaxsning ijtimoiy xulq-atvorini shakllantiradi. O‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida o‘zining shaxsiy tashabbuskor va rahbarlik rolini namoyish etadi. Dars jarayonida esa o‘qituvchi o‘quvchilarni *tashkilotchi va ijrochi* rollarida bo‘lishga imkoniyat yaratishi kerak. Muloqot asosida shaxs o‘zligini tanishni o‘rganadi. O‘qituvchi darsni rejalashtirar ekan, faqat o‘rganilayotgan dars mavzusi to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida o‘quvchilarni axborot ko‘lamiga jalb etishni o‘ylamasligi kerak, balki o‘qituvchining yordamiga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilarni topishi, ularga yordam berish uchun sharoit yaratishi, har bir o‘quvchining qiziqishini ta’minlovchi sharoitlarni ko‘ra olishi va o‘zaro hamkorlikni ta’minlashi lozim.

Pedagogik faoliyatda o‘qituvchi muloqot asosida o‘quvchilar bilan yaxshi munosabatni tashkil eta olishi, demokratik talablarni qo‘llashi va birgalikda ijodiy faoliyat olib borishi kerak. Pedagogik muloqot esa, bu o‘qituvchi kasbiy faolligining bir ko‘rinishi bo‘lib, bunda ta’lim va tarbiya muammolari o‘qituvchi hamda o‘quv-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir vositasi bilan hal qilinadi. Bu vaziyatda o‘qituvchi baho beruvchi rovida namoyon bo‘ladi hamda uning o‘zi baho oluvchi hisoblanadi. bunday hollarda pedagogik ta’sir ko‘rsatish vazifalari va vositalari hamda o‘qituvchining o‘quvchilar bilan pedagogik muloqoti quyidagi prinsiplarda namoyon bo‘ladi:

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - T.: Uzbekistan, 2014.-466.
  2. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat engilmas kuch” - T.: “Ma’naviyat”, 2008 y.
  3. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. T.: Adolat. 1998Y.
  4. Munavvarov A. Oila pedagogikasi. T.: O‘qituvchi, 1994 u.
1. www . tdpu. uz
  2. www. pedagog. uz
  3. www . Ziyonet. Uz



**МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ TASHKILOTIDA INNAVATSION TA’LIM MUHITINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGLAR FAOLIYATIGA TA’SIRI.**

**Akramjonova Feruza Akramjonovna**

Namangan Davlat Universiteti Ta’lim tarbiya  
Nazaryasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim)

2-bosqich magistranti. +998999770766 feruza@gmail.com.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola maktabgacha ta’lim tashkilotida innovation ta’lim muhitini tashkil etish pedagoglar faoliyatiga ta’siri va tarbiyalanuvchilar ta’lim olishiga ijobiy ta’siri haqida keng ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so’zlar:** innovatsion ta’lim, pedagog, maktabgacha ta’lim tashkiloti, bilim va ko'nikmalar, dolzarb masalalar, o'quv metodik majmualar, ijobiy.

Zamonaviy hayotimizni asosiy vazifalardan biri zamon bilan ham nafas yasash va maktabgacha ta'lim tashkilotida innovatsion ta'limni tashkil etish pedagog faoliyatiga juda katta ijobiy ta'sir o'tkazadi. Yangi innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga olib kelish va ijodiy yondashgan holda amaliyotda

joriy etish, zamon talabiga mos ravishda me'yoriy hujjatlar, o'quv-metodik adabiyotlar, o'quv metodik majmualarni ishlab chiqish, ilg'or xorijiy tajriba asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rahbar va mutaxassislarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha sohaga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish vazifalari dolzarb masalalar sirasiga kiritilmoqda. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'inidir. Avvallari bu tizim xalq xo'jaligining turli sohalarida mexnat qilayotgan otaonalarning ijtimoiy faoliyati uchun shart sharoit yaratishgagina xizmat qilgan bo'lsa, endilikda bolalarbog'chalari ish mazmuniga qo'yilgan talablar xam o'zgartirildi. Asosiy vazifalardan biri kichkintoylarni maktab bosqichida o'qishga tayyorlashdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotida innovatsion metodlarni jarayonida qo'llash orqali ijobiy natijalar qo'lga kiritildi. Innovatsion ta'lim texnologiyasi - bu o'quv jarayonining samaradorligini oshirish va ta'lim va ta'lim faoliyati uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish uchun mavjud usullar va vositalarni yangi yoki sifat jihatidan yaxshilashni o'z ichiga olgan o'quv va ta'lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasi. jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi tendentsiyalari. Ta'limdagi innovatsiyalar ta'lim sohasidagi innovatsiyalarning paydo bo'lishiga qaratilgan kompleks tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu innovatsiyalar ta'lim jarayonini tashkil etishning usul va uslublari, ta'lim va tarbiya jarayonida foydalaniladigan resurslar, ilmiy nazariyalar va tushunchalar bo'lishi mumkin. Innovatsiya yangi ilmiy bilimlarni, qandaydir kashfiyotlarni, ixtirolarni olishga qaratilgan tadqiqot faoliyatidan foydalanish orqali rivojlanadi. Bundan tashqari, innovatsiyalarning paydo bo'lishi loyihalash ishlarining natijasi bo'lishi mumkin, bunda mavjud ilmiy nazariyalar va tushunchalar asosida amaliy harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini aks ettiruvchi instrumental va texnologik bilimlar rivojlanadi. Shunday qilib, innovatsion loyihalar yaratiladi, bu esa keyinchalik yangi texnologiyalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Innovatsiyalar ta'lim faoliyati jarayonida ham rivojlanadi. O'quv jarayonida talabalarning nazariy va amaliy bilimlari rivojlanadi, keyinchalik ular amaliy hayotning innovatsiyalar yaratish bilan bog'liq turli sohalarida qo'llanilishi mumkin. Innovatsion ta'lim texnologiyalari uchta asosiy komponentga asoslanadi: Zamonaviy, yaxshi tuzilgan tarkib, uning asosi tadbirkorlik faoliyatining hozirgi voqeliklariga javob beradigan kasbiy faoliyatdagi kompetentsiyadir. mazmuni zamonaviy aloqa vositalari orqali uzatiladigan turli multimedia materiallarini o'z ichiga oladi. Zamonaviy, innovatsion o'qitish usullarini qo'llash. Bunday usullar bolajak mutaxassisning kompetensiyalarini rivojlantirishga, oquvchilarni faol bilim va amaliy faoliyatga jalb etishga, bilish jarayonida tashabbuskorlikni namoyon etishga yonaltirilgan bolishi kerak. Ta'lim dasturlarini passiv assimilyatsiya qilish istisno qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi. U o'qitishning yangi shakl va usullarini, xususan, masofaviy ta'limni qo'llashga yordam beradigan axborot, texnologik, tashkiliy va kommunikatsiya komponentlariga asoslanishi kerak. Ta'limda innovatsion texnologiyalar o'qitishda muayyan yondashuvlarni qo'llash asosida qo'llaniladi, ya'ni. yangi texnologiyalarni rivojlantirish uchun asos bo'lgan talablar va maqsadlarni o'z ichiga olgan tamoyillar. Pedagogik sohadagi barcha innovatsiyalar pedagog hayotiga yengillik olib keladi. Hozirgi vaqtda ular o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirishga, o'z-o'zini o'rganish



va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirishga, o'quv dasturlarini mexanik ravishda emas, balki ongli ravishda o'zlashtirishga qaratilishi kerak. Mamlakatimizdagi deyarli barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan. Bu esa, o'z navbatida, tarbiyachilarning o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Ta'lim jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etilishi, tarbiyachini texnik vositalar tomonidan siqib chiqishiga emas, balki yangicha yondashuv orqali uning vazifasi va rolini o'zgartirib, tarbiyachilik faoliyatini yana-da serqirra, ijodiy va kreativ yondashuvga asoslangan kasbga aylantiradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning
2. rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablar(2018yil 4iyul) 2. G.R Toxtasinova, T.I.
3. Ormonova (2005). Bolalarbogchasida intellectual psixologik oyinlar T.:(4-5)
4. BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASI, INNOVATSIYA VA INTERGATSIYA R. Mavlvanova N. Raxmankulova TOSHKENT « V ORIS-NASHRTYOT » 2013



## МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТИДА ДИДАКТИК О’ЙИНЛАРОҚАЛИ MASHG’ULOTLAR TASHKIL QILISH.

**Akramjonova Feruza Akramjonovna**

Namangan Davlat Universiteti Ta’lim tarbiya  
Nazaryasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim)

2-bosqich magistranti. +998999770766 feruza@gmail.com.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola maktabgacha ta’lim tashkilotida turli hil didaktik o’yinlar orqali mashg’ulotlar tashkil qilish va bu jarayonning bola nutqi va aqliy qobiliyati rivojlanishi haqida yozilgan.

**Kalit so’zlar:** Didaktik o’yinlar, bilim, bolalar, maktabgacha ta’lim tashkiloti, buyim va o’yinchoqlar, mashg’ulotlar, harakatlar, kichik yoshdagi.

Ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni shakllantirish ertangi taqdirimizni belgilab beruvchi dolzarb masalalardan biriga ay land **Didaktik o’yinlar** ta’limiy o’yin sifatida bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o’yinlar sirasiga kiradi. Didaktik o’yinlarning muhim belgisi undagi qoidalarning mavjudligidir. o’yinda o’yin niyati, o’yin qoidalari, o’yin harakatlari o’rtasida uzviy aloqa mavjud. o’yin niyati o’yin harakatlarining tabiatini belgilaydi. o’yin qoidasi esa, o’yin harakatlarini, vazifasini hal etishga va o’yindagi harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi. Didaktik o’yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o’yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. o’yin qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o’yin mazmunini boyitadi. Didaktik o’yinlarda tabiiy narsa va buyumlardan keng foydalaniladi. Bolaning kun tartibida didaktik o’yin uchun vaqt va joy ajratilishi kerak. Bunday o’yinlar mashg’ulot jarayonida va o’yindan tashqari vaqtlarda guruh yoki yakka-yakka o’tkaziladi. Bunda o’yin mazmuni va natijasi puxta aniqlanadi. Didaktik o’yinlarda quyidagi qoidalarga amal qilinishi kerak:

1. Navbatma-navbat ta’sir etish.
2. So’ralganda javob berish.
3. O’rtoqlari fikrini eshita olish.
4. O’yin jarayonida boshqalarga xalaqit bermaslik.
5. O’yin qoidasini bajarish.
6. O’z xatosini tan olish.

Didaktik o’yinlarda bolalarning yosh, individual xususiyatlarini hisobga olish lozim. O’yinda o’yin tempi va ritmi katta rol o’ynaydi, juda sekin va bir tekisdagi temp bolani ko’p kuttiradi, juda tez temp esa bolalarni hayajonga soladi, turli bahs-munozaralarga olib keladi. Kattalar tomonidan o’yin ishtirokchilarini to’g’ri baholash muhim ahamiyatga ega. Didaktik o’yinlarning quyidagi turlari mavjud: a) buyum va o’yinchoqlar bilan o’ynaladigan; b) stol-bosma; d) og’zaki so’z o’yinlari. **Buyum va o’yinchoqlar bilan o’ynaladigan o’yinlar** bolaning ilk yoshidan boshlab, to maktab yoshiga yetgunga qadar o’ynaladigan o’yin turi hisoblanadi. Bunda bolalarning tasawurlari, diqqatlari o’yin asosini tashkil etadi. Ularda tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar, ularning sifati, foydali tomonlari to’g’risida umumiy tushuncha hosil bo’ladi. o’yinda o’ynaladigan har bir buyum yoki o’yinchoq o’zining tashqi ko’rinishiga ega bo’lishi, narsaning asosiy belgisini ajrata bilish, imkonini berishi lozim. Bunday o’yinlar bolalarning narsalarning shakli, hajmi, belgisi, sifati haqidagi bilimlarini kengaytiradi.

**Og’zaki so’z o’yinlari** katta maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o’tkaziladi. Ular bolani eshita olish, zudlik bilan javob topa olish, o’z fikrlarini tez va aniq ifoda eta olishga o’rgatadi. Tadqiqotchilarning fikricha, bunday o’yinlar bolaning aqliy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Yuqorida ko’rsatib o’tilgan o’yin turlarida didaktik maqsad va o’yin materiallarining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

**Qoidali-harakatli o’yinlar** asosini bolaning jismoniy rivojlanishiga qaratilgan harakatlar tizimi egallaydi. Bunda asosan yurish, yugurish, sakrash, chirmashib chiqish, ulotqirish, emaklash kabi harakatlar o’yin mazmunini belgilaydi. Qoidali-harakatli o’yinlar kelib chiqishiga ko’ra: a) xalq milliy o’yinlari; b) mualliflik o’yin turlariga bo’linadi. Har ikki o’yin turida ham asosiy mezon — o’yin qoidasi bo’lib hisoblanadi. Harakatli o’yinlar harakatlarning aniqligi, ifodaliligi,



bolalarda tezkorlik, epchillik, qo‘rqmaslik, mardlik kabi oliyjanob fazilatlarni tarbiyalab boradi. Ko‘pchilik harakatli o‘yinlar jamoa bo‘lib o‘ynashga mos, bu jamoada uyushgan holatda harakat qilish qobiliyatini shakllantiradi. Qoidali harakatli o‘yinlarni o‘tkazishda bolalarga rolni to‘g‘ri taqsimlash o‘yin jarayonini kuzatib borish, unga rahbarlik qilish, o‘z vaqtida yaxshi harakatlarni rag‘batlantirish o‘yin nufuzini oshiradi. o‘yin jarayonida quvnoq kayfiyat, ijobiy his-tuyg‘ular yuzaga keladi. Kichik yoshdagi bolalar uchun o‘yin sujeti ochiq xarakterga ega bo‘ladi. Masalan, «To‘pni quvla!», «To‘pni ushlab ol!». Katta yoshdagi bolalar uchun o‘yin maqsadi, qoidasi va o‘yinni tashkil etish murakkablashadi. Qoidali-harakatli o‘yinlar awal jismoniy tarbiya mashg‘ulotida o‘rganiladi. So‘ngra boshqa jarayonlarda takroran o‘ynatilishi lozim. «Bolajon» dasturiga turli yosh guruhlari bo‘yicha o‘tkaziladigan harakatli milliy o‘yinlar turkumlari

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi O.U. Hasanboyeva, M.X. Tojiyeva. Sh. K. Toshpo’latova. M.M.Pirmuhammedova. Toshken – 2011
2. Ormonova (2005). Bolalarbogchasida intellectual psixologik oyinlar T.:(4-5)
3. BOSHLANG‘ICH TA’LIM PEDAGOGIKASI, INNOVATSIYA VA INTERGATSIYA R. Mavlvanova N. Raxmankulova TOSHKENT « V ORIS-NASHRTYOT » 2013



**МАКТАБГАЧА ТАЛИМ ТИЗИМИДА ИНКЛЮЗИВ ТА’ЛИМ ВА УНГА ЯАНГИЧА  
PEDAGOGIK YONDASHUVLAR**

**Adasheva Matluba Fazliddin qizi**

Namangan davlat universiteti magistranti

adashevamatluba7898onam@gmail.com

Tel:+998942710213

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimiz ta’lim tizimidagi islohotlar va ularning ahamiyati, inklyuziv ta’limni rivojlantirish masalalari, inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasining pedagogik mohiyati tahlil qilingan.

**Kalit sozlar:** ta’lim, talim shakllari, inklyuziv talim, pedagogik tahlil, metod, ijtimoiy siyosat, nogironlik, qobiliyat, imkoniyat, konsepsiya, hamdardlik, bag’rikenglik, sabr-toqat.

**KIRISH**

BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida 2017-yil sentyabr oyida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan taklif: “Yoshlar huquqlari togrisida”gi Xalqaro Konvensiya loyihasi ishlab chiqildi. “Yoshlar huquqlari bu eng avvalo birinchi navbatda, ularning tinch va sog’lom yashash hamda ta’lim olishga bo’lgan huquqlari hisoblanadi. Unib-o’sib kelayotgan yosh avlodimizning barkamol bo’lib voyaga yetishi, sifatli va mukammal ta’lim olishini ta’minlash biz uchun hamisha ustuvor vazifa hisoblanadi”.

Yangi tahrirdagi “Ta’lim togrisida”gi qonun(2020-yil 23-sentyabr) 5-moddasi qoidalariga asosan ta’lim olishda barcha teng huquqlidir. Bu qonun inklyuziv(uygunlashgan) ta’lim tushunchasi kiritilganligi bilan ham avvalgi tahriridan farqlanib turadi va ushbu qonunga muvofiq Inklyuziv ta’lim sohasidagi vakolatli organ etib Vazirlar Mahkamasi belgilangan. Shu nuqtai nazardan mamlakatimizda ta’limning inklyuziv shaklini ham birdek rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. “Inklyuziv” atamasi inglizcha-uyg’unlashish, hamkorlikdagi ta’lim ma’nosini berib, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta’lim sifatida tan olingan. Inklyuziv ta’lim – barcha tarbiyalanuvchilarlar uchun maxsus ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta’lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta’minlashdir.

Ayni damda barcha mamlakatlarda ham inklyuziv ta’limni tan olish faqatgina qonun chiqarish bilangina bog’liq bo’lmaydi. Odamlarni tabaqalashtirish va ijtimoiy noto’g’ri fikrlashga qarshi kurashish eng muhim narsadir. Ya’ni inklyuziv ta’limni e’tirof etgan holda, aholi o’rtasida targ’ibat-tashviqot ishlarini olib borish eng birinchi galdagi masaladir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

O’tgan asrdan buyon maxsus ehtiyojli bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlari tizimida o’qitish borasida bir qancha jahon miqyosida deklaratsiya va qarorlar qabul qilindi. Ularni jahonning ko’plab davlatlari e’tirof etdilar. 2006-yilda BMTning “Nogironlar huquqlari togrisida”gi Konvensiyasi qabul qilindi. 2009-yil 27-fevralda bu hujjat mamlakatimiz tomonidan ratifikatsiya qilingan. Ushbu Konvensiyaning 24-moddasida: “Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlarning ta’lim olish huquqini e’tirof etadilar. Ishtirok etuvchi davlatlar ushbu huquqni kamsitmasdan va imkoniyatlar tengligi asosida amalga oshirish maqsadlarida barcha darajalarda inklyuziv ta’limni va butun umri davomida oqitilishlarini ta’minlaydi”, deb belgilangan. O’zbekiston Respublikasida nogiron bolalar bilan bog’liq tahlil va dastlabki baholash ishlari 1966-yilda boshlangan.

1996 yilning noyabr oyida YUNESKO ishlari bo’yicha O’zbekiston Milliy komissiyasi tashabbusi asosida Toshkentda «Maxsus ta’lim sohasida inklyuziv usullar» mavzusida milliy o’quv dastur muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. 1998- yilning oktyabr oyida Buxoro shahrida ushbu mavzu bo’yicha mintaqaviy anjuman tashkil etilgan edi. Mazkur anjuman YUNESKO, YUNISEF (BMTning bolalar jamg’armasi), Butunjahon sog’liqni saqlash tashkiloti va Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikda amalga oshirilgan. Ushbu tadbirlar natijasida 2001-yilda O’zbekistonda Inklyuziv ta’lim bo’yicha manba markazi tashkil etildi. Hozirgi kunga qadar ushbu markaz tomonidan bir necha o’quv seminarlari o’tkazildi.

**TAHLILLAR VA NATIJALAR**

“O’zbekistonda alohida ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta’lim” loyihasi 2014-yildan buyon hozirga qadar amalga oshirilib, uning doirasida alohida ehtiyojli 900 dan ortiq o’g’il-qizlar maktablari, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida umumiy ta’limga jalb etildi. Tibbiy, psixologik va pedagogik komissiya a’zolari hamda pedagog xodimlar ta’lim sohasida inklyuziv xizmat ko’rsatish bo’yicha o’qitildi.

Yurtimizning turli hududlarida beshta pilot resurs markazlari tashkil etilib, ularda alohida ehtiyojli bolalar, ularning ota-onalari, ekspertlar uchun o’quv-uslubiy, huquqiy, maslahat ko’magi ko’rsatildi. “Inklyuziv ta’lim asoslari”, “Alohida ehtiyojli bo’lgan bolalar



umumiy ta’limda”, “Inklyuziv maktabni tashkil etish” nomli o’quv modullarining yaratilgani, bu yo’nalishda ta’lim jarayonini yanada takomillashtirish, pedagog xodimlarning kasb mahoratini oshirish imkonini berdi. Jismoniy imkoniyati cheklanganligi oqibatida inklyuziv ta’limga htiyoji bolgan bolalarni qollab-quvvatlash, ularning ijtimoiylashuvi uchun zarur shart-sharoitlar va mexanizmlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy qilish mamlakatning oz fuqarolari oldidagi ma’naviy funksiyasi hisoblanadi.

#### **NATIJALAR**

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4860-sonli qarori asosida 2020-2025-yillarda ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi. Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali quyidagi natijalar kutilmoqda: alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan shaxslarning rivojlanishi, reabilitatsiyasi, jamiyatga integratsiyalashuvida inklyuziv ta’limning strategik omil sifatidagi roli tasdiqlanadi;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarning ta’limiy muhiti yaxlitligi mustahkamlanadi, ularning jamiyatga integratsiyasi uchun zarur sharoitlar ta’minlanadi;

davlat, jamiyat, shaxsning inklyuziv ta’lim sohasidagi manfaatlarini muvofiqlashtirish mexanizmlari yaratiladi;

inklyuziv ta’lim tizimining umumiy qulayligi, uzluksizligi, ta’lim sifati, shuningdek o’quvchilarning rivojlanish darajasi, xususiyatlariga moslashuvchanligi va variativligiga erishiladi;

Inklyuziv ta’limning bir qator foydali jixatlari bilan birga uning samaradorligiga ta’sir etayotgan bir qator kamchiliklarini quyidagi jadvalda korishimiz mumkin.

Foyda	Kamchiliklar
Qobiliyati va imkoniyatlaridan qat'i nazar, barcha talabalar uchun teng huquqlar	Inklyuziv ta’limni amalga oshirish uchun moddiy-texnik bazaning yetishmasligi
O’qitish jarayonida repetitorning individual yordami	Maxsus ehtiyojli bolalar uchun zarur bo’lgan o’qitilgan pedagoglar, psixologlar va boshqa mutaxassislarning yetishmasligi
Maxsus ehtiyojli bolalar uchun ijtimoiy va kommunikativ ko’nikmalarni egallash	Standart o’quv rejasi ayrim ehtiyojli bolalar uchun mos emas, shuning uchun qayta ko’rib chiqish va modernizatsiya qilishni talab qiladi
Sifatli ta’lim olish va kelajakda -universitetda o’qish, kasbni egallash, jamiyatning to’laqonli va mustaqil a’zosi bo’lish imkoniyati	Tarbiyachilar alohida ehtiyojli bolalarning bilimlarini xolisona baholaydilar, shuning uchun bilimlarni baholash ko’pincha to’g’ri emas
Oddiy bolalar hamdardlik, sabr-toqat, bag’rikenglik kabi insoniy fazilatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo’ladilar	Sog’lom bolalar va ularning ota-onalaridan nogironlarga nisbatan do’stona va ko’pincha noto’g’ri munosabat

Mazkur kamchiliklarni baratrafetish borasida yurtimizda ko’plab islohotlar amalga oshirilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar royxati:**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O’qituvchi va murabbiylar kuniga bag’ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil 30-sentabr.

2. Ozbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. Lex.uz

3. BMTning “Nogironlar huquqlari to’g’risida”gi Konvensiyasi 2006-yil 13-dekabr

4. Ozbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarda Xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasi. (<https://lex.uz/docs/-5044711>)

5. IB Siddikov . ФИЛОСОФСКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ. Вестник Ошского государственного университета, 2019

6. M Mamatov, A Isomiddinov, S Yuldashev. Factors of Developing the Intellectual Abilities of the Youth. Factors of Developing the Intellectual Abilities of the Youth



## МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ TASHKILOTLARINING OILALAR BILAN O’ZARO HAMKORLIK ALOQALARI.

**Maxbuba Ergasheva Abdovoriz qizi**

Namangan Davlat Universiteti Ta’lim tarbiya  
Nazaryasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim)  
2-bosqich magistranti.

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchisi va xodimlari o’rtasidagi munosabatlar o’zaro hamkorlik, maktabgacha tarbiya tashkilotining pedagogik jarayoni pedagoglar tomonidan erkin, moslashuvchan, tabaqalashtirilgan, insonparvarlik, ota-onalar va eng yaqin ijtimoiy tashkilotlar bilan hamkorlik va o’zaro hamkorlik aloqalari masalalariga alohida urg’u berilgan.

**Kalit so’zlar:** Maktabgacha ta’lim, tarbiyalanuvchi, hamkorlik, pedagogik jarayon, tabaqalashtirish, oila va jamiyat bog’liqlik

Maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish bo’yicha vazifalar uning ochiqligini, ta’lim muammolarini hal qilishga yordam beradigan boshqa ijtimoiy institutlar bilan o’zaro hamkorligini anglatadi. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkiloti asta-sekin ochiq, shaffof ta’lim tizimiga aylanmoqda: bir tomondan, maktabgacha tarbiya tashkilotining pedagogik jarayoni pedagoglar tomonidan erkin, moslashuvchan, tabaqalashtirilgan, insonparvar bo’lib bormoqda, ikkinchi tomondan, ota-onalar va eng yaqin ijtimoiy tashkilotlar bilan hamkorlik va o’zaro hamkorlik aloqalari o’rnatilmoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchisi va xodimlari o’rtasidagi munosabatlar o’zaro hamkorlik, bolaning shaxsini hurmat qilish va unga shaxsiy xususiyatlariga muvofiq rivojlanishi uchun erkinlik berish asosida olib boriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotiga bolalarni qabul qilish jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, tegishli tibbiy xulosa asosida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotiga bolalarni qabul qilish va tashkilotdan chiqarish tartibi Davlat xizmatlari orqali amalga oshiriladi.

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining hujjatlarini yuritilishi bo’yicha qo’llanma davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi barcha pedagoglar uchun ish hujjatlarini to’g’ri rasmiylashtirish hamda unga ijodiy yondashgan holda qat’iy amal qilish tartibini belgilaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib borilayotgan ta’lim-tarbiya va metodik ishlarni zamon talablari darajasida yangicha yondashgan holda tashkil etish hamda hujjatlar yuritilishida ta’lim mazmuni samaradorligini oshirishga qaratilganligini ta’minlashdan iborat.

Hamkorlik deganda ikkala tomonning ham huquq va majburiyatlari mavjud bo’lib, bir-birlarini layoqatli deb bilishlari va bir-birlarini sherik sifatida qadrlashlari nazarda tutiladi.

Hamkorlik pedagog bilan ishlaydigan oila va jamoa qadriyatlarini, turmush tarzi, o’ziga xos xususiyatlarini tan olish va ularni qadrlashi, shuningdek, bolalarning o’qishi va rivojlanishiga hissa qo’shadigan ko’plab muhim usullarni qadrlashlarini talab qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan pedagoglar farzandlar oilada va jamoada nimalarni o’rganayotganiga tayanib, ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O’quv yili boshida maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari tomonidan tashkilotning barcha pedagog xodimlari ushbu qo’llanma bilan tanishtiriladi. Ushbu ish hujjatlar bilan tanishgan har bir pedagoglar mazkur qo’llanmaga amal qilishi va me’yoriy- metodik hujjatlarni yuritishga mas’ul hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalar, ota-onalar yoki ularning o’rnini bosuvchi shaxslar, pedagog xodimlar ta’lim-tarbiya jarayonining qatnashchilari hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti bolalarni qabul qilishda ota-onalarni o’z ustavi, kun tartibi, ta’lim-tarbiya dasturlari va boshqa hujjatlar bilan tanishtirishi shart. Maktabgacha ta’lim tashkiloti bilan ota-onalar o’rtasidagi o’zaro munosabatlar ushbu tashkilotning ustavi hamda shartnoma bilan tartibga solinadi. Ota-onalar bilan tuzilgan shartnoma bolalarning ushbu tashkilotda bo’lish vaqtini, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda tomonlarning huquqlari, majburiyatlari hamda javobgarligini o’z ichiga oladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining oilalar bilan o’zaro hamkorlik aloqalarini o’rnatish



zaruriyati hozirgi paytda dolzarb bo‘lib qolmoqda. Olib borilgan ilmiy izlanish va tajribalar shuni ko‘rsatadiki, MTT pedagoglari, va oilalar o‘rtasidagi kuchli hamkorlik bolalarning rivojlanishi va ta‘lim olishiga ijobiy hissa qo‘shadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim ushbu hamkorlikni maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida berilayotgan ta‘limni kuchaytirish va kengaytirish, shuningdek, uyda va jamiyatda sodir bo‘layotgan qiziqish va ta‘limni rivojlantirish uchun zarur degan ishonchga asoslanadi.

“Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat standartlari<sup>1</sup>ning 2-ilovasida Maktabgacha ta‘lim tashkilotining Davlat o‘quv dasturining 3-bob, 10-bandida Bolaning har tomonlama rivojlanishini ta‘minlash uchun maktabgacha ta‘lim tashkiloti ota-onalar bilan o‘zaro hamkorlikning quyidagi shakllarini tashkil qilishi belgilangan.

- ota-onalarning maktabgacha ta‘lim tashkiloti borasidagi fikrlarini hisobga olish;
- ilk rivojlanishmasalalarida ota-onalarga bilim berish;
- ota-onalarni o‘quv-tarbiyaviy jarayondafaol qatnashishga jalb etish;
- ota-onalarning tashkilot hayotida ishtiroketish borasidagi tashabbuslariniqo‘llab-quvvatlash.

So‘nggi uch yilichida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiva Vazirlar Mahkamasining maktabgachata‘limtiziminitakomillashtirish to‘g‘risidagi bir nechta qarorlar iqabulqilinganidanso‘ng, oila vamaktabgachata‘limtashkilotlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning yangi ko‘rinishlari, zamonaviy yondashuvlari yuzaga keldi.

Yangilangan hamkorlik ota-onalar bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish uchun mas‘ul ekanliklari va barcha ijtimoiy institutlar bu faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va to‘ldirishga chorlanadi degan fikrga asoslanadi.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti oilani qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy tashkilot sifatida bolani tarbiyalash, o‘qitish va rivojlantirishga yordam beradi. Mavjud ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy sharoitda oila, jamoat tashkilotlari va mahalla bilan o‘zaro hamkorlik muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

Tajribali uslubchining tashabbuskorligi va ishga ijodiy yondoshishi: g‘oyalarini umumlashtira bilish, maqsadga muvofiq ishlash, har bir tarbiyachining imkoniyat va qobiliyatlarini hisobga olishiga qarab farqlanadi. Uslubchi talablarni qo‘yishda talabchan va qat‘iy bo‘lishi kerak. Rahbarning o‘ziga buysinuvchilar bilan muloqotning emotsional-irodaviy tomonini ifodolovchi bu sifatlar rahbarlik uslubining muhim xislatini, talabchanlikni hosil qiladi. Yuksak talabchanlikni sezgirlik, xayrixoxlik, odamlarga hurmat bilan birga olib borish zarur. Talabchanlik - bu qattiqqo‘llik degan gap emas. Buyruqlar, qattiq tanbehlar, xayfsanlarning foydasidan ko‘ra zarari ko‘proq va bu odatda rahbarning kuchliligidan emas, balki zaifligidan dalolat beradi.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti uslubchisining ta‘lim-tarbiyaviy faoliyatining samaradorligi uning obro‘si ko‘p jihatdan pedagoglar jamoaning jipslashganligiga, eng avvalo butun maktabgacha muassasa rahbar yadrosida birlik va o‘zaro tushunishning mavjudligiga bog‘liq bo‘ladi. Tarbiyachilarning aniq intizomi va ishda uyushqoqligini ta‘minlash; kollektivda jamoatchilik fikrini, tarbiyachilarning bir-birlarining kamchiliklariga tanqidiy munosabatini shakllantirish, mehnat faolligi va ijodiy ishlash ehtiyojini rag‘batlantirish; qabul qilingan qarorlar yechimini ta‘minlash kabi sotsial-psixologik masalalarini hal qilish uslubchi uchun birmuncha murakkablik qiladi. Har bir yosh mutaxassis ishini endi boshlayotgan yosh tarbiyachi konsul’tatsiyalar olib turishi uchun unga tajribaliroq murabbiy va obro‘liroq tarbiyachini birlashtirish lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yilgan Davlat talablari (2018 yil 4 iyul)
2. G.R Toxtasinova, T.I. Ormonova (2005). Bolalar bog‘chasida intellektual psixologik oyinlar T.: (4-5)
3. BOSHLANG‘ICH TA‘LIM PEDAGOGIKASI, INNOVATSIYA VA INTERGATSIYA R. Mavlanova N. Raxmankulova TOSHKENT « V ORIS-NASHRTYOT » 2013

1 Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat standartlari VMQ -802-son



## BOSHLANG‘ICH SINFDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA OTA-ONALARNING O‘RNI

**Gapparova Gulchehra Mirsoatovna**

Jizzax viloyati Zomin tumani 4-umumta’lim maktabi  
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinfdagi ta’lim sifatini oshirishda ota-onalarning o‘rni masalasi tahlil qilingan. Ayrim ota-onalarning farzand tarbiyasidagi kamchiliklari ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek ta’lim-tarbiya jarayonida ota-onalarning mas’uliyatini yanada oshirish yuzasidan aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan. Pedagogik teoremlardan unumli foydalanishni taklif sifatida kiritgan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich sinf, ta’lim va tarbiya, yosh avlod, ota-ona, konstitutsiyaviy burch, maktab ta’limi, oila, mahalla, ta’lim muassasasi hamkorligi konsepsiyasi, pedagogik teoremlar, kreativ fikrlash.

*Najot-ta’limda, najot-tarbiyada, najot-bilimda.*

*Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi.*

Ma’rifatparvar jadid bobolarimizning bu so‘zlari deputat va senatorlarimiz, siyosiy partiyalar, mahalliy kengashlar, butun davlat apparati, keng jamoatchilikning amaliy harakatiga aylanishi kerak. [1, 18-bet.] Darhaqiqat, yosh avlod ta’lim-tarbiyasi butun jamoatchilikni eng asosiy vazifasiga aylanishi darkor. Bunda eng avvalo, farzand uchun mas’ul bo‘lgan ota-onalar o‘z konstitutsiyaviy majburiyatlarini sidqidildan bajarishlari lozim. Bu haqda tuzatish va qo‘shimchalar kiritilgan konstitutsiyamizning 77-moddasida “Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetgunga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburlar” [2]-deb, bayon qilingan.

Demak, ota-onalar ham farzandlari voyaga yetgunga qadar ularning ta’lim va tarbiyasi uchun javobgar hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda ta’lim sifatini oshirishda ota-onalar ustozlarga ko‘maklashishi zarur. Chunki farzand maktabdan ko‘ra ko‘proq oila davrasida bo‘ladi.

Maktab jamoasi ham, ya’ni, ustozlar ta’lim-tarbiya jarayoniga ota-onalarni keng jalb qilishi kerak. Ularga farzandining kelajagi uchun mas’ul shaxs ekanligini anglatish, farzand tarbiyasidagi burch, vazifa, mas’uliyat, majburiyatlarini, tarbiya oiladan boshlanishini tushuntirish zarur.

Ayrim holatlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyasidagi o‘zgarishlar, bilimining pasayishiga olib keluvchi muammolarga duch kelamiz. Bu muammolarning kelib chiqishiga quyidagilar sabab bo‘ladi:

- Ota-ona bola tarbiyasi oldida shaxsiy namuna ko‘rsatmasligi;
- ota-onalar farzandining qiziqishlariga e’tiborsizligi;
- farzandining bo‘sh vaqtini to‘g‘ri taqsimlamasligi;
- bolani yosh xususiyatini hisobga olgan holda uy yumushlariga to‘g‘ri jalb qilmasligi;
- oilada ota-onaning bola tarbiyasida uquvining yo‘qligi;
- rag‘batlantirish va jazolashda tarbiya me’yorlarini anglamasligi;
- ota-onalar o‘rtasida bo‘ladigan muammolarni farzand oldida hal qilinishi;
- ota-ona farzandining oldidagi majburiyatlarini anglamasligi.

Bu sabablar turli salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, bola atrofdagilarga nisbatan qo‘pol muomalada bo‘ladi. Bolada insonga nisbatan bo‘ladigan mehr tuyg‘usi o‘rnini kamsitish, jahldorlik, jizzakilik, qo‘rqish kabi salbiy sifatlar shakllanishiga zamin yaratiladi. Buning natijasida bolada o‘ziga bo‘lgan ishonch, mustaqil fikr, dadillik, tetiklik, intilish kabi ijobiy sifatlar rivojlanmaydi. Ularning xotiralarida yovuzlik, buyruqbozlik, birovga yordam bermaslik kabi illatlar shakllanadi.

Demak, bolaning ta’lim-tarbiyasidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun oilani isloh qilish kerak bo‘ladi. Bola odobning boshini ota-onadan oladi, o‘rganadi, bunga jiddiy e’tibor berilmasa tarbiya juda qiyin kechadi va yomon oqibatlarga olib borishi mumkin. “Bolalarni tarbiyalash muvafaqiyatli bo‘lmog‘i uchun, tarbiya beruvchi kishilar o‘zlarini to‘xtovsiz tarbiya



qilishlari darkor”- deb, bejizga aytilmagan.

Ayrim ota-onalar farzandining oldidagi majburiyatini faqat ularning “moddiy ehtiyojlarini qondirish”-deb, tushunishadi. Farzand ota-onadan pul so‘rasa, sababini surishtirmay beradi. O‘zining obro‘sinini o‘ylab, chiroyli kiyimlar sotib olib beradi. Lekin qo‘shimcha adabiyotlar, fanga doir qo‘llanmalarga pulini qizg‘onadi. Yoki, olib bersa ham uning natijasini tekshirilmaydi. Hatto farzandi qaysi sinfdoshi bilan o‘rtoq, “bo‘sh vaqtida nimalar bilan shug‘ullanyapti?”-degan, savollarni o‘ylab ham ko‘rmaydi. Go‘yoki ularning fikricha bu vazifalar o‘qituvchi nazoratida va zimmasida.

Albatta, farzandga mehr qo‘yish, ularning qornini to‘q, ustini but qilish o‘z yo‘li bilan, lekin bolalarimizni yoshlik chog‘idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma’naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Bu masalaga e’tibor bermaslik nafaqat ayrim ota-onalarga, balki butun jamiyat uchun qimmatga tushushi mumkin. Shuning uchun ham ta’lim-tarbiya jarayonlarida oila, mahalla, ta’lim muassasasi hamkorligi konsepsiyasi tinimsiz ishlashi zarur.

Shu o‘rinda ota-onalar va bolalar munosabatlarida tez-tez uchraydigan vaziyatlar va ularning yechimlari sifatida quyidagi pedagogik teoremlarni keltiramiz:

✓ Farzandingizni yomon o‘qiyotgani uchun doimo tanqid qilaversangiz, u o‘qishni yomon ko‘rib qoladi;

✓ bolani ustidan kulaverishsa, u indamas, “ichimdagini top”ga aylanadi;

✓ bola har bir erishgan yutug‘i uchun rag‘batlantirilsa, u oliyjanob insob bo‘lib voyaga yetadi;

✓ bola biror-bir narsani o‘rganayotganda yoki yasayotganda qo‘llab-quvvatlanib tursa, o‘z qadrini anglashga o‘rganadi;

✓ bola ko‘p kamsitilsa, u o‘zini har doim aybdor sezadigan bo‘lib qoladi;

✓ bola bag‘rikenglik muhitida o‘ssa, boshqalarni tushuna oladi;

✓ bola rostgo‘ylik muhitida o‘ssa, adolatli bo‘ladi;

✓ bola xavfsizlikda yashasa, boshqalarga ishonchi ortadi;

✓ bola janjallar orasida ulg‘aysa, tajovuzkor va toshbag‘ir bo‘lib qoladi;

✓ do‘stona muhitda o‘sgan bola, mehr-muhabbatli bo‘lishga o‘rganadi.

Demak, biz ota-onalar hamda ustozlardan bola tarbiyasida eng asosiy jihatlarga e’tiborli bo‘lishimiz talab etiladi. Chunki boshlang‘ich sinf bolalarida erkin munosabatlarga kirishish ko‘nikmasi to‘la shakllanmagan bo‘ladi. Shuningdek farzandlarimizning kasb tanlashi, qiziqishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ba’zi ota-onalar farzandlari qiziqishlarini cheklashga harakat qilishadi. Bu borada buyuk faylasuf Platonning “farzandlaringizning ilm va adabini o‘zingizning ilm va adabingiz bilan cheklamang, ularni kelgusi zamon uchun tayyorlang, chunki ular sizning zamonangizga tegishli emas, ular kelgusi zamon odamlaridir”,-degan hikmatlari hozirgi davrda ham qimmatlidir.[3,271-bet.]

Xullas, boshlang‘ich sinfda ta’lim sifatini oshirishda ustoz bilan ota-onaning o‘rni katta ahamiyat kasb etadi. Ular hamkorlikda bolaning ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullansa, boshlang‘ich fundamental ta’lim istiqbolida o‘z samarasini beradi, albatta.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi. 2022-yil 20-dekabr. T.: “O‘zbekiston”, 2023, 18-bet.

2.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 77-modda.

3.Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin desangiz... T.: “Ma’naviyat”, 2014, 271-bet.

4.Yo‘ldoshev H. Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla, ta’lim muassasasi hamkorligi konsepsiyasi. T.: 2012.

5.Quronov M. Otalar kitobi. T.: “O‘zbekiston”, 2006.



## МАКТАБ О‘QUVCHILARINING AUTOPLAY MEDIA STUDIO DASTURIDA ISHLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

**Ismatov Zafarjon Anvar o‘g‘li,**

Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi  
(+998997779594, zafarjanibnanvar@gmail.com)

**Ibroximov Samariddin Ergash o‘g‘li,**

Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi  
(+998995676561, ibrokhimovsamar@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola maktabda Informatika va axborot texnologiyalari faniga oid mavzularni samarali va tushunarli o‘qitishda, AutoPlay dasturidan foydalanib pedagogik dasturiy vosita yaratish texnologiyasi va qanday qilib dars jarayonlarini olib borish metodikasi batafsil tushuntirib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** informatika va axborot texnologiyalari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, noutbuk, monoblok, kompyuter, pedagogik dasturiy vositalar, AutoPlay Media Studio dasturi.

Biz yashab turgan zamon zamonaviy axborot texnologiyalari asri bo‘lganligidan vatanimizda ta‘lim sohasidagi islohotlar jadal sur‘atlar bilan rivojlanib amalga oshirilmoqda, ayniqsa, ta‘lim tizimida joriy qilinayotgan zamoaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta‘lim jarayonlarini osonlashtirib, qulayliklar yaratib bermoqda. Shu jumladan, fanlarni o‘qitishda zamonaviy texnologiya va pedagogik dasturiy vositalar tayyorlash va shu o‘rinda yaratilgan zamonaviy texnologiya va dasturiy qo‘llanma taqdimotlarni dars jarayonlariga keng qo‘lamda tadbqiq etish muhim rol o‘ynamoqda.

Yuqorida aytilgan fikrlarni qo‘llagan holda o‘quvchilarni psixologik holatlari va qiziqish darajalarini hisobga olgan holda kitobdagi ma‘lumotlarni yaxlit o‘zida jamlab va qo‘shimcha tarzda video ma‘lumot va o‘quvchilarni mavzu yuzasidan bilimlarini avtomatik tarzda baholaydigan test loyihasi bularni o‘zida birlashtirgan bir pedagogik dastur yaratishdir. Bunday dasturni yaratish uchun biz avvalo AutoPlay Media Studio 8 dasturini mukammal tarzda o‘zlashtirishimiz zarurdir. Keyingina bu dastur orqali biz zamonaviy barcha o‘quvchilarga xushnud kela oladigan elektron darslik maqomiga yetadigan pedagogik dasturiy vositalarni yaratishimiz mumkin bo‘ladi.

Aytib o‘tganimizdek biz avvalo AutoPlay Media Studio 8 dasturini o‘rganishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘rganishning eng yaxshi usuli bu amaliyotdir, shu boisdan AutoPlay Media Studio 8 dasturini o‘rganishni Informatika va axborot texnologiyalar 9-sinf darsligidan **“Dasturlash asoslari”** bobini tanlab pedagogik dasturiy vosita tayyorlaymiz.

Eng avvalo - AutoPlay Media Studio 8 dasturni kompyuterga o‘rnatib olamiz.


Biz AutoPlay Media Studio 8 dasturini kompyuterimizga o‘rnatib oldik, endilikda o‘z Loyihamizni boshlaymiz. Dastlab dasturni ishga tushiramiz:

**Create a New Project** bo‘limida biz yangi o‘z loyihamizni yaratamiz.

**Open an Existing Project** bo‘limida biz oldin yaratib saqlab qo‘ygan loyihalarimizdan birini ochib qayta ishlov berishimiz mumkin.

**Restore Last Open Project** bo‘limida biz oxirgi bajargan loyihamizni chaqirishimiz va davom ettirishimiz mumkin bo‘ladi.

Biz **Create a New Project** bo‘limini tanlab yangi loyiha yaratamiz:






Bizga quyidagi oyna hosil bo‘ladi, bu oynada bir qancha tayyor loyiha namunalari bor, ammo biz o‘z loyihamizni o‘zimiz yaratamiz, buning uchun birinchi o‘rinda turgan **Blank Project** bo‘limini tanlaymiz. **Name your project** bo‘limida o‘z loyihamizga nom beramiz.

Quyidagi rasmda biz amaliyotimiz davomida keng qo‘laniladigan bo‘limlarni vazifalari bayon qilingan. Keyingi taqdimotlardan boshlab o‘z loyihamizni yaratamiz.

Qo‘shimcha yangi sahifalar qo‘shish uchun quyida bajarilgan amalni bajaramiz, ushbu menyuni chiqarish uchun **Page1** yozuvini ustiga sichqonchani o‘ng tugmasini bosamiz.

Sahifada joylashtirgan tugma va labellarni boshqa sahifaga yo‘naltirish uchun quyida ko‘rsatilgan amallarni bajaramiz. Ushbu menyuni chiqarish uchun **button** yoki **label**ni ustiga sichqonchani chap tugmasini ikki marta bosamiz.



Avvalo birinchi sahifaga rasm qo‘shish bo‘limi orqali muqova rasmini va tugma qo‘shish bo‘limidan o‘zimizga yoqqan **button** ni va **label** qo‘shish bo‘limidan **Chiqish** va **Kirish** yozuvlarini hosil qilib olamiz.

Ikkinchi sahifamizni ya‘ni mundarijani yaratib olamiz. Bu sahifaga ham kerakli tugma, rasm va labellarni joylashtiramiz.




Mundarija sahifasidagi **1 - DARS** tugmasiga keyingi sahifani ulab qo‘yamiz, keyingi sahifani ham yaratib olamiz. Bu sahifada asosan mavzuga aloqador taqdimot, video, test va masalalar joylashtiriladi.

Yuqoridagi **1 - DARS** sahifasidagi tugmalarni mos ravishda taqdimot, video, test va masalalar



sahifasiga yo‘naltiramiz, quyida u sahifalarni ko‘rib chiqamiz.



Amaliyotimizni shu tartibda bobdagi barcha mavzularga loyihalashtirib chiqamiz.

Oxirida yaratgan elektron o‘quv qo‘llanmamizni saqlab, taqdim etamiz.

Yaratgan loyihamiz yakuniga yetgach, uni alohida \*.exe fayl shaklida saqlab olamiz. Ushbu fayl yordamida elektron o‘quv qo‘llanmadan dars jarayonida foydalanish va darslarni olib borishimiz mumkin bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, Informatika va axborot texnologiyalari faniga oid mavzularni samarali va tushunarli o‘qitishda, AutoPlay dasturidan foydalanib pedagogik dasturiy vosita yaratish va undan dars jarayonlarida foydalanish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Fayziyeva M.R., Sayfurov D.M., Xaytullayeva N.S. Informatika va axborot texnologiyalari: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. Tasvir, 2020. – 112 b.
2. Tangirov X.E., Bekkelov T. Informatika va axborot texnologiyalari fanidan pedagogik dasturiy vosita yaratish texnologiyasi // “O‘zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar” mavzusidagi onlayn konferensiyasi. – T.: Tadqiqot, 2021. 179-181 b.
3. dr.rtm.uz – raqamli ta’lim resurslari.



## О‘QUVCHILARNING О‘ZLASHTIRGAN BILIM, KO‘NIKMA VA KOMPETENSIYALARINI BAHOLASHDA EASY QUIZZY DASTURIDAN FOYDALANISH

**Isoqov Yorqinbek Qo‘ziboy o‘g‘li,**

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Ta’limda axborot texnologiyalari mutaxassisligi magistranti

(+998936137170, iyorqinbek@gmail.com)

**Tangirov Xurram Ergashevich**

Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi,

(+998936502580, xurram\_t@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola maktabda Informatika va axborot texnologiyalari faniga oid o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholashda Easy Quizzy dasturidan foydalanish, buning uchun test oluvchi dasturiy vosita yaratish texnologiyasi, dars jarayonlarida undan foydalanish metodikasi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, testlar, bilim, ko‘nikma, baholash, dasturiy vositalar, easyQuizzy dasturi.


Maktabda Informatika va axborot texnologiyalari faniga oid o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholashda turli test yaratuvchi dasturlardan foydalanish mumkin. Ana shunday dasturlardan biri hisoblangan, easyQuizzy dasturida tayyorlangan testlardan foydalanish yaxshi natija beradi. easyQuizzy dasturi yordamida ixtiyoriy fan o‘qituvchisi o‘z fani bo‘yicha o‘quvchilar bilimini nazorat qiluvchi test dasturini yaratishi mumkin.

Dasturning **Fayl, Tahrirlash, Ko‘rinish, Savollar, Qo‘yish, Ma’lumot** kabi menyulari bor. Bu menyulardan test tuzish jarayonida unumli foydalaniladi.


Dasturni ishga tushirilgandan so‘ng **Test to‘g‘risida ma’lumot** tugmasini bosib quyidagi qatorlar to‘ldiriladi.

Masalan, **Test nomi** qatoriga “Informatika va axborot texnologiyalari fanidan test”, **Test tavsifi** qatoriga “ushbu testda informatika fani bo‘yicha olgan bilimlaringizni tekshirishingiz mumkin”, **Muallif** qatoriga test tuzuvchi xodim ma’lumotlari, masalan, Isoqov Yorqin, deb to‘ldirish mumkin.

So‘ngra menyudan **Savollar vajavoblar** tugmasi bosiladi. Natijada quyidagi oyna hosil bo‘ladi.



**Savol turi** bo‘limi tugmasini bosiladi va quyidagi oyna hosil bo‘ladi:



Bu oyna orqali biz tuzayotgan testimizning turini belgilab olamiz.

Bir tanlovli bo‘limida javob variantlari dastlab ikkita bo‘ladi, unga yana bir qancha javob variantlarini **Javob variantini qo‘shish** tugmasi orqali qo‘shishimiz mumkin. Ushbu oynada hosil bo‘lgan **Savolqatoriga** ixtiyoriy savol yoziladi. Masalan, **iSpring paketidagi qaysi dastur elektron testlar va so‘rovlar yaratish imkoniyatini beradi?** iSpring Kinetics, iSpring QuizMaker, iSpring Converter, iSpring Free.

Ushbu javoblar ichida ikkinchi javob to‘g‘ri variant shuning uchun ushbu javob yozilgan qatorni belgilab qo‘yiladi, ya‘ni sichqoncha chap tugmasi to‘g‘ri javob oldiga bir marta bosib qo‘yiladi.


Natijada bitta savol va javob varianti tayyor bo‘ldi. Keyingi savolni kiritish uchun **Savol qo‘shish** tugmasi bosiladi.

Ushbu oynaga ham birinchisiga savol kiritilganday savol va javoblar kiritiladi. **Qarama-qarshitanlovli** bo‘limida ikkita qarama-qarshi ha yoki yo‘q javob beriladi. Ulardan birini to‘g‘ri javob sifatida belgilash kerak bo‘ladi.

Masalan: Ko‘p tanlovli bo‘limida savol javoblari ichida to‘g‘ri javoblar ikki yoki undan ortiq bo‘lishi bilan farqlanadi.

**To‘g‘ri ketma-ketlikni o‘rnatish** bo‘limida tuzilgan testimiz to‘g‘ri javobni belgilash tugmasi yo‘q, chunki bu testda javoblarning ketma-ketligini to‘g‘ri terish talab etiladi.

**Muvofiqlikni o‘rnatish** bo‘limida chap tomondagi jummalarga o‘ng tomondagi mos jummalarni to‘g‘ri biriktirib chiqish talab etiladi. Masalan:



**Erkin javob** bo‘limida tuzilgan testimizni bajarayotgan o‘quvchi bu savolga klaviatura orqali muqobil javoblardan birini yozishi talab etiladi.

Shu tartibda bir nechta savol va javoblar kiritilgandan so‘ng menyudan **Testni sozlash** tugmasi bosiladi. Natijada quyidagi oyna hosil bo‘ladi.



Ushbu oynadan **Beriladigan savollar soni** qatoridan **Barcha savollar** yoki **Tasodifiy savollar** qatorini tanlashimiz mumkin. Agar **Barcha savollar** bandi tanlansa tuzgan barcha testlarimiz chiqariladi. **Tasodifiy savollar bandidan** jami testimizdan tasodifan nechtasi barilishini belgilaymiz.

Savollarni berish tartibi qatoridan tasodifiy tartibda yoki berilgan tartib bo'yicha qatorlaridan birini tanlash mumkin. Javoblarni chiqarish tartibi qatoridan tasodifiy tartibda yoki berilgan tartib bo'yicha qatorlaridan birini tanlash mumkin.

Baholash tizimi yordamida ixtiyoriy baholash tizimini tanlash mumkin. Masalan 100 ballik baholash tizimi. Bunda barcha savollar 100 ball deb qaraladi. Bundan tashqari 10 ballik, 5 ballik, umumiy baho va boshqa baholash turlaridan birini belgilashimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, maktab Informatika va axborot texnologiyalari faniga oid o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholashda turli test yaratuvchi dasturlardan, xususan Easy Quizzy dasturidan foydalanib, dasturiy vosita yaratish va undan dars jarayonlarida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholashda foydalanish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Fayziyeva M.R., Sayfurov D.M., Xaytullayeva N.S. Informatika va axborot texnologiyalari: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. Tasvir, 2020. – 112 b.



## OMMAVIY NUTQ QOIDALARI

**Karimova Nargiza Boxtiyorovna**

Xorazm viloyati shovot tumani 44-son maktab psixologi.

Email:nargizakarimova44@umail.uz

**Nurjonova Nozokat Matnazarovna**

Xorazm viloyati shovot tumani 32-son maktab psixologi.

Email:nazokatnurjonova32@umail.uz

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ommaviy nutq nimani anglatishi, "Ommaviy nutq" ni eshitganingizda qanday uyushmalar paydo bo'lishi, Jamoat nutqidan qo'rqishni qanday engib o'tish mumkinligi haqida mulohazalar yuritiladi.

“Ommaviy nutq qoidalarini” treningimizni maqsadi: ishlashdan oldin hayajonni tuzatish. Ma'lumki, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar o'qituvchiga bo'lgan talablarning barini ko'taradi, ya'ni. boshqacha aytganda, zamonaviy dunyo o'zining qat'iy qoidalarini belgilaydi, buning uchun o'qituvchi katta intellektual, hissiy va aqliy xarajatlarni talab qiladi. Bu nafaqat yukni oshiradi, balki u bilan birga insonning asabiy-ruhiy zo'riqishi, ortiqcha ish. Bilamizki, samarali og'zaki hisobot, o'z g'oyalarini taqdim etish, savollarga to'g'ri javob berish xodimning vakolatiga, tashkilotdagi mavqeiga bog'liq. Jamoat nutqining ilmi qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan. Ishonchli, chiroyli, tushunarli va qiziqarli gapirish qobiliyati qadimgi yunonlar tomonidan yuqori baholandi. Ular ommaviy nutq yoki nutq nazariyasi haqidagi ritorikani yaratdilar.

Savol:

- Sizningcha, ommaviy nutq nimani anglatadi?

Ommaviy ishlash-bu san'atning bir turi. Boshqa har qanday san'at singari, har doim ham o'qitilgan. Ommaviy nutq - tinglovchilarni muayyan qoidalarining to'g'riligiga ishontrish uchun asosiy maqsadi bo'lgan axborotni uzatish jarayoni. Biz jamoat guvohlari bo'lgan bunday faoliyatni chiqiramiz. Yaxshi ma'ruzachi – omma oldida qanday gapirishni biladigan, aniq, yorqin, mazmunli so'zga ega bo'lgan, tinglovchilarni jalb qilish, ishontrira oladigan kishi. Yaxshi tayyorlangan nutq-bu yaxshi so'zlagan nutqning to'qqiz-o'ndan biri. Omma oldida gapirganda, har bir kishi turli xil his-tuyg'ularni boshdan kechirishi mumkin.

- Nima? Turli xil ortiqcha yuklarning (tartibsizliklar, keskinlik, qo'rquv) tartibsizliklar va ko'plab qo'rquvlar bilan murakkablashadi, ulardan biri omma oldida gapirishdan qo'rqadi, bugun biz bu haqda gaplashamiz.

- "Ommaviy nutq" ni eshitganingizda qanday uyushmalar paydo bo'ladi?

Ko'pgina odamlar kelgusi nutq haqida shni keltirib chiqaradi va stressli vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Nutqning o'zi haqida gap ketganda, hiyla-nayrang qo'rquv, qattiqqo'llik, chalkashlik, bezovtalanish spikerni falaj qilib, tomoshabinlar bilan samarali muloqot qilishga to'sqinlik qiladi. Hayajon (noqulaylik) - bu sog'lom organizmning stress holatiga normal munosabati.

Jamoat nutqidan qo'rqishni qanday engib o'tish mumkin?

Psixologlar qanday talqin qilinadi. Odatda odamlar bu holatda nima bo'lishidan qo'rqib ketishga harakat qilishadi? Qo'rquv bizni ta'qib qilmoqda. Maslahat: uchrashuvga boring va bir nuqtada u bilan uchrashasiz. Siz o'zingizning yo'lingizga borasiz va u o'zi va orqasida qoladi.

Birinchi taassurot nima?

Ma'lumki, biz hech qachon birinchi taassurot qoldirish uchun ikkinchi imkoniyatga ega emas-miz, shuning uchun birinchi va yagona imkoniyatdan foydalanish muhimdir. Diqqat markazida bo'lishni istagan har bir kishi hisobga olinishi kerak bo'lgan idrok naqshlari mavjud. Tajribali ma'ruzachilar tomonidan ko'p marta sinovdan o'tgan muhim kuzatish mavjud: "Salom" deb aytganda, nutqingizning 70 foizini aytdingiz. Va salomdan keyin siz o'zingizning shaxsingiz haqidagi mavjud taassurotni to'ldirasiz. Zaldagi odamlarga birinchi daqiqalarda dam olish imkoniyatini ber-ing, shu nuqtada ularning do'sti bo'lib, keyin kerakli joyga boring.

Sizga keyingi savol:

- "Ommaviy makon" ni aniqlash mumkinmi?

Spiker oldida turgan auditoriya.

Va shuning uchun tomoshabinlar bilan muloqot ikki qismdan iborat: og'zaki, ya'ni.so'zlar bilan aytadigan so'zlarimiz va og'zaki bo'lmagan narsalar, bizning tanamiz qanday gapiradi.



Nutq paytida tashqi ko'rinishlarni ko'rib chiqing. Va bu nima uchun. Ommaviy nutq texnikasini o'rganish bilan shug'ullanadigan olimlar, agar biz muloqot jarayonida olgan ma'lumotlarning to'liq miqdori 100% uchun qabul qilinsa, og'zaki tarzda uzatiladigan ma'lumotlarga, ya'ni so'zlar yordamida faqat 7% to'g'ri keladi. Qolgan 93% esa og'zaki bo'lmagan aloqa usullariga to'g'ri keladi. Psixologlar quyidagi postulatsiyani olib kelishdi: harakatlar va so'zlar yolg'on bo'lishi mumkin, lekin tanani kamdan-kam hollarda aldaydi! Professor Albert Merabian, tananing tiliga kelganda, muloqotda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi 3 asosiy omillar:

- \* Nima deymiz-7%
- \* Qanday qilib aytamiz – 38%
- \* Tanamizning tili 55%

Nima uchun muloqotning og'zaki bo'lmagan qismi juda informatsion ekanligi aniqlandi? Chunki tananing va ruhning aloqasi ajralmas. Va uning mavjudligini isbotlash ibtidoiy.

Eksperiment o'tkazaylik: stulning orqa tomoniga suyanishga harakat qiling va qo'llaringizni boshingizni tashlang, baxtsiz his eting. Bu chiqadi? Bu mumkin emasmi? Va u ishlaymaydi (bu qoniqishning holati), chunki qayg'u bizni egadi va quvonch sizni ochib beradi, ilhomlantiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Kaykovus. Qobusnoma. -T.:O'qituvchi, 1986 y.
2. Zunnunov A. O'zbek pedagogikasi tarixi. -T.: O'qituvchi, 1997 y. -272 b.



## O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

**Jumamurotova Iroda Buvaxonovna**

Xorazm viloyati Yangibozor tumani  
7-son umumiy o‘rta ta‘lim maktabi psixologi

**Karimova Sevvara Jumanazarovna**

Xorazm viloyati Yangibozor tumani  
22-son umumiy o‘rta ta‘lim maktabi psixologi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kasb va kasb tanlash muammosi, uning psixologik asoslari, xususiyatlari va dolzarbligi muhokama qilingan. Shuningdek, o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan asosiy omillar, muammolar va kamchiliklar haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** kasb, psixolog, kasbiy qiyinchilik, shaxs kamoloti, qiziqish, kasbiy tanlov.

*Biz uchun dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan masala bu farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar etib tarbiyalashdir.*

**Sh.M.Mirziyoyev.**

Kasb-inson ish faoliyatining ma‘lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan faoliyat turi, sohasi, hunardir. Kasb-inson faoliyatining natijasidir. Hozirgi kunda umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida tashkil etilayotgan kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari o‘quvchilarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishlariga katta yordam beradi. Bu jarayonda zamonaviy kasblarni targ‘ib qilish bilan birgalikda o‘quvchilarga kasblar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar berish, maslahatlar berishga yordam beradi. Shu bilan birgalikda kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha ta‘lim muassasalarida pedagogik jamoaning vazifalarini, kasb-hunarga yo‘naltirish tadbirlarini amalga oshirishda, ta‘lim muassasalari jamoalarini hozirgi kunda tashkil etilgan tashxis markazlarini kasbga yo‘naltirish xonalari sharoitida o‘qituvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar bilan ta‘minlashdan iborat. Kasb tanlash-bu murakkab, lekin zaruriy jarayon bo‘lib, insonni kelajagini va yaxshi yashash imkoniyatlarini yaratuvchi, shuningdek jamiyatda o‘z o‘rnini topib, unga foydali mehnat qilish hisoblanadi. Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqishga P.P.Blonskiy, A.S.Makarenko kabi atoqli rus olimlari muhim hissa qo‘shganlar. Ular o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlarining psixologik-pedagogik asoslarini yaratish uning keyingi taraqqiyoti uchun sharoit yaratib berdilar. Yer yuzidagi maktablarda kasbga yo‘naltirishni tashkil etishda yangi ijtimoiy voqeliklar inobatga olinadi, o‘quvchi shaxsining samarali rivojlanishini ta‘minlovchi yo‘llar izlanadi. Kasbga yo‘naltirish jarayonida nafaqat o‘quvchilar bilimini boyitish, balki eng avvalo, mushohada qila olish qobiliyati va tanqidiy qarashlarga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirishga alohida ahamiyat berilishi lozim.

Psixologiyaning faoliyat yo‘nalishlaridan biri kasb-hunarga yo‘naltirishdir. O‘quvchilarning e‘tiborini jalb qilish kasblar tarkibini va faoliyatini ichidan tushunish imkonini beradi. Inson hayotga kelar ekan u insoniyat yaratgan moddiy va ma‘naviy boyliklarni o‘zlashtirib boraveradi. Insondagi xulq-atvor vaqt va sharoit bilan bog‘langan holda o‘zgaradi va yangi ko‘rinish oladi. Insondagi bu o‘zgarishlarni o‘rgangan olimlar qatoriga D.Kellin, K.Rodgers, A.Maslou, Z.Freyd, K.Yung va boshqalarni kiritish mumkin. Insondagi o‘zgarish uning hayot jarayonlari bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Insonni shunday o‘zgarishlaridan biri bu uning kasb tanlashi bilan bog‘liqdir. Bu o‘zgarishlar o‘smirda o‘ziga xos tarzda sodir bo‘ladi. Bedil aytganidek, insonning qimmatini emas siymu zar, insonning qimmatini ilm ham hunar. Mehnat maqsadi bo‘yicha kasblarning tasniflari quyidagicha: Aql-zakovat bilan bog‘liq (gnostik, mental), shakl o‘zgartiruvchi, ijodiy (kreativ) kasblardir. Aql-zakovat bilan bog‘liq kasblardan asosiy maqsad : bilish, farqlash, aniqlash, baholash, tahlil qilish, tekshirishdir. Shakl o‘zgartiruvchi kasblardan asosiy maqsad: shakl o‘zgartirish, ishlov berish, tartiblash, tashkil qilish, ta‘sir ko‘rsatish, ko‘chirib o‘tish, xizmat ko‘rsatishdir. Ijodiy (kreativ) kasblardan asosiy maqsad : ixtiro qilish, o‘ylab topish, yangi natija, namuna, yechim topishdir. Abdurahmon Jomiy aytganidek, kim hunarni desa u dono bo‘lur, nodonlar qudrat deb boylikni bilur. Ilm ko‘pga yetkazar, hunar esa



ko'kka.Kasblar turkumlari quyidagicha:Mehnat maqsadi bo'yicha:jamiyat insondan kutayotgan va talab qilayotgan natijalar.Mehnat quroli bo'yicha:insonning mehnat qurolini egallashi va unga ta'sir o'tkaza olish qobiliyatlarini oshiruvchi vositalar.Mehnat sharoiti bo'yicha:inson mehnat qiladigan ijtimoiy muhit xususiyatlaridir.Agar inson biror kasbni mukammal egallasa,mehnat unga huzur bag'ishlaydi,baxt keltiradi.Kasb tanlash bosqichlari:kasb-hunarni to'g'ri tanlashda har bir kishi nimani bilishi,hohlashini,qo'lidan nima kelishini va jamiyat uchun nima qilishi kerakligini bilishi zarur.

- 1.Shaxsning bilimi va hohishining mos tushish sohasi.
2. Shaxsning hohishi va qobiliyatining mos tushish sohasi.
3. Shaxsning qobiliyati va jamiyat ehtiyojlarining mos tushish sohasi.
- 4.Jamiyatdagi ehtiyojning shaxsning bilishi bilan mos tushish sohasi.
5. Bilish va qobiliyatning shaxs qiziqishi bilan mos kelish sohasi.
6. Shaxs hohishi va jamiyat ehtiyojining shaxs qobiliyati bilan mos kelish sohasi.
7. Bilim va qobiliyatning jamiyat ehtiyoji bilan mos kelish sohasi.
8. Jamiyat ehtiyoji va shaxs qiziqishini bilish bilan mos kelish sohasi.

Oltin va kumushi bo'lmagan odam kambag'al emas,balki es-hushi va kasb-hunari bo'lmagan odam kambag'aldir.(Majid Xavofiy).Bilim-shaxs rivojlanishi davomida egallangan axborotlar majmuidir.Hunarni asrabon netgumdir oxir,olib tuproqqamu ketgumdir oxir.(Alisher Navoiy). Har bir kasb layoqat va qobiliyatlardan tashqari shaxsning salomatligiga ham o'ziga xos talablar qo'yadi.Kasb tanlashda shifokor bilan maslahatlashish darkor.O'quvchini mehnat qilishga o'rgat,uni nafaqat mehnatni sevishtga u bilan shunday uyg'unlashishga ko'niktirginki,toki mehnat uning vujudiga singib ketsin,uni shunga o'rgatki,uning uchun o'z kuchi bilan biron-bir narsani bilib ololmaslik aqlga sig'maydigan holat hisoblansin.Moyillik-ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanishga undovchi omildir.Qiziqish-u yoki bu hodisa predmet bilan yaqindan tanishish,uni bilishga,o'rgatishga bo'lgan intilishdir.Qiziqish insonlarga ,texnikaga, belgilar tizimiga,badiiy obrazlarga bo'lishi mumkin.Insonlarga qiziqish-boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan tarbiyaviy ishlar,tengdoshlari o'rtasida tashkilotchilik ishlari,kichkintoylar bilan shug'ullanish,adabiyot va tarix darslarida adabiy qahramonlarni va tarixiy shaxslar xarakterlarini tahlil qilish kabilar yoqadi. Texnikaga qiziqish-fizika, kimyodan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, texnologiya darslari, konstruktorlik,modellash va texnik to'garaklarga qatnashish, maishiy texnikalarni ta'mirlash kabilar yoqadi. Tabiatga bo'lgan qiziqish-biologiyadan amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari,tomorqada,bog'da ishlash, tabiatshunoslar to'garaklarida ishtirok etish kabilar yoqadi.Belgilar tizimiga qiziqish –hisob-kitob ishlari,chizmachilik,sxemalar tuzish,misollar yechish,turli ma'lumotlarni bir sistemaga solish,kundalik kuzatishlar kabilar yoqadi.Badiiy obrazlarga qiziqish-rasm darsi,badiiy havaskorlik to'garagida ishtirok etish,sinf xonasini jihozlash, maxsus rassomchilik maktablarida va mustaqil shug'ullanish, musiqa,qo'shiqchilik kabilar yoqadi. Yoshlarni kasb tanlab borishi davomida o'zgarishi bir qancha omillar bilan bog'liq bo'ladi. Bu eng avvalo ularni kasb tanlashdagi qiyinchiliklari bilan,boshqalarni yordamiga muhtojligi bilan bog'liqdir. Chunki o'smir hali to'la yetarli bo'lmagan,aqliy darajasi va hayot tajribasi yetarli bo'lmagan sharoitda bo'ladi.Kasb tanlashda o'smir qanday qiyinchiliklarga to'g'ri keladi?.Bular quyidagilarda ko'rinadi.Birinchi qiyinchilik -o'smirning ijtimoiy yetilmaganligi, mustaqil qaror qabul qilishga tayyor emasligi.Shu bilan o'smir birinchi marotaba kasb tanlashni og'irligini o'z bo'yniga oladi.Ota-onalar esa bolani kasb tanlash davrida har xil munosabat ko'rsatadilar.Bir xil ota-onalar o'g'li yoki qiziga o'z irodasini o'tkazishga harakat qiladilar.Bir xillari yordam berishdan o'zini chetga oladilar va bolani erkin kasb tanlashiga halaqit bermaydilar.Ikkinchi qiyinchilik- kasb tanlashga ta'sir etish bilan bog'liq omillarni bilmaslik,ularni hisobga olmaslik.

- 1.Bu o'smirning sog'ligi.
- 2.Kasb tanlashda bolaning intilishi,qiziqishi,qobiliyati.
- 3.O'smirning tanlagan kasbini mohiyatini tushunishi.
- 4.Iqtisodni kadrlarga bo'lgan ehtiyojini ham hisobga olish.

Kasb tanlashdagi yana bir qiyinchilik –bu kasbga davo qiluvchilarni bir xil bo'lmagan darajasi hisoblanadi.Bunda o'smir kasbni tashqi tomoniga e'tibor beradi.Deylik modeler,jinoiy bo'limning tergovchisi,biznesmen bo'lish kabilar. O'smirning yana bir qiyinchiligi bu ulardagi kasblar haqidagi ma'lumotlarni yo'qligi hisoblanadi.Bunda ota-onalar o'z farzandlariga kasblar haqida ma'lumotlar berishi va ularning ongida tizimli shakllantirishi lozim.Ota-onalar farzandlarining ilk qadamlaridanoq uning kelajagi haqida o'ylab qolishadi. Shunday ekan,har bir inson hayotida



kasbiy faoliyat muhim ahamiyatga egadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G‘oziyev.E(2010) Umumiy psixologiya.Yangi asr avlodi.2.
2. Davletshin.M.(2002). Umumiy psixologiya.TDPU.3.Suyarov.A.(2017)
3. Sh.M.Mirziyoyev.Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.”O‘zbekiston”.2017.488-b.
4. F.R.Abduraxmonov,Z.E.Abduraxmonova.Kasb psixologiyasi.(o‘quv qo‘llanma) T.2017.
5. E.G.G‘oziyev,K.Q.Mamedov.Kasb psixologiyasi.T.2003.



## O‘ZBEK OILALARIDAGI AYOLLARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIKNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK ASOSLARI

Allaberganova Rashida Azatovna  
Toshkent shahar Mirobod tumani  
154-maktab psixologi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek oilalaridagi ayollarga nisbatan zo‘ravonlik muammosi muhokama qilinadi. Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik o‘zi nima, qanday ko‘rinishlari va turlari mavjud ekanligi haqida so‘z boradi. Oilaviy zo‘ravonlik qurboniga aylangan ayollar psixikasidagi o‘zgarishlar yoritib beriladi. Bundan tashqari oilaviy zo‘ravonlik keltirib chiqarishi mumkin bulgan oqibatlar va ularni oldini olish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

**Kalit so‘zlar:** oilaviy zo‘ravonlik, ayollar zo‘ravonligi, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik, zo‘ravon shaxs, xavf omillari ruhiy kamsitilish, iqtisodiy zo‘ravonlik, jismoniy zo‘ravonlik, psixologik zo‘ravonlik.

### KIRISH

Keyingi yillarda mamlakatimizda oilaviy zo‘ravonlik muammosiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, xotin-qizlar zo‘ravonligiga oldini olish va unga qarshi kurashish maqsadida 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi bu masalaning qanchalik ahamiyatli ekanligini yaqqol isbotidir. Bugungi kunda oilaviy zo‘ravonlik muammosi butun jahonning global muammosiga aylangan.

Oilaviy zo‘ravonlik jinsga asoslangan zo‘ravonlikning eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi. Oilaviy zo‘ravonlik bu - biror-bir oila a‘zosiga oilaning boshqa bir a‘zosi tomonidan do‘q-po‘pisa qilinishi, bosim o‘tkazilishi, haqorat qilinishi natijasida vujudga keluvchi jarayon bo‘lib, u oiladagi insonlar o‘rtasida sodir bo‘ladi. Har bir inson oiladagi zo‘ravonlikning qurboni yoki ijrochisiga aylanishi mumkin. Biroq, qayd etilgan holatlarning aksariyati erkaklar tomonidan ayollarga nisbatan sodir etiladi. Oilaviy zo‘ravonlik BMT tomonidan erkaklar va ayollar o‘rtasidagi kuchlarning tengsizligi ifodasi sifatida belgilanadi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Oiladagi zo‘ravonlik bu yashirish, bostirish, toqat qilish yoki azob chekish emas. Oiladagi zo‘ravonlik holati, agar yuzaga kelsa, kelajakda uning takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun uni to‘xtatish kerak. Oiladagi zo‘ravonlik yuzaga kelgan vaziyatda nima qilish kerakligini tushunishga yordam beradigan bir qator oddiy qadamlar mavjud. Oiladagi zo‘ravonlik, xoh bola, xoh kattalar, keksa odam, ayol yoki erkak bo‘lsin, har birimizning qurbonimiz bo‘lishi mumkin. Turmush o‘rtog‘i o‘z xotiniga nisbatan tajovuzni, aksincha, ota-onalar farzandlariga, farzandlar esa ota-onaga, akauka va opa-singillarga bir-biriga nisbatan tajovuzkorlikni namoyon qilishi mumkin.

Bolalar o‘zlarining birodarlariga yoki opa-singillariga nisbatan zo‘ravonlik shaklida tajovuzkorlikni ko‘rsatishi mumkin.

Oilada o‘zaro muloqot jarayonida tabiiy ravishda nizolar va janjallar paydo bo‘lishi mumkin, ammo ularning hammasi ham zo‘ravonlik emas. Oiladagi zo‘ravonlikda zo‘ravonlik shakllarining takrorlanib turadigan davrlari mavjud.

1-davr. Oilada taranglikning kuchayishi. O‘zaro munosabatlarda norozilik kuchayadi va oila a‘zolari o‘rtasidagi aloqa buziladi.

2-davr. Zo‘ravonlik hodisasi. Og‘zaki, hissiy yoki jismoniy zo‘ravonlik avj oladi, g‘azab, tortishuvlar, ayblovlar, tahdidlar, qo‘rqitishlar bilan birga keladi.

3-davr. Yarashish. Zo‘ravon shaxs kechirim so‘raydi, sababini tushuntiradi, aybni jabrlanuvchiga yuklaydi, ba‘zida sodir bo‘lgan voqeani rad etadi yoki jabrlanuvchini voqealarni bo‘rttirib ko‘rsatishiga ishontiradi.

4-davr. O‘zaro munosabatlardagi tinch davr ("asal oyi"). Zo‘ravonlik davri unutiladi, tajovuzkor kechiriladi. Ushbu bosqich "asal oyi" deb nomlanadi, chunki bu bosqichda sheriklar o‘rtasidagi munosabatlarning sifati asl nusxasiga qaytadi.

Odatda, so‘nggi davr ya‘ni asal oyidan keyin munosabatlar birinchi bosqichga qaytadi va sikl takrorlanadi. Vaqt o‘tishi bilan har bir bosqich oralig‘i qisqaradi, zo‘ravonlik xolatlari tez-tez uchraydi va ko‘proq zarar keltiradi. Zo‘ravonlik qurboni vaziyatni o‘zi hal qila olmaydi.



Shuni ta'kidlash kerakki, bunday vaziyatda aql bilan ongli ravishda harakat qilish juda qiyin bo'lib qoladi. Agar insonga eng yaqin odamlaridan tahdid tug'lsa, qaror qabul qilish va zo'rvonlik xolatini tugatish uchun ulkan jasorat talab etiladi. Yuz berayotgan bu sharmandalik xolatini, qarindoshlar, qo'shnilar yoki ishdagi hamkasblar bilib qolishidan qo'rqish, ko'pincha, bu muammoni hal qilishga to'sqinlik qiladi. Bundan tashqari, bizning mentalitetimizda oilada yuzaga keladigan muammolar haqida sukut saqlash kerak degan qarashlarning mavjudligi muammoni yashirishga majbur etadi. Odatda ko'pchilik shunday qiladi: jimgina chidaydi va hamma narsa o'tib ketishini kutadi. Afsuski, bu zo'rvonlik yana va yana bir necha marta sodir bo'ladi. Oiladagi zo'rvonlik va oddiy, shaxslararo nizo o'rtasidagi asosiy farq mana shu. Uyingizdagi zo'rvonlikni bir marotaba to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilish insonni yanada azoblanishdan qutqaradi. Izlanishlarga ko'ra, ayollar va qizlar ko'pincha oilaviy zo'rvonlikdan aziyat chekishadi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi ayollarning taxminan 70 foizi hayoti davomida zo'rvonlikni boshdan kechirgan. Erkaklar ko'pincha turmush o'rtog'i, ota onasi, farzandlari, xonadoshlariga nisbatan tajavvuzkorlik namoyon etsa, ayollarda esa asosan, ota-onalar va bolalarga nisbatan kuzatiladi. Turmush o'rtog'i va sherigiga nisbatan zo'rvonlik kamdan-kam holatlarda qayd etiladi. Oiladagi zo'rvonlikning bir necha turlari mavjud: jismoniy, jinsiy, psixologik va iqtisodiy.

Jismoniy zo'rvonlik - bu jabrlanuvchiga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ta'sir o'tkazish, jismoniy zarar yetkazish maqsadida, kaltaklash, tan jarohati yetkazish, tanaga og'ir shikast yetkazish, kaltaklash, turtish, tepish, tarsaki ko'rinishida bo'ladi

Jinsiy zo'rvonlik - bu odam o'z xohishlariga qarshi jinsiy aloqada bo'lishga majbur qilish, tahdid qilish yoki aldangan paytdagi zo'rvonlik harakati.

Psixologik zo'rvonlik - inson psixikasiga zarar yetkazish, haqorat qilish, qo'rqitish, tahdid qilish, shantaj qilish, nazorat qilish kabilar

Iqtisodiy zo'rvonlik - bu moddiy bosim bo'lib, o'qishni, ishlashni ta'qiqlash, moddiy yordamdan mahrum qilish va daromadlarni to'liq nazorat qilishda o'zini namoyon qiladi. Shuni yodda tutish kerakki, shaxsiy daxlsizlik va xavfsizlik har qanday shaxsning ajralmas huquqi xisoblanadi. 1948 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida barcha insonlar zo'rvonliksiz yashash huquqiga ega ekanligi ta'kidlangan. Insonni manipulyatsiya qilish va o'z kuchlarini ko'rsatish uchun tajovuzkorlar turli xil xattixarakatlardan foydalanadilar:

Hukmronlik – zo'rvon o'zaro munosabatlar uchun javobgarlikni his qilishlari kerak. Ular turmush o'rtog'i va boshqa oila a'zolari uchun qarorlar qabul qilishadi, ularning nima qilishini aytib berishadi va so'roqsiz ularga bo'ysunishni kutishadi. Zo'rvon o'z qurboniga xizmatkor, bola yoki hatto uning mol-mulki kabi munosabatda bo'lishi mumkin.

Xo'rlik - tajovuzkor o'z qurbonini nomukammal, kamsitilgan his qilishi uchun hamma narsani qiladi. Bunday vaziyatda, u o'z qurbonining hech nimaga arzimasligiga va hech kim u bilan boshqa munosabatlarni o'rnatishini istamasligiga ishonsa, ketish haqida qaror qabul qilish ehtimoli kamroq bo'lishini kutadi. Ta'qib qilish, suiiste'mol qilish, tanbeh berish va ijtimoiy kamsitish qurbonning qadrqimmatini pasaytirish va o'zini nochor his qilish uchun qilingan zo'rvonlik qurolidir.

Izolyatsiya – zo'rvon qurbonini o'ziga bog'liqligini oshirish uchun uni tashqi dunyodan uzib qo'yishga harakat qiladi. U oilasi yoki do'stlarini ko'rishni ta'qiqlashi yoki hatto ish yoki maktabga borishini ta'qiqlashi mumkin. Qurbon biror narsa qilishi, biron joyga borishi yoki kimnidir ko'rishi uchun ruxsat so'rash kerak bo'lishi mumkin.

Tahdidlar - tajovuzkorlar, odatda, qurbonlarini o'zidan uzoqlashishini oldini olish uchun tahdidlardan foydalanadilar yoki ular haqida xabar berolmasligi uchun qo'rqitishga harakat qilishadi. Zo'rvonlik qurboniga, farzandlariga, boshqa oila a'zolariga yoki hatto uy hayvonlariga zarar yetkazish yoki o'ldirish bilan tahdid qilishi mumkin. U, shuningdek, o'z joniga qasd qilish bilan tahdid qilishi mumkin, o'z qurboniga qarshi soxta ayblovlar qo'zg'atishi yoki tegishli tashkilotlarga xabar berishi mumkin.

Bezorilik – zo'rvon o'z qurbonini bo'ysundirish uchun turli xil bezorilik xarakatlaridan foydalanishi mumkin. Bunday xarakatlarga tahdid soluvchi ko'rinish yoki imo-ishoralar, mol-mulkni yo'q qilish va uy hayvonlariga og'riq keltirish kiradi.

Bu xolat bo'ysunmaslik dahshatli oqibatlariga olib kelishi mumkin degan signaldir.

Rad etish va aybdorlik - zo'rvonlar, hatto, kechirilishi mumkin bo'lmagan narsalar uchun ham kechirim so'rashga usta. Ular o'zlarining haqoratli va tajovuzkor xatti-harakatlarini yomon bolalik yoki yomon kun oqibatida ayblashadi va hatto buning uchun o'z qurbonini ayblashlari mumkin.



Zo‘ravon zo‘ravonlikni minimallashtirishi yoki hatto uning sodir bo‘lganligini rad etishi mumkin. U o‘zining zo‘ravonlik va qo‘pol muomalasi qurbonining aybi deya mas’uliyatni unga yuklashga harakat qiladi. Ushbu xarakatlarni o‘z vaqtida tashxislash qo‘pol munosabatlardan chiqish uchun to‘g‘ri tanlov qilishga imkon beradi!

#### XULOSA

Shuni yodda tutish kerakki, tajovuzkorlar o‘zlarining xatti-harakatlarini boshqarishga qodir - ular buni har doim qilishadi!

- zo‘ravonlar kimga qarshi zo‘ravonlik qilishni tanlaydilar. Ular xafa qilganlarni haqorat qilmaydi, tahdid qilmaydi yoki ularga hujum qilmaydi. Qoida tariqasida, ular yaqin odamlariga, o‘zlarini yaxshi ko‘raman deb da’vo qilganlarga nisbatan zo‘ravonlik ishlatadilar.

- zo‘ravonlar zo‘ravonlikni qachon va qaerda qo‘llashni diqqat bilan tanlaydilar. Atrofda ularning zo‘ravonlik xatti-harakatlarini ko‘radigan odamlar bor ekan, ular o‘zlarini nazorat qilishadi. Ular o‘zlarini jamoat joylarida hech narsa bo‘lmagandek tutishlari mumkin, ammo ular qurbonlari bilan yolg‘iz qolishlari bilan zo‘ravonlik qilishadi.

- zo‘ravonlar o‘zlarining zo‘ravonlik xatti-harakatlarini, bu ularga foyda keltirishi mumkinligini ko‘rganlarida to‘xtatishga qodir. Aksariyat zo‘ravonlar, aslida ularning manfaatlariga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan zo‘ravonlik xatti-harakatlarini to‘xtata oladi (masalan, polisiya kelganida).

- zo‘ravonlar ko‘pincha zo‘ravonlikni ko‘rinadigan izlar bo‘lmaydigan tarzda ishlatadilar. Jismoniy zo‘ravonlik bilan g‘azablanib harakat qilish o‘rniga, zarbalarni ko‘karishlar ko‘rinmaydigan joylarga ehtiyotkorlik bilan yo‘naltiradi.

Oiladagi zo‘ravonlik - bu bir oila a’zosining boshqa oila a’zosiga nisbatan qasddan qilingan jismoniy, psixologik va jinsiy xatti-harakatlari, uning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini buzish va unga jismoniy va (yoki) ruhiy azob berish. Shunday ekan bu illatni oldini olish va yo‘q qilish barchamizning vazifamizdir.

#### REFERENCES

1. Pulatova Sh.A, Murodov A.Sh Zo‘ravonlikdan jabrlanganlar huquqlarini himoya qilish va zo‘ravonlikning oldini olish: Uslubiy qo‘llanma. –T.,Baktria press, 2020. – 56 B.

2. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi // URL: <http://www.lex.uz>

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zo‘rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 02.07.2018 yildagi PQ-3827-sonli Qarori// URL: <http://www.lex.uz>

4. 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikas«Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida» Qonuni



МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA MULOQOT KO`NIKMALARI  
SHAKLLANISHINING O`ZIGA XOSLIGI

Qo`shnazarova Surayyo Qudrat qizi  
Xorazm viloyati Yangiariq tumani  
15-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi  
psixologi surayyoqoshnazarova@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot ko`nikmalarini shakllanishi to`g`risida psixologlar tomonidan o`tkazilgan tajribalar natijasi va bolalardagi muloqot ko`nikmalari bo`yicha ma`lumotlar berilgan. Bolalarning atrof-muhitdagi shaxslar bilan muloqot jarayonidagi muammolari, ijtimoiylashuv jarayonida sodir bo`ladigan psixologik o`zgarishlar, muloqot jarayonida sodir bo`ladigan kamchiliklarni psixodiagnostik jihatdan korreksiya qilish to`g`risida ta`kidlangan.

**Kalit so`zlar:** bola, nutq, muloqot, ko`nikma, muloqotning shakllanishi, muloqotchanlik, tortinchoqlik, maktabgacha yosh psixologiyasi.

Ontogenezda 3dan7 yoshgacha bo`lgan davr bog`cha yoshi davri yoki maktabgacha yosh davri deb hisoblanadi. Avvalo muloqot o`zi nima degan savolga qisqacha to`xtalib o`tsak. Muloqot bu A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan “Umumiy psixologiya” darsligida **muloqot**-ikki yiki undan ortiq kishilar o`rtasidagi axborot ayriboshlash, o`zaro ta`sir va bir –birini tushunishdan iborat jarayon sifatida e`tirif etiladi. M.G.Davletshin rahbarligida chop etilgan “Psixologiya” qisqacha izohli lug`atida **muloqot**-ikki yoki undan ortiq odamlarning bir-biriga ta`sir etishidir.

Xo`sh shunday ekan maktabgacha yosh davridagi bolalarda muloqot qanday shallanadi? degan savolga to`xtalsak. Har bir inson tug`ilgan paytidan emas, balki boshqa odam bilan aloqasi orqali muloqot qilish qobiliyatiga ega bo`ladi. Ushbu ko`nikma hayot tajribasini o`rganish natijasida ishlab chiqilgan bo`lib, maktabgacha tarbiyachilarning aloqasi odamlar bilan muntazam muloqotda bo`ladi. Uning ijtimoiy doirasi bir zumda ota-onalar va bir nechta yaqin qarindosh-urug`lar va boshqa katta yoshdagilarga kengayib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar tengdoshlari bilan muloqot jarayonida haddan tashqari hissiyotlarni ko`rsatadi. Agar kattalar bilan muloqotda bola o`zini tutish va xotirjamlikni saqlashga harakat qilsa, unda tengdoshlari bilan muloqot qilayotganda u baland ovozda kulish, qichqiriq berish, qattiq ovoz ishlatish imkonini beradi. Og`zaki va og`zaki bo`lmagan ya`ni imo- ishora tizimlaridan foydalanish orqali muloqot amalga oshiriladi. Ontogenezda nutqning rivojlanishi juda uzoq va murakkab xususiyatga ega. **M.I. Lisina** bola nutqining rivojlanishida uch bosqichni ochib beradi:

- **preverbal** (bolaning passiv yoki faol nutqini o`zlashtirmaganligi, og`zaki muloqot uchun zarur shart-sharoitlar shakllantirilishi);

- **dastlabki og`zaki muloqot** (passiv lug`at ishlab chiqilgan, birinchi oddiy so`zlar va jumlarlar paydo bo`lishi);

- **batafsil og`zaki muloqot**

Dastlabki bosqichlarda og`zaki nutqni rivojlantirish jarayonining muhim ko`rsatkichi - **ishora tilining rivojlanish darajasi**. Ularning qashshoqligi og`zaki nutqning rivojlanishidagi kechikishni ko`rsatadi.” Bolalarning og`zaki muloqotiga bag`ishlangan asarida” **Ivanets** maktabgacha yoshdagi bolalar o`rtasida muloqotni shakllantirish va rivojlantirishning o`ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. Muallif o`z asarida **san`atni** maktabgacha tarbiyachilarning nutq aloqalarini rivojlantirish vositasi sifatida tasvirlaydi. **M.I . Lisina, T.A. Repin, A.G. Ruzskaya** kommunikatsiya tushunchasini mohiyatini kommunikativ faoliyat bilan birlashtiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar o`rtasidagi aloqalarning yana bir muhim xususiyati - ularni maxsus tartibga solish va standartlarning etishmasligi. Ota-onalar va tarbiyachilar bilan muloqotda bo`lishda bolalar odatiy xatti-harakatlariga rioya qilishga harakat qilishadi. Bolalar o`z tengqurlari bilan va mazza qilib o`ynashadi, bir-biriga qiziqarli, fantastika aytishadi va hokazo. Kattalar tezda bolalarning bunday xatti-harakatlaridan charchashadi. Ular buni "sharmandalik" deb hisoblashadi. Aslida, bunday erkinlik kichik bolalar uchun juda muhimdir. O`zining tengdoshlari bilan muloqotda bo`lishi tufayli, bola o`zini erkin tutadi va bu jarayonda bola o`zini bilish uchun qulay sharoitlarga ega bo`ladi. O`zini boshqa bolalar bilan taqqoslashni boshlaydi, ular o`zlarining belgi xususiyatlarini aks ettirishga harakat qiladilar Shubhasiz, zamonaviy maktabgacha ta`lim tizimi juda muhim va dolzarbdir.



Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim muammolari ham mavjud. Har bir inson, bolaning shaxsiy xususiyatlariga ega bo'lgan va uning jismoniy va aqliy rivojlanishining sifati aniqlanadigan yosh bu maktabgacha yosh ekanliklarini biladi. Agar bu yoshdagi bolaning rivojlanish xususiyatlarini e'tiborsiz qoldirsangiz, u kelajakdagi hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Maktabgacha yoshi - bolani tarbiyalashning asosiy davri. U bolaning shaxsiyatini dastlabki shakllanish yoshi hisoblanadi. Shu bilan birga, bolaning tengdoshlari bilan muloqotida juda murakkab munosabatlar paydo bo'ladi. **A.A. Leontiev** tomonidan ilgari surilgan faoliyat kontseptsiyasiga ko'ra, muloqot "muloqot faoliyati" dir, ya'ni har birining muayyan vazifani hal etishga qaratilgan ketma-ketlikdagi harakatlar tizimi va aloqa maqsadiga yo'naltirilgan qadam sifatida qaralishi mumkin. Binobarin, muloqot odamlarning amaliy faoliyatiga kiritilgan: birgalikdagi ish, bilim, o'yin, musiqiy faoliyat. **D. B. Elkonin nuqtai nazaridan**, o'yin – bolalarning jamiyat bilan aloqasi ifodalanadigan ijtimoiy haqiqatni o'zlashtirish usulidir. Ro'lli o'yinlar muloqot qobiliyatlari, hissiy tushunish, ijtimoiy istiqbollarni qabul qilish va empatiyaning rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi davrda o'z rivojlanish va tengdoshlari bilan muloqot davom etmoqda. **Lisina va Smirnova** maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarini atrofdagi bolalar bilan taqqoslash orqali bolaning turli tadbirlarda o'zlarining qobiliyatlarini yanada yaxshiroq ifodalashini isbotladi. Hamkasblar bilan muloqot qilish jarayonida bolalar rivojlanishi va o'ziga munosib bo'lishi. Maktabgacha yoshdagilarga mashhur va mashhur bo'lmagan bolalarni ajratish mumkin..

#### **Adabiyotlar:**

1. Божович, Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. / Л.И. Божович. – М., 2002. – 450с.
2. Выготский, Л. С. Собрание сочинений : в 6 т. Т. 4. Вопросы теории и истории психологии / Л. С. Выготский ; под ред. А. Р. Лурия, М. Г. Ярошевского. – М. : Педагогика, 1982. – 488 с. : ил. (Акад. пед. наук СССР)



## МАКТАБ YOSHIDAGI O‘QUVCHILAR ORASIDA PSIXOAKTIV MODDALARGA QARAMLILIKNING OLDINI OLISH

**Matniyazova Nazokat Egamberganovna**

Xorazm viloyati Bog'ot tumani 12-son maktab psixologi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jamiyatimizda yoshlar va maktab o‘quvchilari o‘rtasida psixoaktiv moddalar aylanmasiga chek qo‘yish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini ta‘rg‘ib qilish masalalari, psixoaktiv moddalarga qaramlikning oldini olish bo‘yicha mulohaza yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** psixoaktiv, psixotrop, o‘quvchi, yoshlar, modda, qaramlik, ta‘lim.

O‘zbekistonda keyingi yillarda yoshlar o‘rtasidagi jinoyatchilik va huquqbuzarlik oldingi yillarga nisbatan kamaygan bo‘lishiga qaramay aynan tartibsizlik, taqiqlangan psixotrop moddalarning yoshlar o‘rtasida noqonuniy tarqatilishi kabi salbiy illatlarning ko‘payib borishi keng jamoatchilik vakillarini tashvishga solib qo‘ymoqda.

Ba‘zi odamlar farzandiga haddan tashqari e‘tiborli bo‘lib, keragidan ortiq g‘amxo‘rlik ko‘rsatadi. Bunday muhitda katta bo‘lgan farzand ota-onasiz biror mustaqil ish qila olmaydi. Natijada hayotidagi qiyin vaziyatlarda kerakli qarorni qabul qila olmaslik yoki stressli holatlardan ijtimoiy maqbul yo‘l bilan chiqa olmaslik turli xil dorilarning iste‘moliga olib kelishi mumkin. Shuningdek, bu holatning aksi o‘laroq, ota-onalarning farzandga o‘ta talabchanligi, qattiqqo‘lligi ham sabab bo‘ladi. Bundan tashqari ota-onalar tirikchilik bilan bo‘lib farzandlarini o‘z holiga tashlab qo‘yadi. Bunday bolalar ko‘chada sang‘ib yuradi, noto‘g‘ri yo‘lga boshlovchi shaxslarning ta‘siriga tushib qoladi. Ota-onalari bo‘lsa bolaga o‘zi berolmagan mehr, vaqtning o‘rnini moddiy rag‘batlantirish bilan to‘ldirmoqchi bo‘ladi. Oqibat farzandda atrofdagilarga, birinchi navbatda o‘z ota-onasiga nisbatan iste‘molchilik munosabati shakllanadi, ota-onasining buyurgan ishini bajarishi uchun ulardan nimadir talab qila boshlaydi, to‘qlikka sho‘xlik qiladi, yangi va yangi narsalarga qiziqish paydo bo‘ladi.

Bugungi kunda giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalar bilan bir qatorda, inson ongi va sog‘lig‘iga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi kuchli ta‘sir qiluvchi yoki zaharli moddalar ham keng tarqalayotgani dunyo hamjamiyatini tashvishga solmoqda.

Psixotrop moddalar miyaning va asab tizimining ishlashiga ta‘sir qilib, odamning aqliy holatini o‘zgartiradigan kimyoviy moddalarga qo‘llanadigan atama. Bu mast bo‘lishga olib kelishi mumkin, bu ko‘pincha odamlar psixoaktiv preparatlarni qabul qilishning asosiy sababidir. Psixofaol moddalarni ishlatadigan odamlarning bosh miya funksiyalaridagi o‘zgarishlar ularning hislariga, kayfiyatiga va yoki ongiga ta‘sir qiladi.

Mamlakatimizda giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurash bilan birgalikda kuchli ta‘sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muamalaga kiritilishiga qarshi kurash ham kuchaytirilgan tarzda olib borilmoqda.

O‘quvchi yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, ayniqsa, ular orasida turli psixotrop moddalarning noqonuniy tarqatilish holatlarini kamaytirish, shuningdek, mazkur turdagi salbiy illatlardan, uning oqibatlaridan keng jamoatchilik fikrini hamda yoshlar munosabatini shakllantirish maqsadida maktablarda turli xil proflaktik tadbirlar tashkil etilmoqda, tushuntirishlar o‘tkazilmoqda.

Psixotrop moddalarga qaramlik holatlarining oldini olish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jamoat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilingan. Arzimasdek ko‘ringan dori vositalari yoshlarni yo‘ldan adashtiradigan, qolaversa, ularni sog‘lom hayot tarzidan uzoqlashtiradigan vosita sifatida qaralmoqda. Bu dorilar dastlab davolovchi dori vositasi sifatida xizmat qilgan. Yoshlar ulardan bosh og‘rig‘ini qoldirishda va kayfiyatni ko‘tarishda foydalanishgan. Unga salomatlik baxsh etuvchi davo sifatida qarashgan.

Bu kabi dori vositalarida giyohvand moddalarida bo‘lgani kabi o‘ziga o‘rgatib qo‘yish xususiyati bor va u insonni o‘ziga tobe etib qo‘yadi. Bu esa hayotimizda giyohvandlikning yangicha ko‘rinishini paydo qiladi. Aldov yo‘llari bilan o‘quvchi yoshlarimiz ham bu dorilarni qabul qilgan holatlari kuzatildi. Ayrim yoshlar balog‘at yoshidagi o‘zgarishlar va depressiya holatlarini yengish uchun psixotrop moddalarni xarid qilishmoqda. Ba‘zilar bu dorini qabul



qilish orqali imtihonlarga yaxshi tayyorgarlik ko‘rish, asablarni tinchlantirish, diqqatni jamlash va ruhiy yengillikni sezish mumkin degan safsatalariga ishonib juda ko‘plab qabul qilish orqali sog‘ligida xavfli muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Psixotrop moddalar va ularning analoglarini noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish uchun quyidagi takliflarni bermoqchimiz:

1. Har bir hududdagi dorixonalarda psixotrop moddalar va ularning analoglarini sotilish noqonuniy sotilish holatlarini hududiy profilaktikka inspektorlari tomonidan qat‘iy nazoratga olish;

2. Bemorlarga tarkibida psixotrop moddalar va ularning analoglari bo‘lgan dori vositalarini har bir hududdagi shifoxonalar, diagnostik klinikalarda faoliyat yuritayotgan shifokorlarning maxsus retsepti asosida berish;

3. Har bir hududdagi shifoxonalar va diagnostik klinikalarda faoliyat yuritayotgan shifokorlar tomonidan kimga qancha miqdorda tarkibida psixotrop moddalar va ularning analoglari bo‘lgan dori vositalarini sotib olib, davolanish uchun maxsus retsept yozib berganligini kunlik yuritib borish va har oyning oxirgi 3 kunligida shifoxonalar va diagnostik klinika rahbarlari tomonidan hududiy ichki ishlar organlariga hisobot topshirish;

4. Har bir dorixonalarda tarkibida psixotrop moddalar va ularning analoglari bo‘lgan dori vositalarini qaysi shifokorning maxsus retsepti asosida qancha miqdorda sotganligi hisobini kunlik yuritib borish va har oyning birinchi 3 kunligida dorixona rahbarlari tomonidan hududiy ichki ishlar organlariga hisobot topshirish.

Bizning fikrimizcha yuqorida bergan takliflarimiz albatta o‘zining ijobiy natijasini beradi va jamiyatimizda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarining noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yishga yaxshigina imkoniyat yaratib beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. S.Eshqobilov, B.Raimjonov. Huquqbuzarliklarning oldini olishning dolzarb masalalari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.

2. [www.iiv.uz](http://www.iiv.uz)

3. [www.oyina.uz](http://www.oyina.uz)



## ТА’ЛИМДА ПСИХОЛОГИЯНИНГ АҲАМИЯТИ

Matniyazova Nazokat Egamberganovna

Xorazm viloyati Bog'ot tumani 12-son maktab psixologi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta’lim jarayoni, unda yuzaga keladigan muammolar va ularning psixologik xususiyatlari, ta’limda psixologiyaning ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit soʻzlar:** ta’lim, psixologiya, faoliyat, tarbiya, obyekt, subyekt, rol, ta’sir.

Ta’lim ham jarayon, ham faoliyat sifatida insonning hayotida muhim rol oʻynaydi va muayyan davr uchun yetakchi faoliyat sifatida gavdalanishi mumkin. Ta’lim boshqacha soʻz bilan aytganda, oʻqituvchi bilan oʻquvchining subyekt-subyekt munosabatidagi hamkorlik faoliyati hisoblanadi. Aksariyat hollarda oʻqituvchi axborot uzatuvchi (kommunikator), oʻquvchi esa uni qabul qiluvchi obyekt sifatida talqin etiladi, ikkiyoqlama harakat tufayli ma’lumot insonga anglashiniladi, oʻzaro ta’sir, oʻzaro anglashuv, tushunuv, oʻzaro subyektlarning bir-biriga zaruriyligi, taqozochanligi hamkorlikning muvaffaqiyati kafolati sanaladi.

Ta’lim oʻquv faoliyati, aqliy faoliyat, bilish faoliyati turtkisi vazifasini oʻtaydi, chunki har qaysi faoliyatning shakli aqliy mehnat tufayli amalga oshadi. Ta’limning boshqa faoliyat turlaridan farqi uning mahsulining oʻziga xosligi, barcha bosqichlariga ongli yondashuvida va munosabatda boʻlishdir. Ta’lim oʻquv faoliyati yoki jarayon sifatida mustaqil izlanishni, ijodiy munosabatni, turli vaziyat (auditoriya va undan tashqarida)ni, har xil bosqichni (boshlangʻich, oʻrta, maxsus, oliy ta’lim) oʻzida mujassamlashtiradi. Mustaqil bilim olish va mutolaa qilish ham oʻquv faoliyatining muayyan koʻrinishlari boʻlib, shaxsiy, ilmiy, ijodiy izlanishning mahsuli hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya bilan uygʻunlashgan tarzda namoyon boʻladi, subyektga obyektiv ta’sir oʻtqazish tufayli bilimlar egallanadi, muayyan shaxsiy fazilatlar tarkib topadi.

Ta’limning mohiyatiga (matnda gʻoya, taassurot, mazmun, syujet, timsol orqali) tarbiyaviy ta’sir oʻtkazish dasturiy asosda, iyerarxik (yunoncha hierarchia - izchillik) tarzda singdiriladi. Ta’lim muayyan guruh va jamoani shakllantiradi, shaxslararo munosabat maromlari bilan tanishtiradi, shaxsiy fazilatlarining tarkib topishiga, subyektning ijtimoiylashuviga sezilarli ta’sir oʻtkazadi. Ta’lim jarayonida aniq tasavvurlik, tasviriy koʻrgazmalilik, “jonli mushohada” lik materiallarining oʻrni nihoyatda muhimdir. Oʻzlashtirilayotgan oʻquv materialining ma’lum qismi hissiy aʼzolarimiz tomonidan aks ettiriladi. Oʻquvchilar bilimlarni egallash paytida aniq narsalar, obyektlar, hodisalar, jismlarni yoki ularning ramziy tasvirlarini kuzatish natijasida aniq tasavvur obrazlarini yaratadilar.

Pedagogik psixologiya - ta’lim va tarbiya muammolarini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi. U shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishini, bilish faoliyatining va insonda ijtimoiy ijobiy sifatlarini tarbiyalashning psixologik muammolarini oʻrganadi. Pedagogik psixologiya umumiy va bolalar psixologiyasi, shuningdek, pedagogika bilan uzviy bogʻliq. Pedagogik psixologiya, asosan, ta’lim psixologiyasi va tarbiya psixologiyasiga boʻlinadi.

Ta’lim psixologiyasida oʻquv jarayonida xotira, tafakkur, nutq, xayol, irodaning roli, shuningdek, oʻquvchilarning individual xususiyatlari (temperamenti, xarakteri, qiziqishlari), oʻquv predmetlarining oʻziga xos tomonlari, ta’lim jarayonini boshqarishning psixologik tamoyillari va boshqalar oʻrganiladi. Hozirgi zamon ta’lim psixologiyasida oʻquvchilarga doimiy yangilanib turadigan axborotlarni mustaqil oʻzlashtirish imkoniyatini beradigan, ilmiy-texnika yangiliklaridan orqada qolmaslikni ta’minlaydigan tafakkur sifatlarini oʻrganish muhim masaladir.

Tarbiya psixologiyasining asosiy vazifasi — maktabdagi tarbiyaviy ishlar jarayonida shaxsning shakllanishi masalasini ishlab chiqish. Unda shaxsning axloqiy sifatlarining shakllanishiga alohida ahamiyat beriladi.

Ma’lumki, insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning oʻzlari ham, ularning bir-birlari bilan boʻladigan oʻzaro munosabatlari ham, ayniqsa, shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin boʻlgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, oʻziga xos tarzda murakkablashib boradi. Sababi: hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari va vositalarining taraqqiyoti, qishloq xoʻjaligi, sanoat ishlab chiqarishi, umuman, xalq xoʻjaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi boʻlgan inson omiliga, inson shaxsiga ham oʻziga xos yangicha talablar qoʻymoqda. Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti bir tomondan,



odamlarning o'zlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-psixologik, fiziologik va boshqa o'zgarishlar o'zaro muloqot munosabatlari doirasining ma'lum darajada shegaralanib qolishiga, ularda o'tmishdoshlarimizda kuzatiladigan tabiiylikning ma'lum darajada bo'zilishiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emosional zo'riqlarning yuzaga kelishiga asos bo'lmoqda. Bularning ta'siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda ham o'z ifodasini topadi.

Ta'lim muammolarini to'g'ri hal etish, o'qish ma'lum darajada majburiy xususiyatga egaligi va asosiy maqsad yo'lida yengib o'tish kerak bo'lgan to'siq sifatida namoyon bo'lishi bilan ham bog'liq. Bu vaziyat uchun qarshi kurashuvchi kuchlarning mavjudligi xosdir. Umuman olganda, bu ziddiyatli holat hisoblanadi, shuning uchun u katta psixik zo'riqlash bilan bog'liq ichki kuchni hamda individning o'z-o'zi bilan kurashishini talab qiladi. Ziddiyat keskin bo'lganda «vaziyatdan chiqish» tendensiyasi yuzaga keladi. Unda o'quvchi o'qishni tashlaydi yoki «o'zini tutolmay qoladi» – qoidalarni buzadi, loqaydlikka tushadi. Shunga o'xshash holat maktab amaliyotida ko'p uchraydi.

Ta'limdagi muvaffaqiyatli vaziyat - insonni o'qishga undovchi vaziyatdir. Bunga fanlarga qiziqish, qiziquvchanlik, madaniy darajani oshirishga intilish misol bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bunday motivli vaziyatlar ichki ziddiyatlarga ega bo'lmaydi. Albatta, ular, shuningdek, o'qish davomida uchrovchi qiyinchiliklarni yengish bilan bog'liq va iroda kuchini talab qiladi. Lekin bu kuchlar o'z-o'zi bilan kurashga emas, tashqi to'siqlarni yengishga yo'naltirilgan. Bunday vaziyatlar pedagogika nuqtai nazaridan optimaldir. Ularni yaratish pedagogikaning muhim vazifasidir. Ular o'quvchining xulqini boshqarishni emas, balki uni tarbiyalashni, uning maqsad, qiziqish va idealini shakllantirishni talab qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T., 2003.
2. K. Qudratova. O'qituvchi qobiliyati va uning psixologiyada o'rganilishi.
3. G'oziev E. «Pedagogik psixologiya asoslari». Toshkent. 1997.



**BOLALARDA NUTQNI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLARNI HAL ETISH**

**Mirxamidova Maftuna Xusanboy qizi**

Namangan Davlat Universiteti Ta’lim tarbiya  
Nazaryasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim)  
2-bosqich magistranti 93 944 45 55 maftuna@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqola maktabgacha ta’lim

**Kalit soʻzlar:** Nutq, muammolar, bolalar, jamiyat, muvaffaqiyat, kayfiyat, tarbiyalanuvchi, oʻyin, predmetlar, oʻyinchoq, muammolar, tengdoshlar.

Respublikamizda maktabgacha ta’lim allaqachon davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan. Shu bois ta’lim tizimining ilk boʻgʻiniga doir har qanday muammo davlat miqyosida hal qilinmoqda. Jumladan, maktabgacha ta’lim tizimi tarbiyachilari bugungi kunda bolalarni maktabga tayyorlashning bazaviy dasturi hamda tajriba-sinov jarayonida yuqori baholangan oʻquv-metodik materiallarga ega. Mazkur dasturda bolalarni jismoniy rivojlantirish, nutq va tafakkurini shakllantirish, tevarak-atrof bilan tanishtirish kabi turli masalalar qamrab oladi va muammolarni hal qiladi.

Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. Oʻquvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta’lim olish qurolidir. Kichik yoshdagi bolalar nutqini oʻstirish vazifalari. Uch-besh yoshli bolalarda kattalarning mehriga, ularning tushunishiga va u bilan muloqot qilishiga ehtiyoj saqlanib qoladi. Kattalarga nisbatan ishonchga asoslangan muloqot va uning emotsional ahvolini (quvonch, zavq-shavq, qaygʻu, xotirjamlik, jahldorlik va h.k.) his qilishga, kayfiyat oʻzgarganligi sabablarini tushunishga qodirlik rivojlanadi. Kattalar bilan muloqotning yangi shakli – qiziqarli mavzularda muloqot qilish vujudga keladi va rivojlanadi. U dastlab kattalar bilan birgalikdagi bilish faoliyatiga (masalan, oʻyin, predmetlar va oʻyinchoqlar bilan tajriba oʻtkazish, qogʻozdan va tabiiy materialdan narsa yasash va boshq.) qoʻshilib ketgan, soʻngra, bola hayotining beshinchi yili oxiriga kelib muayyan vaziyat bilan bogʻliq boʻlmagan bilish mavzularidagi «nazariy» muloqot koʻrinishiga ega boʻladi. Bola hayotining toʻrtinchi yilida tengdoshi uning uchun eng avvalo, birgalikdagi amaliy faoliyat (rasm chizish, narsa yasash, tuzish va h.k.) ishtirokchisi, oʻyindagi sherik sifatida qolaveradi.

Bola tengdoshiga eng oddiy talablar, iltimoslar bilan murojaat qiladi va tengdoshining harakatiga baho beradi. Besh yoshli bolalar tengdoshlarining hadeb u yoki bu narsani soʻrab, jonga tegishini salbiy baholaydi. Besh yoshga kelib, tengdoshlari bilan muloqotga va ular bilan bolalar jamiyatini vujudga keltiradigan birgalikdagi oʻyinlarga boʻlgan ehtiyoj keskin ortadi. Bola hayotining beshinchi yiliga kelib, u oʻz tengdoshlari oʻrtasida oʻz oʻrnini anglay boshlaydi. Kommunikativ qoʻnikma rivojlanadi: bola salomlashadi va xayrlashadi, doʻstini ismini aytib chaqiradi, toʻrt-besh yoshlarga kelib – sherigini u oʻynayotgan rol nomi bilan chaqiradi («hoy, shofyor, arqon gʻildirakning tagiga tushib ketdi»). Kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish bolaga oʻzining «men»ini anglash imkonini

Uch yashar bola nutqini rivojlantirishga oid vazifalar:

- bolaning imkon doirasi va undan tashqaridagi nutq vositalari bilan faol muloqotga kirishishi, kattalarning savol va takliflariga javob berishi, oʻz istak xohishlari, hissiyotlari, fikrlarini ifoda qilgan holda tashabbus koʻrsatib fikr bildirishga intilishini qoʻllab-quvvat zarur;

- tengdoshlari ishlariga qiziqishi, oʻz taassurotlarini ular bilan oʻrtoqlashishni istashi, oʻyin harakatlari, roʻy berayotgan hodisaga munosabatini nutq bilan ifodalashga qiziqishini ragʻbatlantirish;

- bolangizning lugʻat zahirasini kishilar ( oʻsimliklar, oziq-ovqatlar, kiyim-boshlar, mebellar, uy hayvonlari, oʻyinchoqlar, narsa-buyum qismlari (koʻylak yengi, choʻntaklari va yoqasi; mashina eshigi va gʻildiragi kabilar) nomlari bilan boyitib boring. Gapda soʻzlarni bir-biriga toʻgʻri bogʻlashni (masalan, «Uyda ketdi» emas, «uyga ketdi», «Kecha boraman» emas, «Bugun boraman») oʻrgatishga alohida eʼtibor bering; bolalarni unli va undosh tovushlarni toʻgʻri talaff qilishga oʻrgating.

2. Kichik yoshdagi bolalar nutqini oʻstirishning metodik masalalari. Bolaning kattalar va tengdoshlari bilan muloqoti toʻlaqonli ijtimoiy rivojlanishning muhim shartidir. Shundan kelib chiqqan holda, bolada muloqotga intilish, muloqot boʻyicha sheriklarining talabiga javob



berish, ijtimoiy jihatdan o‘zini tutishga moslashuvchanlik va xushmuomalalilik kabi xislatlarni tarbiyalamoq zarur.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.O'zbekiston Respublikasining Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablar(2018yil 4iyul) 2. G.R Toxtasinova, T.I.
- 2.Ormonova (2005). Bolalarbogchasida intellectual psixologik oyinlar T.:(4-5)
- 3.BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASI, INNOVATSIYA VA INTERGATSIYA R. Mavlvanova N. Raxmankulova TOSHKENT « V ORIS-NASHRTYOT » 2013



## SANOQ SISTEMALARINI O‘RGATISHDA TARIXIY O‘QUV MATERIALLARIDAN FOYDALANISH

**Mixliyev Bekzod To‘ychi o‘g‘li,**

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Ta’limda axborot texnologiyalari mutaxassisligi magistranti  
(+998999579501, bekdzmixliyev1995@gmail.com)

**Tangirov Xurram Ergashevich**

Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi,  
(+998936502580, xurram\_t@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabda Informatika va axborot texnologiyalari faniga oid tushunchalarni, sanoq sistemalarini o‘rgatishda tarixiy o‘quv materiallaridan foydalanish haqida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Informatika va axborot texnologiyalari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sonlar, sanoq sistemalari, tarixiy ma’lumotlar, tarixiy masalalar.

Ta’lim jararoyinida maktab Informatika va axborot texnologiyalari fani mavzularini o‘qitishda ham tarixiy ma’lumotlar va tarixiy masalalarga duch kelinadi. Tarixiy manbalarning muhim aniqroq yodgorligi bizni ma’lumotlar, terminlarning paydo bo‘lishi, tushunchalarning rivojlanish tarixini anglatib turadi. Shu sababli, tarixiy masalalar va misollarni o‘qitishga o‘zgacha yondashish zarurdir. Biz bu mavzuni o‘rganishda undan mustaqil fikrlarni olish, tahlil qilish, tafsilotlarini tushuntirish va tavsif qilishimiz mumkin.

Bunda kamida uchta tegishli qism mavjud bo‘ladi - birinchisi, o‘quvchilarga tarixni ochiq tushuntirishda mustaqil ishlarni amalga oshirishlar, ikkinchisi, tarixiy misollarni yechishda ishlatiladigan barcha yordamlar va yangiliklarini tushuntirishlar, va uchinchi qism, tarixiy masalalarni ko‘rsatadigan misollar orqali o‘quvchilarni o‘yin o‘ynaydigan, jonli tarixiy misol va masalalar bilan tanishishga imkon beruvchi mashqlarni amalga oshirishlar.

**Muhammad bin Muso al-Xorazm** (taxminan milodiy 850 yilda tug‘ilgan) tenglamalar yordamida arifmetik masalalarni yechishning umumiy qoidalari haqida kitob yozgan. U “Kitob al-jabr” deb atalgan. Bu kitob algebra faniga o‘z nomini berdi.

Uch yuz yil o‘tgach (1120 yilda) bu kitob lotin tiliga tarjima qilindi va u barcha Yevropa shaharlari uchun "Hind" arifmetikasining birinchi darsligi bo‘ldi. Tarix nol.

Nol boshqacha. Birinchidan, nol - bo‘sh bitni ko‘rsatish uchun ishlatiladigan raqam; ikkinchidan, nol noodatiy son, chunki uni nolga bo‘lish mumkin emas va nolga ko‘paytirilganda har qanday son nolga aylanadi; uchinchidan, ayirish va qo‘shish uchun nol kerak, aks holda, 5 dan 5 ayirilsa, qancha bo‘ladi?

Nol birinchi marta qadimgi Bobil sanoq tizimida paydo bo‘lgan, u raqamlarda etishmayotgan raqamlarni belgilash uchun ishlatilgan, ammo 1 va 60 kabi raqamlar xuddi shu tarzda yozilgan, chunki ular sonning oxiriga nol qo‘ymagan. Ularning tizimida nol matnda bo‘sh joy vazifasini bajargan Buyuk yunon astronomi Ptolemeyni nol shaklining ixtirochisi deb hisoblash mumkin, chunki uning matnlarida fazo belgisi zamonaviy nol belgisini juda eslatuvchi yunoncha omikron harfi bilan almashtirilgan. Leonardo Fibonachchi o‘zining Liber abaci (1202) asarida arabcha zefirumda 0 belgisini chaqiradi. Zefirum so‘zi arabcha as-sifr so‘zi bo‘lib, u hindcha sunya, ya’ni bo‘sh, nolning nomi edi. Zefirum so‘zidan frantsuzcha nol (nol) va italyancha nol so‘zlari kelib chiqqan. Boshqa tomondan, arabcha as-sifr so‘zidan kelib chiqqan Ruscha so‘z raqam. 17-asrning o‘rtalariga qadar bu so‘z nolni bildirish uchun maxsus ishlatilgan. Lotincha nullus (yo‘q) so‘zi 16-asrda nol uchun ishlatilgan.

Nol - noyob belgi. Nol - sof mavhum tushuncha, insonning eng katta yutuqlaridan biri. Bu bizning atrofimizdagi tabiatda mavjud emas. Siz aqliy hisoblashda nolsiz ishonch hosil qilishingiz mumkin, ammo raqamlarni aniq qayd qilmasdan qilish mumkin emas. Bundan tashqari, nol boshqa barcha raqamlardan farqli o‘laroq, cheksiz dunyoni anglatadi. Va agar "hamma narsa raqam" bo‘lsa, unda hech narsa hamma narsa emas! Hozirda foydalanilayotgan bazalar:

10 - odatiy o‘nlik sanoq tizimi (qo‘lda o‘n barmoq). Alifbo: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 0.

60 - qadimgi Bobilda ixtiro qilingan: soatni 60 daqiqaga, daqiqani 60 soniyaga, burchakni 360 darajaga bo‘lish.



12 - Anglo-sakslar tomonidan taqsimlangan: bir yilda 12 oy, kuniga 12 soatdan iborat ikkita davr, oyoqda 12 dyuym.

7 - haftaning kunlarini sanash uchun ishlatiladi.

Oldin mavjud bo'lgan va bizning davrimizda qo'llaniladigan turli xil sanoq sistemalarini nopozitsion va pozitsion tizimlarga bo'lish mumkin.

Sanoq sistemasining pozitsion xossasi nimani anglatishini har qanday ko'p xonali o'nlik son misolida tushunish oson. Masalan, 333 raqamida birinchi uchtasi uch yuz, ikkinchisi - uch o'nlik, uchinchisi - uchta birlikni anglatadi. Xuddi shu raqam, raqamning yozuvidagi pozitsiyasiga qarab, turli qiymatlarni anglatadi.

$$333 = 3 \cdot 100 + 3 \cdot 10 + 3.$$

Bu shuni ko'rsatadiki, har qanday o'nlik sonni tashkil etuvchi raqamlarning ko'paytmalari yig'indisi sifatida o'nning mos darajalari bilan ifodalanishi mumkin. Xuddi shu narsa o'nli kasrlarga ham tegishli.

$$26.387 = 2 \cdot 10^1 + 6 \cdot 10^0 + 3 \cdot 10^{-1} + 8 \cdot 10^{-2} + 7 \cdot 10^{-3}.$$

Shubhasiz, "o'n" soni pozitsion tizim uchun yagona mumkin bo'lgan asos emas. Mashhur rus matematigi N. N. Luzin buni shunday ta'kidlagan edi: "O'nlik sanoq sistemasining afzalliklari matematik emas, zoologikdir. Agar qo'limizda o'nta emas, sakkizta barmoq bo'lsa, insoniyat sakkizta tizimdan foydalanadi.

Pozitsion sanoq sistemasining asosi sifatida 1 dan katta har qanday natural son olinishi mumkin. Yuqorida tilga olingan Bobil sistemasining asosi 60 ga teng edi. Ushbu sistemaning izlari hozirgi kungacha vaqt birliklarini sanash tartibida (1 soat =) saqlanib qolgan. 60 daqiqa, 1 daqiqa = 60 soniya).

Raqamlarni n asosli pozitsion tizimda yozish uchun siz n ta raqamdan iborat alifboga ega bo'lishingiz kerak. Odatda buning uchun, n uchun < 10 birinchi n arab raqamlaridan foydalanadi va n > 10 uchun o'nta arab raqamlariga qo'shiladi.

Mana bir nechta tizimlardan alifbo misollari:

Raqam tegishli bo'lgan tizimning asosi odatda ushbu raqamning pastki belgisi bilan ko'rsatiladi: 101101<sub>(2)</sub>, 3671<sub>(8)</sub>, 3B8F<sub>(16)</sub>.

Turli xil pozitsion sanoq sistemalarida natural sonlar qatori qanday tuzilgan? Bu o'nlik kasr tizimidagi kabi printsip bo'yicha sodir bo'ladi. Birinchi navbatda bitta raqam, keyin ikki raqamli, keyin uch raqamli va hokazo.

Sanoq tizimi - bu raqamlarni yozishning ma'lum bir usuli va raqamlar bilan ishlashning tegishli qoidalari.

Sanoq sistemalari pozitsion va nopozitsion. Pozitsiyali bo'lmagan tizimga misol sifatida raqamlarning rim yozuvini keltirish mumkin. Pozitsion sanoq sistemasida har bir raqamning miqdoriy qiymati raqamdagi raqamning o'rniga bog'liq. Sanoq sistemasining alifbosi - unda ishlatiladigan raqamlar to'plami. Sanoq tizimining asosi alifbo kuchiga (raqamlar soni) teng.

Pozitsion sanoq sistemasining mumkin bo'lgan eng kichik bazasi 2. Bunday sistema ikkilik sistema deyiladi. Arab raqamlarini yozish tizimi o'nlik, pozitsion.

Xulosa qilib aytganda, maktabda Informatika va axborot texnologiyalari faniga oid tushunchalarni, sanoq sistemalarini o'rgatishda tarixiy o'quv materiallaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boltayev B.J. va boshqalar. Informatika: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. — Qayta ishlangan va to'ldirilgan uchinchi nashri. — T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. — 88 b.

2. <https://marbellamar.ru/uz/enciklopediya/istoriya-vozniknoveniya-chisel-i-sistemy-schisleniya-istoricheskoe/>.



## HARBIY JAMOANI JIPLASHTIRISHDA OFITSERLAR FAOLIYATINING O‘RNI VA ROLI.

**Mominbekov Mehriddin Dilshodovich**

(BuxDPI Harbiy ta’lim fakulteti 2-bosqich talabasi)  
mehriddin01@mail.ru (97) 545-26-62.

**Mominbekov Zuxriddin Dilshod o‘g‘li**

(BuxDPI Harbiy ta’lim fakulteti 2-bosqich talabasi)  
zuxriddin02@mail.ru (90) 022-24-68.

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Harbiy jamoa uning a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, o‘zini tutishning o‘ziga xos qoidalari va me’yorlari asosida tashkil topishi, rivojlanishi haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Jamoa, guruh, shaxs, muhit, individual, jamiyat, xulq, axloq, o‘zaro munosabat, Umumharbiy Nizom, jamoatchilik fikri, kayfiyat.*

Shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyat jamoada kattaroq bo‘ladi. Faqat jamoadagina shaxsning har tomonlama rivojlanishi, o‘z iste’dodini ko‘rsata olishi uchun sharoit mavjud. Jamoa har bir kishining kuchini oshiradi va mehnat jarayonida har bir shaxsning individual ishchanligini oshiruvchi hayotiy kuch-g‘ayrat paydo bo‘ladi.

Jamoa o‘zaro ishonch, g‘oyaviy birdamlik va jamoatchilik muhitida insonlarning o‘zaro yaqinlashuvi sharoitida vujudga keladi. Jamoa axloqi egoizm, xudbinlik bilan mos kelmaydi, faqat o‘z manfaatlarini o‘ylash jamoaga muvofiq emas, jamoa umumxalq va shaxsiy manfaaatlar, mehnat kishisining insonparvarligi va chin ma’nodagi insonlar orasidagi o‘zaro munosabatlari, mehribonlik, to‘g‘rilik, oddiylik va kamtarlik, shaxsiy va jamiyat hayotida faol axloqiy faoliyat, insonni yangi mehnat va ijodiy yaratuvchanlikka undovchi, barcha yomon illatlarga, yot xususiyatlarga teskari turuvchi insonlar guruhidir.

Har bir inson qandaydir bir jamoa a’zosi. Jamoa uning tarkibiga kiruvchi har bir insonga doimiy ravishda ta’sir qiladi. O‘z navbatida har bir jamoa a’zosi ham jamoadoshlariga va umuman jamoaga ta’sir ko‘rsatadi. Bu o‘zaro ta’sir jamoa psixologiyasida namoyon bo‘ladi. Harbiy jamoa - bu jamoa ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. U jamoada yashovchi shaxsiy tarkibning ijtimoiy-g‘oyaviy, psixologik muhitini namoyon etadi, jangchilarning ma’naviyati va jangovar mahoratini shakllantiradi. Harbiy jamoa tarkibi doimiy ravishda o‘zgarib turadi. U o‘z xususiyatlarini saqlab qolishi uchun unga yangidan qo‘shilayotgan kishilar jamoatchilik, g‘oyaviylik va axloqiylik tuyg‘ularini egallagan bo‘lishi zarur. Shundagina harbiy jamoaga bu insonlarning qo‘shilishi jamoa jipligini susaytirmaydi.

Harbiy jamoaga kirishda zaruriy tayyorgarlikni har bir inson avvalo maktabdan oladi. Shuning uchun ham harbiy rahbar o‘quvchilarni harbiy xizmatga tayyorlashda harbiy jamoaning barcha xususiyatlarini inobatga olishi shart.

Harbiy jamoa boshqa jamoalardan o‘z oldiga qo‘ygan vazifasi hamda ona Vatanni qurolli himoya qilishi bilan farq qiladi. Bo‘linma jamoasi uning a’zolari o‘zlari oldiga qo‘yilgan vazifalarni chuqur anglasalargina, haqiqiy harbiy jamoa hisoblanadi. Harbiy jamoaning o‘ziga xos xususiyatlari shu bilan bog‘liqlik, u o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni dushmanga nisbatan kuch ishlatish, qurol-yarog‘lar va harbiy texnikalardan foydalangan holda amalga oshiradi. Shunga muvofiq, harbiy jamoada jamoaning har bir a’zosi o‘zida faqatgina mardlik, qat’iylik, bardoshlilik, matonatliknigina emas, balki harbiy texnika va qurol-yarog‘lardan foydalanishning uquv va malakalarini ham puxta egallagan bo‘lishlari shart.

Harbiy jamoa uning a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar va o‘zini tutishning o‘ziga xos qoidalari va me’yorlari asosida tashkil topadi va rivojlanadi. Bu qoida va me’yorlar faqatgina kundalik xizmat talablaridan emas, balki jangovar faoliyat ehtiyojlaridan ham kelib chiqadi. Ular Umumharbiy Nizomlarda ifodalangan.

Harbiy jamoaning barcha a’zolarida qismga, uning bayrog‘iga, quroldosh do‘stlariga, boshqa bo‘linmalar, qismlar, qo‘shin turlari va hamdo‘stlik armiyalari jangchilariga, dushmanga nisbatan ma’lum bir munosabatlar paydo bo‘ladi. Bu munosabatlar harbiy etika me’yorlarini tashkil etadi, ularsiz barcha jangchilar, jamoa harbiy muhitga ega bo‘la olmaydi. Agar bo‘linma jangchilarida harbiy qasamyodga va o‘z burchiga sodiqlik, an’analarga hurmat, dushmanga nisbatan nafrat



tuyg‘ulari bo‘lmasa, bunday jamoa o‘z oldiga qo‘yilgan jangovar vazifalarni bajarishga tayyor bo‘lmaydi.

Harbiy jamoa quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

- g‘oyaviy intilishning, ishonch va e‘tiqodning umumiyligi. Jangchilarning ilmiy dunyoqarashi qanchalik kuchli va chuqur bo‘lsa, ular shunchalik ko‘prok jamoada rivojlanadi;
- jangchilarning xulq-atvorini boshqaruvchi axloqiy me‘yorlarning umumiyligi. Jangchilar uchun bu me‘yorlar umumharbiy Nizomlarda mustahkamlanadi;
- ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan hamkorlikdagi faoliyat;

jamoaning har bir a‘zosida harbiy mahoratning yoki uni egallashga intilishning mavjudligi.

Jamoaning g‘oyaviy ishlari undagi jamoatchilik fikri, kayfiyati va o‘zaro munosabatlarning shakllanishiga sezilarli ta‘sir qiladi. Bu esa ijtimoiy psixologik muhitning yig‘indisini tashkil qiladi. Ulardan jamoaning salohiyatligi kelib chiqadi. Harbiy jamoalardagi sog‘lom fikrlar, kayfiyat, o‘zaro munosabatlar manbalarini maktablarda o‘tkaziladigan tarbiyaviy ishlar darajasidan izlash lozim. Jamoaning psixologik tuzilmasi, tabiati haqidagi ma‘lum axborotlarni harbiy rahbar jamoadan oladi. Jamoatchilik fikri - jamoa a‘zolarining ratsional baholash tizimi bo‘lib, me‘yoriy ta‘sirga egalik va sezilarli qo‘zg‘atuvchi kuchga ega bo‘ladi. Aniqlik, oshkorlik, emotsionallik, uzluksizlik, jamoatchilik fikrining talabchanligi har bir inson tuyg‘ulari va irodasiga ta‘sir qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI .**

1. Satibaldiyev A., Karimjonov A. «Harbiy pedagogika» nashriyoti, TDPU Toshkent 2005 y.
2. Abduqodirov A.S., Ahmedov G‘. Harbiy xizmat axloqi. O‘quv qo‘llanma Sharq nashriyoti Toshkent 2007 y.
3. Nasriddinov Ch.R. «Harbiy psixologiya va pedagogika» nashriyoti, TDPU Toshkent 2008 y.



**BADIIY ADABIYOT VOSITASIDA BOLALARDA TOLERANTLIK  
XUSUSIYATLARNI SHAKLLANTIRISH**

**Najmiddinova Gulira'no Mahammadamin qizi**

Namangan Davlat Universiteti Ta'lim tarbiya  
Nazaryasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim)  
2-bosqich magistranti. Tel.: 770124002

**Annotatsiya:** Maqolada badiiy adabiyot vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlash va tolerantlik xususiyatlarni shakllantirishning mazmuni, oziga xos xususiyatlari va usullari xususida so'z yuritiladi.

**Kalit sozlar:** Shakllantirish, tolerantlik, nutq, badiiy adabiyot, maktabgacha yoshdagi bolalar, fikrlash faolligi, axloqiy, estetik, rivojlanishi, xususiyatlar.

Mamlakatimizda so'z erkinligini ta'minlash, axborot va ommaviy kommunikatsiyalar sohasini boshqarish tizimini qayta tashkil qilish, ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy rivojlanishning muammoli masalalarini hal etishda ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirildi. ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etish bo'yicha jamiyat ehtiyojlari axborot sohasidagi ishlarni sezilarli darajada oshirishni, davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari, ommaviy axborot vositalarining faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda. Shu bilan birga, sohadagi hozirgi holat tahlili media makonda yuzaga kelayotgan chaqiriqlarga tezkorlik bilan munosib javob qaytarilmayotganini ko'rsatib, mamlakatda amalga oshirilayotgan ulkan miqyosdagi islohotlar to'g'risidagi keng qamrovli Maktabgacha ta'lim pedagogikasining milliy asoslari: ta'lim tarbiya masalalari, har bir millatning milliy merosiga, umumiy bashariy qadriyatlariga bog'langan holda bog'cha yoshidan boshlab o'zligini anglash, erkin fikrlash, g'urur tuyg'ularini shakllantirishga qaratiladi. Nutq madaniyati ko'p qirrali hodisa, uning asosiy natijasi adabiy til me'yorlariga muvofiq gapirish qobiliyatidir; ushbu kontseptsiya aloqa jarayonida fikrlar va histuyg'ularni aniq, aniq va hissiy tarzda uzatishga yordam beradigan barcha elementlarni o'z ichiga oladi. Nutqning to'g'riligi va kommunikativ maqsadga muvofiqligi adabiy tilni o'zlashtirishning asosiy bosqichlari hisoblanadi.

Badiiy adabiyot maktabgacha yoshdagi bolaning nutqni rivojlantirish va boyitishga ulkan ta'sir ko'rsatadigan bolalarning aqliy, axloqiy va estetik tarbiyasining kuchli ta'sirchan vositasidir. U his-tuyg'ularni boyitadi, tasavvurni kuchaytiradi, bolaga o'zbek adabiy tilining ajoyib namunalarini beradi. Badiiy adabiyot bolaga jamiyat va tabiat hayotini, odamlarning hissiyotlari va munosabatlar dunyosini ochadi va tushuntiradi. Bu bolaning tafakkuri va tasavvurini rivojlantiradi, his-tuyg'ularini boyitadi va o'zbek adabiy tilining ajoyib namunalarini beradi. Uning tarbiyaviy, kognitiv va estetik ahamiyati beqiyosdir, chunki bolaning atrofdagi dunyo haqidagi bilimlarini kengaytirish, ona tilining shakli va ritmini nozik his qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Badiiy adabiyot insonga hayotining birinchi yillaridanoq hamroh bo'ladi.

Bolaning ongida adabiy asar mazmun va badiiy shakl borligida paydo bo'ladi.

Bola bunga tayyorlangandagina adabiy asarni idrok etish to'liq bo'ladi. Va buning uchun bolalarning e'tiborini nafaqat mazmuniga, balki ertak, hikoya, she'r va boshqa badiiy asarlar tilining ifodali vositalariga ham jalb qilish kerak. Hikoyalarda bolalar so'zning ixchamligi va aniqligini o'rganadilar; xalq ertaklarida, tilning yengilligi va ta'sirchanligini, hazil bilan nutq boyligini, jonli va obrazli iboralar, taqqoslashlar bolalar oldida ochib beradilar.

Badiiy adabiyot qahramonning shaxsiyati va ichki dunyosiga qiziqish uyg'otadi.

Bolalarda insonparvarlik tuyg'ulari uyg'onadi - ishtirok etish, xushmuomalalik, adolatsizlikka qarshi norozilik qobiliyati. Asta-sekin bolalar adabiy asarlarga ixtirochilik munosabatini rivojlantiradi va badiiy did shakllanadi.

Harakatlari tushunarsiz bo'lib qolishini tushunmasdan, o'sha so'zlarning ma'nosini tushuntirish kerak. Tushuntirishlar boshqacha: nasr o'qiyotganda boshqa so'zni almashtirish, sinonimlarni tanlash; o'qituvchiga o'qishdan oldin, bolalarni rasm bilan tanishtirish paytida so'zlar yoki so'z birikmalaridan foydalanish; so'zning ma'nosi haqida bolalar uchun savol va boshqalar.

Xulosa ornida takidlash lozimki, badiiy adabiyotni xulq-atvorni o'rganish yani tolerantlik vositasi sifatida ishlatgan holda, tarbiyachi insoniy tuyg'ular va axloqiy g'oyalarni yani tolerantlik xususiyatlarni shakllantirish uchun asarlarni tanlash va badiiy asarlar bo'yicha suhbatlar



o'tkazish uchun alohida e'tibor berishi kerak.

#### REFERENCES

1. M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. Darslik. 2010 yil.
2. M.Jumaboyev. O'zbek va jahon bolalar adabiyoti. Qo'llanma. 1996 y.
3. Z. Masharipova T.Matyoqubova O'zbek yozma adabiyotida folklor an'analari Toshkent – 2011
4. www.ziyonet.uz. Bolalar adabiyoti
5. Paul H. Fry. Theory of literature



ТА’ЛИМДА INNOVATION TEXNOLOGIYALAR

**Xakimova Muhabbat Fayziyevna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Innovatsion ta’lim”

kafedrası mudiri, p.f.d.,

**Ne’matova Mavsuma Ulug’bek qizi**

Raqamli iqtisodiyot fakulteti 2-kurs talabasi,

**To’kumbetov Og’abek Shavkat o’g’li**

3-kurs talabasi

+998938560634

zulxumor.nematova@bk.ru

**Annotatsiya:** Maqolada ta’lim tizimida jamiyatimizdagi kadrlarning zamonaviy texnologiyalardan foydalanishi, o’qitishda innovatsion usublarning tutgan o’rni hamda ta’limni texnologiyalashtirish maqsadida olib borilayotgan ishlar ilmiy jihatdan yoritib berilgan.

**Kalit so’zlar:** Innovatsiya, Virtual haqiqat, innovatsion loyihalar, ta’lim, 3D chop etish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogik texnologiya, ta’lim berishning texnik vositalari.

Ta’limdagi innovatsion faoliyat ta’lim sohasidagi innovatsiyalarning paydo bo’lishiga qaratilgan kompleks faoliyatni o’z ichiga oladi. Bu innovatsiyalar ta’lim jarayonini tashkil etishning usul va usullari, ta’lim va tarbiya jarayonida foydalaniladigan resurslar, ilmiy nazariyalar va tushunchalar bo’lishi mumkin.

Hozirgi davr ta’lim taraqqiyoti yangi yo’nalish - innovatsion faoliyatni maydonga olib chiqmoqda. Shuningdek, ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o’quv jarayonida qo’llashga bo’lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo’lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o’quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o’rgatilgan bo’lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o’zlari qidirib topishlariga, mustaqil o’rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o’zlari keltirib chiqarishlariga o’rgatadi. O’qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo’naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-6097-sonli farmoni va 2021-yil 1-apreldagi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo’yicha davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish to’g’risida”gi PF-6198-sonfarmonlarida belgilangan bandlarni amalga oshirish maqsadida, bugungi kun o’qituvchisi o’z ustida tinimsiz ishlaydigan, har tomonlama keng fikrlaydigan, ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalarini samarali qo’llay oladigan ijodkor shaxsga, yoshlarni yuragiga chuqur kirib boradigan yuksak fazilatlar egasiga aylanishi lozim. Axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bir davrda o’quv shakli dars mashg’ulotlarining tuzilish tarkibiga ham o’z ta’sirini ko’rsatmoqda. Bundan anglash mumkinki, ta’limda ish boruvchi pedagoglarimiz ham o’z ish faoliyatlarini bu innovatsiyalar bilan hamohang holda shakllantirishmoqda. Ular uchun xilma-xil ekranli tovushli apparatlar, diagrafoproektorlar, videomagintofonlar, television qurilmalar, elektron hisoblash mashinalari, bilimlarni nazorat qilish uchun dasturlashtirilgan qurilmalar, trenajyorlar, kompyuterlar, media apparaturalar va boshqalar ishlab chiqarilmoqda.

Dars jarayonlariga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish talabalarning fan sirlarini puxta egallashlariga keng yo’l ochadi. Ularning dunyoqarashini kengaytirib, intellektual salohiyatini oshiradi. Ana shunday innovatsion texnologiyalardan biri bu PLICKERS dasturidir. O’qitish jarayonlarida mazkur dasturdan foydalanayotgan pedagog sifatida talabalarning bilim olish samaradorligi yuqorilayotganligining guvohi bo’lish mumkin. Chunki mazkur dastur talabani o’tilgan mashg’ulotlar va uyga berilgan vazifalarni chuqur o’zlashtirishiga keng imkoniyat yaratadi. Bu dasturning ta’lim jarayoniga tadbiiq etilishi har bir talabani bilim darajasini sezilarli oshirish barobarida ularning dunyoqarashini kengaytiradi.

E’tiborli tomoni shundaki, dastur nihoyatda sodda va qulay. PLICKERS dasturini dars jarayoniga tadbiiq etish alohida kompyuter sinfi yoki talabalarni boshqa jihozlar bilan ta’minlashga ehtiyoj tug’dirmaydi. Mashg’lot o’qituvchining plansheti yoki mobil telefoni orqali boshqariladi.



Bu o'quvchilar uchun ham juda qiziqarli. Chunki dars jarayonida berilgan savollarga kim tez va to'g'ri javob topishi kabi o'yin elementlari paydo bo'ladi. Mazkur dastur bo'yicha dars o'tmoqchi bo'lgan o'qituvchi smartfon yoki telefoniga internet tarmog'idan PLICKERS mobil ilovasini yuklab olishi kerak. Ushbu ilovaning afzalligi shundaki, o'qituvchining planshetiga o'rnatilgan mobil ilova o'quvchilarga tarqatilgan qog'oz kartalaridagi QR (Quisk Response-inglizcha tezkor javob mazmunini anglatadi) kodlarni o'qiydi. O'qituvchi proyektori bo'lgan kompyuter orqali o'quvchilarga savol yo'llaydi. So'rov ohirida uning natijasi ekranda paydo bo'ladi. PLICKERS texnologiyasidan foydalangan holda darslarni tashkil etish samarali natijalar bera boshladi. Mazkur dastur bir vaqtning o'zida butun guruh talabalarining bilim darajasini aniqlab, guruhning umumiy o'zlashtirishini shaffof tarzda, o'sha daqiqaning o'zida ekranda 219 namoyon etadi. Bu usul talabalarda katta taassurot qoldirib, dars jarayonida ularning faolligini oshiradi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan “Innovatsion rivojlanish yo'lidan o'tmoqdamiz”, bu bejiz emas, albatta. Chunki, zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi”.

Mamlakatimizda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan Hemis – ta'limni boshqarish axborot tizimi amalda joriy etilgani ta'limni yana bir pog'ona yuksalganidan dalolat beradi. Hemis axborot tizimi oliy ta'lim muassasalarining asosiy faoliyatini avtomatlashtirish hisobiga ma'muriy xodimlar, professor-o'qituvchilar va talabalarga electron ta'lim xizmatlarini taqdim etadi. Axborot tizimi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi o'rtasida axborot ko'prigi vazifasini o'taydi hamda oliy ta'lim muassasalaridan olinadigan turli xil ma'lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularning qog'oz shaklidan voz kechish va boshqaruv tizimini raqamlashtirishga xizmat qiladi. Tizimdan foydalanuvchi talaba sifatidagi fikrim, bu tizim, nafaqat, qog'ozbozlikni tugatish, balki shu bilan birgalikda, asosiy vaqtimizni mustaqil ta'lim, bilim olish va ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanishimizga imkon yaratmoqda.

Bundan tashqari, texnologiya iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida katta o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu o'zgarishlar sog'liqni saqlash sohasida, moliyaviy dunyoda, o'yinkulgida va hatto hukumatda sezildi. Yaxshi xabar shundaki, bu o'zgarishlar dunyoni yaxshiroq joyga aylantiradi! Ushbu uzilishdan zarar ko'rgan asosiy tarmoqlardan biri bu ta'limdir. Bu yangiliklar o'quv xonalariga yangicha ko'rinish berib, darslarni o'tkazish usullarini o'zgartirdi. Mana, ta'limda katta o'zgarishlarga olib keladigan oltita eng yaxshi texnologik innovatsiyalar.

1. **Ta'limda Virtual haqiqat (VR).** Virtual haqiqat texnologiyasi allaqachon texnologiya olamidagi eng issiq narsadir. Yirik kompaniyalar Google, Sony, Oculus (Facebook tomonidan qo'llab-quvvatlanadi), Samsung va boshqalarni o'z ichiga olgan ushbu texnologiya uchun shafqsiz urushga tayyorlanmoqda. VR texnologiyasini qo'llash sohalaridan biri bu ta'limdir.

2. **Sun'iy intellekt va mashinani o'rganish.** Sun'iy intellekt texnologiyaning barcha darajalarida, eng pastdan eng ilg'or darajalarigacha qo'llaniladi. Talabalar, ayniqsa, alohida ehtiyojga ega bo'lganlar o'rtasida shaxsiylashtirilgan ta'limni yaxshilash uchun foydalaniladi.

3. **3D bosib chiqarish.** 3D printerlar allaqachon ta'lim sohasida to'lqinlarni keltirib chiqarmoqda va talabalar ularni yaxshi ko'rishmoqda. Ushbu bosib chiqarish texnikasi orqali talabalar murakkab deb hisoblangan narsalarni yaxshiroq tushunishlari mumkin. Turli texnologik firmalar o'rtasidagi keskin raqobat texnologik innovatsiyalar tezligini tezlashtiradigan yana bir omildir. Ta'limning kelajagi shubhasiz porloq!

Ushbu keltirilgan zamonaviy metodlar, yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar talabalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo'lishlariga, hamda mutaxassislarga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimidagi pedagogik texnologik muammolarga yechim aniqlash uchun inovatik fikrlash, axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanib yangi ma'lumotni o'zlashtirish va egallangan axborotni o'zlari tomonidan baxolashga qodir o'quvchi va talabalar kerak deb o'ylayman. Shuning uchun ham, muassasalarining o'quv – tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish usullari–interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarni o'rni hamda ahamiyati beqiyosdir.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni–Toshkent: PF-6097-son.
2. Sh. Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz . –Toshkent: “O`zbekiston” 1-jild .NMIU, 2017-592-bet.
3. <https://serviceproekt.ru/uz/uslugi/klassifikaciya-innovacii-prezentaciya-na-temuinnoyatsionnye/> © serviceproekt.ru
4. Pedagogik texnologiya: muammo va istiqbollar (zamonaviy pedagogik texnologiyaning ilmiy-nazariy asoslari).Mualliflar guruhi./T.:OO\_MQHTRM, 320-bet;
5. Абдулхаева Ф. Применение информационных технологий в изучении языков является фактором эффективности. "Экономика и социум" №12(91) 2021 www.iupr.ru



## PSIXOLOGIYA TARIXI

**Nurjonova Nozokat Matnazarovna Xorazm**  
viloyati shovot tumani 32-son maktab psixologi.

Email: nazokatnurjonova32@umail.uz

**Yusupova Iroda Xayitboyevna**

Xorazm viloyati Urganch shaxar

17-son maktab psixologi.

Email: irodayusupova17@umail.uz

**Annotatsiya:** ushbu maqolada psixologiya fani kelib chiqish tarixi va fan sifatida rivojlanish yo'llari, uning asosiy maqsad va vazifalari va qanday ahamiyatlarga ega ekanligi haqida mulohazalar yuritiladi.

Psixika voqelikning kishi miyasida aksi sifatida har xil darajalar bilan farqlanadi. Psixikaning odamga xos bo'lgan oliy darajasi ongni tashkil etadi. Ong psixikaning uni yaxlit bir holga keltiruvchi shakli bo'lib kishining mehnat faoliyatida, boshqalar bilan til yordamida muloqot qilish jarayonida shakllanishini ijtimoiy tarixiy shartsharoitlari natijasi hisoblanadi. SHu ma'noda ong marksizm klassiklarining ta'kidlashicha ijtimoiy mahsul bo'lib anglagan borliqdan buyuk boshqa narsa emasdir. Ongning strukturasi tuzilishi, uning muhim psixologik ta'rifi qanday.

Uning **birinchi ta'rifi**-nomining o'zidayoq berilgan bo'lib, ong deganidir.

Kishining ongi bizning tevarak atrofimizni qurshab turgan olam haqidagi bilimlar majmuasidan tarkib topdi. K.Marks. «**Ongning yashash usuli va ong uchun nimaningdir borligi bilimdir**». deb yozgan edi. Ongning strukturasi muhim bilish jarayonlari kiradi. Ular yordamida odam o'z bilimlarini doimo boyitib boradi. Bu jarayonlar qatoriga sezgilar va idrokni, xotirani, xayol va tafakkurni qo'shish mumkin. Sezgilar va idrok yordamida miyaga ta'sir etuvchi kuzatuvchilarning bevosita aks etishi natijasida ongda borliqning o'sha momentda kishi tasavvurida hosil bo'lgan hissiy manzarasi gavdalanadi. Xotira ongda o'tmish obrazlarini qaytadan gavdalantiradi. Xayol ehtiyoj ob'ekti bo'lgan ammo hozirgi paytda yo'q narsaning obrazli modelini hosil qiladi. Tafakkur umumlashgan bilimlardan fodalangan yo'li bilan masalaning hal etilishini ta'minlaydi. Aytib o'tilgan psixik bilish jarayonidan istalgan birining batamom barbod bo'lishiga olib keladi.

**Ongning ikkinchi ta'rifi** unda sub'ekt bilan ob'ekt o'rtasida aniq farqlanishni o'ziga ifodasini topishi, ya'ni odam «**men**» degan tushunchaga nima tegishli ekanini aniqlaydi. Tirik organizmlar duysi tarixida birinchi bo'lib unda ajralib chiqqan va o'zini atrof-muhitiga qarama qarshi qo'ygan inson o'z ongida ushbu arama-qarshilik va tafovutni saqlab kelmoqda. Jonli mavjudotlar ichida uning o'ziga o'zini bilishga ya'ni psixik faoliyatini o'zini tadqiq etishga yo'naltirishga qodirdir. Odam o'z hatti harakatlarini va umuman o'zini o'zini ongli ravishda baholaydi. «Men»ning «men emas» degan ajratish har bir kishi kishi bolaligida boshdan kechiradigan yo'l bo'lib, uni o'zidan o'zi anglashi jarayonida yuz beradi.

**Ongning uchinchi ta'rifi**-odamning maqsadini ko'zlovchi faoliyatini ta'minlashdir. Faoliyatning maqsadlarini yaratish ongning funksiyasiga kiradi.

Bunda faoliyat motivlari yuzaga keladi va chamalab chiqiladi. Irodaviy qarorlar qabul qilinadi. Harakatlarni bajarishning qanday borishi hisobga olinadi. Unga tegishli tuzatishlar kiritiladi va hakazo.

K.Marks «**kishi tomonidan berilgan narsaning formasini o'zgartirish bilangina cheklanmaydi, tabiat tomonidan berilgan narsalar bilan birga o'zining ongli maqsadini ham amalga oshiradi. Bu maqsad qonun sifatida kishining ish usulini va bu ishning harakterini belgilab beradi va kishi o'z irodasini ana hu maqsadga bo'ysundirish lozim**» deb ta'kidlagan edi.

Maqsadni ko'zlovchi faoliyatni amalga oshirishda va yo'nalishida kasallik oqibatida yoki bironbir boshqa sabablarga ko'ra har qanday buzilishning yuz berishini ongning buzilgani deb qaramoq kerak.

**Ongning to'rtinchi ta'rifi**-uning tarkibiga muayyan munosabatning kirganligidir. «**Mening o'z muhimimga bo'lgan munosabatim mening ongimdir**» deb yozgan K.Marks.

Kishi ongiga muqarrar ravishda his-tuyg'ular olami kirib keladi, unda murakkab ob'ektiv eng avvalo o'zi ham jalb etilgan ijtimoiy munosabatlar o'z aksini topadi. Bu o'rinda esa (jalb etilgan) ijtimoiy boshqa ko'pgina hollarda bo'lgani kabi potologiya normal ongni mohiyatini anglab olishga yordam beradi.



Ayrim ruhiy kasalliklarga chalinganda ongning buzilganligi aynan his-tuyg'ular va munosabatlar sohasidagi buzilish bilan belgilanadi:

Bemor bunga qadar behad yaxshi ko'rgan onasini suymaydigan bo'lib qoladi. YA'ni kishilar to'g'risida zarda bilan gapiradi va hakazo.

Ongning yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha o'ziga xos xususiyatlari va shaklanishi namoyon bo'lishining muqarrar sharti til hisoblanadi. Nutq jarayoni faoliyatida odam bilimlar hosil qiladi. Kishi dunyoga kelgunga qadar uning uchun insoniyat yaratib bergan tilda mustahkamlab unga etkazgan inson tafakkuri, boyliklari bilan o'z hayotini boyitadi. A.I.Gertsen shunday deb yozgan edi: «Har bir kishi ildizlari sal bo'lsa ham odam ato zamonlariga borib etadigan dahshatli shajaratayanaadi: sohil bo'yidagi to'lqin kabi orqamizda butun boshli okeanbutun bir dunyo tarixining shiddati his etiladi:shu daqiqada bizning miyamizda barcha asrlarning g'oyalari...til, alohida ob'ektiv, sistematik unda ijtimoiy tarixiy tajriba yoki ijtimoiy ong aks etgandir. Kokret odam tomonidan o'zlashtirilgan ekan, til ma'lum bir ma'noda uning real ongi bo'lib qoladi.»

Ulug' mutafakkirlar – «*Til amaliy, haqiqiy ongdir, boshqalar uchun ham mavjud bo'lgan xuddi shu tufayli men uchun ham mavjud bo'lganongdir...*» deb qayd etgan edi. Ong tushunchasi psixologiyada.Psixotriada va boshqa fanlarda uning yuqorida keltirilgan asosiy ta'riflarga mos keladigan ma'noda ishlatiladi.

Psixiadorlarning bemorda ong bor yoo'qligi, yo bo'lmasa buzilganligi masalalari doim qiziqtiradi, shu tufayli ular ong deganda bemorning o'z-o'ziga qaerdaligi, vaqt qachonligi, tevarak-atrofdagi vaziyat qandayligi to'g'risida o'z shaxsiy holati ham harakatlari haqida hisob berish imkoniyatlarini tushunadilar.

**Ongsizlik**-bu kishining xuddi ong kabi o'ziga xos psixik qiyofasidirki, u kishi miyasida borliqning etarli darajada bir xil bo'lmagan qismiga aksi tarzida inson hayotining ijtimoiy shart-sharoitlari bilan bog'liq holda bo'lgandir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Kaykovus. Qobusnoma. -T.:O'qituvchi, 1986 y.
2. Zunnunov A. O'zbek pedagogikasi tarixi. -T.: O'qituvchi, 1997 y. -272 b.



## BOLALAR DIALOGIK NUTQINI O‘STIRISHDA TARBIYACHIGA QO‘YILGAN TALABLAR

**Qambarova Naziraxon Barxonovna**  
Namangan viloyati PYAMO‘MM o‘qituvchisi.  
Tel: 90- 154-11-12

**Annotatsiya:** maqolada bolalarni dialogik nutqini o‘stirishda tarbiyachiga qo‘yilgan talablar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Pedagog, muloqot, dialogik nutq, to‘g‘ri talaffuz.

Pedagog o‘z nugaqiga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lishi va unda kamchilik borligini sezsa, uni darhol bartaraf etishga intilmog‘i lozim.

Biroq, o‘z dialogik nutqining kamchiligini aniqlash har doim ham oson kechmaydi, chunki muloqot jarayonida so‘zlovchining diqqat-e‘tibori eng avvalo nutqning shakliga emas (qay tarzda aytish), balki uning mazmuniga (nimani aytish) qaratilgan bo‘ladi. Bundan tashqari, o‘z dialogik nutqiga nisbatan beparvolik bilan munosabatda bo‘lish natijasida ayrim kamchiliklar tilga qattiq o‘rnashib qolishi va keyinchalik so‘zlovchi uni sezmay qolishi mumkin. Masalan, nutqning shoshqaloqligiga, tushunarsizligiga, bir ohangdaligi (monotonligi), ovoznining kuchliligi, ayrim tovushlar, so‘zlarni noaniq talaffuz qilish kabi nuqsonlar sezilmasdan qoladi.

O‘z dialogik nutqining nomukammalliklari haqida bilish uchun pedagog o‘rtoqlarining mulohazalariga quloq tutishi darkor. Ochiq mashg‘ulotlarni magnitofonga (videokassetaga) yozib olish va uni keyin muhokama qilish maqsadga muvofiqdir. SHunda tarbiyachi dialogik nutqini tovush, leksik vositalardan foydalanish, grammatik jihatdan rasmiylashtirish nuqgai-nazaridan tahlil qilish mumkin bo‘ladi.

Ayni paytda shuni hisobga olish lozimki, nutqni yozib olish chog‘ida tarbiyachining o‘zini-o‘zi nazorat qilishi evaziga nutq sifati yaxshilanadi. SHuning uchun nutqqa aniqlangan kamchiliklarga tarbiyachining o‘zi va uning o‘rtoqlari diqqat-e‘tibor bilan yondoshishlari zarur.

Nutqqa aniqlangan kamchilik (nomukammallik) larni (yomon diksiya, leksik-grammatik rasmiylashtirishdagi xatoliklar va h.k.) tarbiyachi maxsus daftarga qayd etadi, so‘ngra reja ishlab chiqadi va ularning bartaraf etishga doir ishlarni tashkil qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar atrofdegilarga taqlid qilganlari holda nafaqat to‘g‘ri talaffuz, so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llash, iboralar tuzish sirlarini, balki kattalarda (pedagoglar, ota-onalar, oila a‘zolari va boshq.), atrofdegil bolalarda uchrab turadigan nutq nomukammalliklarini ham o‘zlashtirib oladi. Bolalarning nutq madaniyati pedagogning (va boshqa katgalarning) nutq madaniyatiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Doimo kichkintoylarning diqqat-e‘tibori markazida turadigan va ular bilan muloqot qiladigan tarbiyachining dialogik nutqi bolalar ona tili, nutq madaniyati namunalarini oladigan asosiy manba hisoblanadi, shuning uchun u nafaqat to‘g‘ri so‘zlashi, ona tilining barcha tovushlarini aniq va tushunarli qilib talaffuz etishi, balki u muayyan balandlikdagi ovozda bosiqlik bilan so‘zlashi, uning dialogik nutqi intonatsion jihatdan ifodali, grammatik jihatdan to‘g‘ri rasmiylashtirilgan, ravon, tushunish uchun oson bo‘lishi hamda so‘z bilan belgalash to‘g‘ri va aniq amalga oshirish lozim.

Tarbiyachining ifodalilik vositalaridan foydalangan holda o‘qigan hikoyasi bolalarda qiziqish uyg‘otadi, ularda qayg‘urish, so‘z kuchini his qilish, uning mazmunini anchagacha yodda saqlab qolish imkonini beradi; agarda aynan shu hikoya tez va quruq ohangda his-hayajonlarsiz o‘qib berilsa, u faqatgina badiiy acapra nisbatan zerikish va befarqlikni shakllantiradi.

Aniq va tushunarli so‘zlaydigan, iboralar, so‘zlar va har bir tovushni alohida-alohida aniq talaffuz etayotgan, ya‘ni diksiyaga ega bo‘lgan pedagog yordamida bolalar ona tilidagi tovushlarni muvaffaqiyatli ravishda o‘zlashtiradilar. Ko‘pincha pedagoglarning talaffuzi biroz noaniq va tushunarsiz bo‘ladi, ular tovushlar va so‘zlarni og‘izni etarli darajada ochmasdan talaffuz qiladilar, ayrim tovushlar yutib yuboriladi, undoshlar tushunarsiz talaffuz etiladi.

Pedagog talaffuzning adabiy me‘yorlariga rioya qilishi, o‘z dialogik nutqida turli shevalar, mahalliy so‘zlashuvlar ta‘sirini bartaraf etishi, so‘zlarda urg‘uni to‘g‘ri qo‘yishi lozim.

Nutqda hissiyotlar, fikrlarning eng nozik qirralarini ham ifodalash mumkin. Bunga nafaqat tegashli so‘zlar yordamida, balki ifodalilikning intonatsion vositalari, ovoz quchi, sur‘ati, mantiqiy



urg‘usi, pauza, ritm, tembr, ohangdan to‘g‘ri foydalanish tufayli erishiladi. Ushbu vositalardan foydalangan holda tarbiyachi tomonidan o‘qib berilgan she‘rlar, xikoyalar bolalarga ularning mazmunini yaxshi tushunish, ona tilining qudrati va go‘zalligini his qilish imkonini beradi.

Bir xil ohangdagi nutq kichik tinglovchilarni toliqgirib qo‘yadi, matn mazmuniga bo‘lgan qiziqishni pasaytiradi. Bolalar bunday nutqni tinglash davomida tez toliqib qoladilar, boshqa tomonlarga qaraydilar, chalg‘iy boshlaydilar, keyinroq esa umuman tinglamay qo‘yadilar.

Tarbiyachining dialogik nutqi emotsional to‘liq, intonatsiyalarga boy, etarli darajada baland va tezligi bir maromda bo‘lishi lozim. Bolalar bilan muloqotda xuddi tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz etib bo‘lmaganidek, nutqning shoshqaloqpigiga ham yo‘l qo‘yilmaydi. Agarda nutq biroz ohista sur‘atda davom etsa, u yaxshi qabul qilinadi. Bunday sur‘at nutqning aniqligishsh oshiradi va aksincha, tezlashtirilgan nutq qabul qilishni qiyinlashtiradi. Bolalar uchun mo‘ljallangan ertaklar, hikoyalar, she‘rlarni badiiy so‘z ustalari odatda, og‘zaki nutqqa qaraganda biroz sekin sur‘atda o‘qiydilar. Bolalarga biroz sekinlashtirilgan nutqni qabul qilish, uning mazmunini kuzatish, matnni eslab qolish oson kechadi.

Shu bilan birga esda gutish lozimki, bu qoida hamma narsani ham qamrab olmaydi. Badiiy asarlarni qishda nutqni jadallashtirish yoki sekinlashtirishni ushbu chog‘da mazmun tushuntirilayotgani bilan oqlash mumkin, ayni paytda bu badiiy ifodalilik vositasiga aylanishi zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. T., 2018 y.
2. Qodirova F.R. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi (Oliy o‘quv yurtlari uchun). T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2004.
3. Qodirova F.R. Nutq o‘stirishni baholash uslubi.



## TABIAT BILAN TANISHTIRISH BURCHAGINING TA'LIMIY VA TARBIYAVIY AHAMIYATI

**Rasulova Zamira Sirojiddinovna**

Namangan viloyati PYAMO'MM katta o'qituvchi.

Tel: 99-970-19-67

**Annotatsiya:** maqolada bolalarni tabiat bilan tanishtirishning jarayoni har tomonlama rivojlangan shaxs ma'naviy qiyofasini kamol topish jarayonining muhim va tarkibiy qismi bo'lishiga, tabiat bilan tanishtirish yo'llari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha, tabiat burchagi, hayotiy va biologik .

Bolalarni tabiat bilan tanishtirib borishda bolalar maktabgacha ta'limlari qoshidagi tabiat burchagi juda katta rol o'ynaydi.

Tabiat burchagida saqlanadigan o'simliklar va hayvonlar bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini oshishida, shakllanishida dastlabki manba bo'lib xizmat qiladi.

Bolalar tabiat burchagidagi hayvonlar va o'simliklar bilan uzviy aloqada bo'ladilar. Tabiat burchagi bolalarni tabiat bilan bevosita munosabatda bo'lishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham yil o'n ikki oy o'simlik va hayvonot olami bilan tanishib, ular bilan muloqotda bo'lish imkonini beradi.

Tarbiyachi tabiat burchagida o'simliklarni o'stirishga kirishishdan avval unga qo'yiladigan talablarni bilib olishi zarur. Bu talablar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Tabiat burchagidagi o'simliklar shu xona sharoitida, maktabgacha ta'lim tashkiloti joylashgan ekologik muhitda bemaol o'sa oladigan bo'lishi kerak.

2. O'simliklarning normal o'sishi uchun issiqlik va yorug'lik etarli bo'lishi zarur.

3. Tabiat burchagidagi o'simliklarni suvga bo'lgan talabiga harab joylashtirilishi va ma'lum vaqtlarda namlik bilan ta'minlanib turilishi kerak.

4. Tabiat burchagida o'stiriladigan o'simliklar chiroyli, bolalarga estetik zavq bag'ishlaydigan, bolalarni o'ziga tortadigan manzarali o'simlik bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

5. Tabiat burchagidagi o'simliklar bolalar sog'ligiga zarar yetkazmaydigan bo'lishi darkor.

6. Tabiat burchagidagi o'simliklar bolalarning bo'yi etadigan, ularga suv bemaol quyiladigan, barglarini arta oladigan, tagini yumshata oladigan joyda bo'lishi kerak.

Tarbiyachilar tabiat burchagida o'simliklarni o'stirish va ular bilan bolalarni tanishtirish uchun ularning nomlarini va har bir o'simlikning morfologik, biologik xususiyatlarini yaxshi bilishi zarur. Bunda qaysi o'simlik quyosh yorug'ligi yaxshi tushadigan joyda va qaysi biri yorug'lik kam tushadigan joyda bo'lishini bilish ham muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, usimliklarning suvga, organik va mineral o'g'itlarga nisbatan talabi ham har xil bo'ladi. Ba'zi o'simliklar syersuvlikni (gidrofit o'simliklar), ba'zilar o'rtacha suvlikni (mezofit o'simliklar), ba'zilar kam suvlikni (ksyerofit o'simliklar) talab qiladi. Masalan, xitoy atirguliga har kuni suv quyish zararli. Chunki uning ildizi bunda chirib ketadi. Xina, begoniya kabilarni esa har kuni sug'orish mumkin.

Bundan tashhari gullarga suv quyish qoidalarini yaxshi bilish kerak. Xonada o'stiriladigan gullarga mumkin qadar vodoprovod suvini quymaslik kerak. Chunki bunday suv birinchidan sovuq bo'lishi (ayniqsa qish paytlarida), ikkinchidan uning tarkibida xlor ko'p bo'lishi mumkin. Shu sababli bu xildagi suv ishlatishdan oldin kam deganda xona sharoitida 1—2 kun saqlanishi zarur. Gullarga quyish uchun ariq va hovuz suvlari eng yaxshi hisoblanadi. Ularni to'g'ridan-to'g'ri gulga quyish mumkin.

Tabiat burchagida gul o'stirish uchun mos keladygan tuproqni tanlay bilish kerak. Buning uchun 50% tuproq, 25% qum va 25% go'ng olib, ularni yaxshilab aralashtiriladi. Bu tuproqni 10—12 kun davomida o'rtacha haroratda (15—18°) xonada saqlab, keyin o'simliklarni o'stirishda foydalansa bo'ladi.

Tabiat burchagida hayvonlarni boqishning o'ziga xos hayotiy va biologik tomonlari bo'lib, uni har bir tarbiyachi yaxshi bilishi zarur. Tabiat burchagida hayvonlarni asrash o'simliklarni asrashdan farq qiladi. Chunonchi hayvonlar harakat qiladi, tovush chiharadi, go'ng, pat, jun tashlaydi, emishini to'kadi va ma'lum miqdordagi hidga ega bo'ladi. O'simliklarda esa bu xususiyatlar kuzatilmaydi.

Shunga ko'ra ularni tabiat burchagida asrash quyidagi talablarga javob berishi kerak:



1. Tabiat burchagida saqlanadigan hayvonlar biologik tuzilishi jihatidan maktabgacha ta'lim joylashgan ekologik sharoitga mos kelishi va xonada o'sish xususiyatiga ega bo'lishi kerak.

2. Saqlanadigan hayvonlar ularga bolalar haray oladigan, parvarish qila oladigan, ovqatni tanlamaydigan bo'lishi zarur.

3. Saqlanadigan hayvonlar bolalarga zarar yetkazmaydigan, xavfeiz, sog'lom bo'lishi kerak.

4. Saqlanadigan hayvonlarni tanlashda ularning chiroyli, bolalarga estetik zavq beradigan, bolalarni o'ziga tortadigan xususiyatlariga va tashqi tuzilishiga e'tibor berish zarur.

5. Hayvonlar asraladigan xona — ularning yashashi, normal hayot kechirishi, ko'payishi uchun qulay va talabga javob berishi kerak.

6. Hayvon va qushlar bolalar parvarish qila oladigan va bo'yi etadigan bo'lishi kerak. Ularga ovqat, don, suv berish uchun, tagini vaqt-vaqti bilan tozalab turish uchun sharoit mavjud bo'lishi zarur.

Tabiat burchagida sut emizuvchilardan quyon, tipratikan, dengiz cho'chqasi, olmaxon kabilarni; suvda ham quruqda yashovchilar va sudralib yuruvchilardan toshbaqa, kaltakesak, baqa, qurbaqalarni; qushlardan turli xil to'tilar, kanareyka, kaklik, kaptar, bedana, tovuq, bulbul kabilarni asrash mumkin.

Agar imkoni bo'lsa, hamma grupp bolalari keng foydalana oladigan umumiy jonli burchak tashkil qilinsa yanada ham yaxshi bo'lardi. Bunda istagan grupp bolalar ekskursiya qilib kelib ko'radi, tanishadi, o'rganadi. Bunday jonli tabiat burchagida tulki, quyon, tovuq, echki, harsak kabilarni qo'yib foydalanish mumkin. Tabiat burchagida akvariumlar ham tashkil qilinadi. Akvariumlar tayyor holda zoomagazinlardan sotib olinadi. Ular aylana yoki to'rtburchak shakllarda bo'lishi mumkin. Ularni gruppaga qo'yish oldidan 4—5% li kaliy pyermanganat yeritmasi bilan yaxshilab yuviladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. İlk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. T., 2018 y.

2. Veretennikova A.S. «Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi».



## BOLALAR MULOQOTI DAVOMIDA O‘Z FIKRINI BAYON QILISHI

Rasulova Zamira Sirojiddinovna  
Aliyeva Ravshanoy Zaripovna  
Namangan viloyati PYAMO‘MM  
katta o‘qituvchilari.  
Tel: 99-970-19-67. 94-151-23-03

**Annotatsiya:** maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarning Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida axborot ayirboshlashni o‘z ichiga olish yo‘llari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Maktabgacha, muloqot, kommunikativ, faoliyat va muloqot .

Muloqot faqat insonlarga xos bo‘lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir-birlari bilan muloqotda bo‘lish ehtiyoji tug‘iladi. O‘zaro muloqot esa, tabiiyki, kishilik jamiyati vujudga kelishining eng asosiy unsuri hisoblanadi. Psixologiya lug‘atida muloqot tushunchasiga ikki xil ta’rif beriladi:

1.Muloqot — hamkorlikdagi faoliyat ehtiyoji bilan taqozolangan aloqa o‘rnatish va uni rivojlantirish jarayoni;

2.Muloqot — belgilar tizimi orqali subyektlarning o‘zaro ta’sirlashuvi. Muloqot — odamlar o‘rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog‘lanishlar rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir.

Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida axborot ayirboshlashni o‘z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ (o‘zaro aloqaga doir) jihati hisobga olinadi. Muloqot tushunchasini kommunikatsiyadan farqlash kerak. Kommunikatsiya — tirik va o‘lik tabiatdagi tizimlar o‘rtasida axborot almashinuvini anglatadi. Hayvonlar o‘rtasidagi signallar almashinuvi, insonning texnik vositalar bilan aloqa qilishi — bularning barchasi kommunikatsiya. Muloqot esa faqat insonlar o‘rtasidagina amalga oshirilishi mumkin. Inson bolasi aynan boshqalar bilan muloqotda va munosabatda bolish jarayonida shaxsga aylanib boradi, ijtimoiy tajriba va madaniyatni egallab boradi. Muloqot ijtimoiy faollikning ontogeneza (individual rivojlanish yo‘li) paydo bo‘ladigan birinchi turidir.Faoliyat davomida insonlar o‘rtasida yangi-yangi munosabatlar va aloqalar shakllanadi. Demak, faoliyat va muloqot o‘zaro chambarchas bog‘liqdir.Kishilar munosabatga kirishishda awalo tilga murojaat qiladilar.Muloqotning yana bir jihati munosabatga kirishuvchilarning o‘zaro birgalikdagi harakati — nutq jarayonida faqat so‘zlar bilan emas,balki harakatlar bilan ham muloqot yuritishdan iborat. Munosabatning keyingi jihati muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlaridir. Masalan, biz bir kishi bilan muloqotga kirishishdan awal uni hurmat qilib yoki mensimasdan munosabatda bo‘lamiz. Demak,muloqot jarayonida *kommunikativ* (axborot uzatish), interaktiv (o‘zaro birgalikda harakat qilish) va *perseptiv* (o‘zaro birgalikda) idrok etish amalga oshiriladi.Har bir kishining o‘z “Men”i atrofdagilar bilan bo‘ladigan muloqot jarayonida shakllanadi. Shaxsning hayot yo‘llari awal oilada,bog‘cha, maktab, institut, ishxona, keksalar orasida, ya’ni guruh va jamoalarda rivojlanadi. Muloqotga bo‘lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Kimlar bilandir bo‘lgan muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, ayrim hollarda esa qoniqmaslikni his qilamiz. Pedagogik muloqot bu — muloqot turlaridan biri bo‘lib, pedagogik faoliyatda muhim o‘rin tutadi.

Ilk bolalik davrida bolalar kattalarga qaram bo‘ladilar, chunki ularning mustaqil harakat qilishlari qiyin. Hatti-harakat xulq me’yorlarini bolalar kattalardan o‘rganadilar. Bu davrda bola xulqining motivi anglanilmagan bo‘ladi. Bolaning ichki dunyosi shakllanishi kattalarga bog‘liq. Chunki bola kattalar kutgan muloqotni darhol bera olmaydi. Bola predmetlarga bo‘lgan qiziqishini awal kattalarga murojaati orqali bildiradi. Kerakli yordamni nutqni qo‘llash orqali oladi. Kattalar agar bola bilan kam muloqotda bo‘lsalar, uning nutqi rivojlanishdan orqada qolishi mumkin. Muloqotga bo‘lgan ehtiyoj bolada kattalarning muloqoti orqali o‘sadi. Ilk bolalik davrida nutqning rivojlanishi ikki xil yo‘l orqali amalga oshiriladi: kattalar nutqini tushunishi hamda bolaning shaxsiy faol nutqi shakllanishi orqali. Bola bilan onaning muloqoti faqatgina so‘zlar bilan emas, balki mimika, imo-ishora, pantomimika, ohang va vaziyat kabilar orqali amalga oshiriladi. Bular harakatga signal bo‘lib xizmat qiladi.

2 yoshli bolalar oldida o‘yinchoqlar turgan bo‘lsa onasi unga “ber menga” deb o‘yinchoqni



ko'rsatsa darhol bola uni olib beradi. “Mumkinmas”, degan so'z bolaning harakatlari to'xtashiga signal bo'lib xizmat qiladi. Masalan, rozetkaga qo'li tegayotganida, qizib turgan dazmolga qo'li yaqinlashayotganida, oyoq kiyimlarga qo'lini tekkazayotganida bu so'zning aytilishi bola harakatlarini to'xtashiga olib keladi.

3 yoshga to'lganda bola kattalar bilan nutq orqali munosabatlarga bermalol kirisha oladi. Bu yoshdagi bolalar hamma kiyimini o'zi kiyishga harakat qiladi. O'z ehtiyojlarini so'zlar orqali bayon qila oladi. Nutqni to'la egallaydi. Bola kattalarning ko'rsatmasiga binoan hatti-harakatlarini to'g'ri yo'naltirishga o'rganadi. U kattalarning o'zaro muloqotini diqqat bilan tinglaydi, tushunishga harakat qiladi. Bu davrda bolalar ertak, hikoya, she'r, lami eshitishni juda yaxshi ko'radi. Bu — bolaning tashqi olamni bilishiga katta ta'sir ko'rsatadi. 1,5 yoshli bolalar 30—40 so'zdan 100 gacha bo'lgan so'zlarni egallaydi, xolos. 2 yoshdan so'ng bolalar kattalarga juda ko'p savollar bilan murojaat qiladilar. “Bu nima?”, “Nimaga bunaqa?” kabi savollar bolaning nutqi o'sayotganidan dalolat beradi. 2 yoshning oxirigacha bola 300 ta so'zni o'rganadi. 3 yoshning oxiriga borib, 500 dan —1500 gacha so'zni bilib oladi. Lekin bu yoshdagi ayrim bolalar nutqi avtonom bo'ladi, ular nonni “nanna”, suvni “umma” kabi iboralar bilan ataydi. Asta-sekin kattalar bolalar bilan to'g'ri muloqotda bo'lsalar, bu avtonom nutq yo'qolib boradi, ya'ni bola har bir narsani o'z nomi bilan ayta boshlaydi. Bolaning bitta aytgan so'zi uning aytmoqchi bo'lgan gapini ifodalab beradi. Masalan, “oyi” desa oyisi bolaga non berishi yoki suv olib berishi mumkin. Shu bilan bolaning ehtiyoji qondiriladi. Bolani muloqotga o'rgatish uning ruhiy jarayonlari rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir etadi. Bu davrda bolalar nimani xohlasa o'sha zahoti muhayyo bo'lishi kerak. Lekin buni asta-sekin tarbiyalash orqali yo'qotish mumkin, ya'ni sabrli bo'lishni bolaga yoshlikdan o'rgatish lozim.

3 yoshli bolalarda birinchi “inqiroz” davri boshlanadi. Bu davrda bolalarda “hamma ishni o'zim qilaman”, “men o'zim” degan tushunchalar shakllanadi. Ular qaysar, injiq bo'lib qoladilar. Ota-onalar bu yoshdagi bolalarga tarbiya berishda e'tiborliroq bo'lishlari lozim. 3 yoshdan so'ng bolalardagi krizis (inqiroz) davri sekinlashib qoladi. Bolaning kattalar bilan bo'ladigan muloqotlari normallasadi. Bola bu yoshda ota-onaning diqqat markazida bo'lmaydi, chunki uning kichik ukasi bo'lishi mumkin.

